U.A.MAXMONOV

# AKKREDITATSIYA VA MUVOFIQLIKNI BAHOLASH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**U.A.MAXMONOV**

# AKKREDITATSIYA VA MUVOFIQLIKNI BAHOLASH

(o‘quv qo‘llanma)

***Oliy o‘quv yurtlarining 5310900 – “Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti (sanoat)” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan***

QARSHI
«INTELLEKT» NASHRIYOTI
2021

**UDK 613.624.120**
**BBK 37.653**
**U.A.Maxmonov.**
Akkreditatsiya va muvofiqlikni baholash. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. «Intellekt» nashriyoti, 2020. –190 bet.

Mazkur o‘quv qo‘llanma texnika oliy o‘quv yurtlarining 5310900 – “Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti” bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

**Taqrizchilar:**

| | |
|---|---|
| **J.Nuriddinov** | – O‘zTest DUK Qashqadaryo filiali yetakchi mutaxassisi |
| **R.Yusupov** | – QarMII “Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish” kafedrasi katta o‘qituvchisi |

***O‘quv qo‘llanma Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Uslubiy kengashi (Bayon №12, 27.07.2020 yil) va institut Kengashi (Bayon №1, 26.08.2020 yil) tavsiyasiga asosan chop etilgan.***

ISNB 978-9943-77475-4-4

© U.A.Maxmonov, 2021
© «Intellekt» nashriyoti, 2021

## KIRISH

Hozirgi zamon talablariga mos, raqobatbardosh bilimli va yetarlicha malakaviy ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlab yetishtirishda oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan fanlardan nazariy bilimlarning mukammalligi, yetarlicha ilmiy asoslanganligi va amaliyot bilan chambarchas bog'liqligi muhim ahamiyatga ega. Nazariy bilimlarning qanchalik darajada mukammalligi o'quv adabiyotlari, jumladan darsliklar va o'quv qo'llanmalarda o'z aksini topadi. Oliy o'quv yurtlarida 5310900 – "Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti (sanoat)" ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga o'qitiladigan "Akkreditatsiya va muvofiqlikni baholash" fani ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar, ishlab chiqarish korxonalarida menejment tizimlari va xodimlarning muvofiqligini baholash, idoralarni va sinov laboratoriyalarini akkreditatsiyalash, ichki va tashqi bozorlarda mahsulot hamda xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish, savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf qilish, respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari va muvofiqlikni baholash sohasida xalqaro muammolar va me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlanish masalalarini qamraydi.

"Akkreditatsiya va muvofiqlikni baholash" faniO'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining ingeratsiyalashuvi bilan aloqador akkreditatsiya, sertifikatlashtirish va muvofiqlikni baholash, shuningdek metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifat menejmenti yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarni tayyorlash sohasida mihimahamiyatga ega.

# I-BOB. MUVOFIQLIKNI BAHOLASH

## 1.1. “Akkreditatsiya va muvofiqlikni baholash” fanining maqsadi va vazifalari

Iste’molchilar manfaati va xavfsizlikni ta’minlash uchun, shunindek odamlarning hayoti va salomatligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, ko‘plab mamlakatlarda mahsulot(xizmatlar)ning muvofiqligini majburiy tasdiqlash, shuningdek, ularning mustaqil sinovlari o‘tkaziladi.

Shu bilan birga, har bir mamlakatda mahsulotlar (xizmatlar), shuningdek, uni sinash usullari va vositalariga nisbatan o‘z texnik talablari ishlab chiqilgan bo‘lib, sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarining yaxlit tarmog‘i yaratilgan hamda ularni akkreditatsiyadan o‘tkazuvchi maxsus organlarning faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni bunday sinov laboratoriyalarda sinash natijalari mahsulotni seriyali chiqarish yoki import qilish, maxsus hujjat (masalan, muvofiqlik sertifikati) yoki mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini ko‘rsatuvchi ma’lum bir belgi bilan belgilash to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarining muvofiqlikni baholash faoliyati natijalariga ishonch hosil qilish uchun ushbu tashkilotlarning faoliyat yuritishi maxsus vakolatli organ tomonidan rasman tan olinishi lozim, ya’ni akkreditatsiyadan o‘tkazilishi lozim.

Shunday qilib, akkreditatsiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- muvofiqlikni tasdiqlash sohasida bir yoki boshqa ko‘zda tutilgan tegishli faoliyat turlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan sertifikatlashtirish organlari va laboratoriyalarni tanlash va ularga tegishli vakolatlar berish;
- o‘lchashlar birliligi asosida o‘tkaziladigan mahsulotlar (xizmatlar) sinovining obyektivligi va ishonchliligini, shuningdek ularning muvofiqligini baholashning mustaqil obyektiv tarzda amalga oshirilishini ta’minlash;
- o‘tkazilgan sinov, akkreditatsiya va sertifikatlashtirish faoliyati natijalarini o‘zaro tan olish uchun shart-sharoitlar yaratish;

-xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning tavsiyalari bilan milliy akkreditatsiyatizimlarining qoidalari va tartib-taomillarini uyg‘unlash-tirish.

“Akkreditatsiya va muvofiqlikni baholash” fanini talabalarga o‘qitishdan maqsad talabalarda quyidagi nazariy bilimlarni va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdir:

- mahsulot va xizmatlar, sifat menejmenti tizimlarini hamda xodimlarning muvofiqligini baholash jarayonlarida qo‘llaniladigan usullar va jarayonlarketma-ketligi;
- muvofiqlikni baholash idoralarini akkredi-tatsiyalash tartib-qoidalari;
- akkreditatsiyalash va muvofiqlikni baholash natijalarini rasmiylashtirish hamda muayyan sharoitlarga mos holda akkreditatsiyani tashkillashtirish.

Fanning asosiy vazifasi shundan iboratki, talabalarga mahsulotlar va xizmatlarning raqobatbardoshligini aniqlash va muvofiqligini rasman tasdiqlash borasida qonunchilik asoslari, ishlab chiqarish, mahsulot va xizmatlarni, shuningdek, xodimlarni muvofiqligini baholash bo‘yicha ishlarni o‘tkazish usullari va vositalarining nazariy jihatlari hamda ma‘lum sanoat mahsulotlari va iqtisodiyotdagi ko‘rsatilayotgan xizmatlar uchun ularni me‘yoriy hujjatlarda o‘rnatilgan talablar bo‘yicha muvofiqligini baholashni o‘rgatishdan iborat.

Ushbu fan talabalarga akkreditatsiya faoliyatiga asos bo‘luvchi me’yoriy hujjatlar, muvofiqlikni baholash hamda natijalarni rasmiylashtirish, sanoati rivojlangan xorij mamlakatlarining akkreditatsiya bo‘yicha milliy idoralari faoliyati to‘g‘risida bilimlarni shakllantiradi.

“Akkreditatsiya va muvofiqlikni baholash” fanini o‘zlashtirish jarayonida talabalar:

- muvofiqlikni baholash, muvofiqlikni baholash obyektlari, muvofiqlikni baholash faoliyatlari to‘g‘risida;

- akkreditatsiya bo‘yicha xalqaro, hududiy va milliy tashkilotlarning faoliyatlari va tuzilmasi to‘g‘risida;

- mahsulot va xizmatlar, xodimlarning muvofiqligini kafolatlovchi me’yoriy texnikaviy va qonuniy hujjatlar haqida;

- savdodagi texnik to‘siqlar, mahsulotlarning eksport va import jarayonlari haqida tasavvurga ega bo‘ladilar.

Fanni o‘rganish jarayonida talabalardan quyidagilarni bilishlari talab etiladi:

- O‘zbekiston Respublikasi akkreditatsiya milliy tizimi;

- akkreditatsiya milliy tizimi va muvofiqlikni baholash tizimlarining maqsad va vazifalarini;

- muvofiqlikni baholash va akkreditatsiya tartiblari, muvofiqlikni baholash idoralarining huquq va burchlari hamda vaziflari;

- akkreditlangan sinov laboratoriyalari va markazlari haqida;

- mahsulot, xizmat, jarayon, tizim va xodimlarning muvofiqligini tasdiqlashda akkredilashtirish, sertifikatlashtirish, muvofiqlikni deklarat-siyalash, inspeksion nazorat, yukni yuklashdan oldin va tushirishdan oldin inspeksion nazorat tartiblarini;

- akkreditlangan obyektlar ustidan inspeksion nazoratni o‘tkazish va aniq sharoitlar uchun akkreditatsiya va muvofiqlikni baholashni aniqlash va usullarni tanlash;

- muvofiqlikni tasdiqlash natijalarini rasmiylashtirish haqida;

- xalqaro, hududiy akkreditatsiya faoliyatlari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan me’yoriy va ilmiy-texnik hujjatlarni bilishi va ulardan foydalana olishi.

**Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni.** Ishlab chiqarishda va sanoatda inson hayoti va sog‘lig‘i, yuridik va jismoniy shaxslarning hamda davlatning mol-mulki xavfsizligini ta’minlash, atrof-muhit muhofaza qilinishini, shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanilishini ta’minlash, mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlarning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash muhim ahamiyatga ega.

Buning uchun muvofiqlikni baholash organlari akkreditatsiyaning belgilangan sohasida ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini tasdiqlash,

ichki va tashqi bozorlarda mahsulot hamda xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdoda ishtirok etish, savdodagi texnik to‘siqlarni bartaraf etish masalalarini yoritib beradi. Shu sababli ushbu fan asosiy mutaxassis fani hisoblanib, ishlab chiqarish texnologik tizimining ajralmas bo‘g‘ini bo‘lib hisoblanadi.

## 1.2. Asosiy tushunchalar va ta’riflar

Akkreditatsiya so‘zi lotincha “*accredo*” so‘zidan olingan bo‘lib, “*ishonmoq, ishonch bildirmoq*” degan ma’nolarni anglatadi.

Akkreditatsiya va uning obyektlari haqida 1.1-rasmda tasvirlangan.




**1.1-rasm. Akkreditatsiya va uning obyektlari.**

Akkreditatsiyadan o‘tkaziladigan xizmatlarga ta’lim sohasidagi xizmatlar, tadqiqotlat o‘tkazish bo‘yichaxizmatlar (tadqiqot laboratoriyalari), klinik diagnostika bo‘yicha xizmatlar (meditsina laboratoriyalari), kalibrovkalash bo‘yicha xizmatlar (kalibrovkalash laboratoriyalari), sertifikatlashtirish bo‘yicha xizmatlar (sertifikatlashtirish organlari) va boshqalar kiradi. Akkreditatsiya ishlari akkreditatsiya bo‘yicha organlar tomonidan amalga oshiriladi.

***Akkreditatsiya*** – muayyan tashkilot ma’lum ishlarni amalga oshirishga vakolatli ekanligi yoki muayyan usul muayyan maqsadlarda qo‘llanishi mumkinligini tasdiqlash uchun bajariladigan tadbirlar [6].

2013 yil 4 oktabrda qabul qilingan “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonunida “akkreditatsiya” atamasiga quyidagicha izoh berilgan:

***Akkreditatsiya*** - yuridik shaxslarning muayyan faoliyat sohasida muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini Milliy akkreditatsiya organi tomonidan rasman tasdiqlash [5];

Ushbu Qonunda sohada ishlatiladigan atamalar va tushunchalar ham keltirib o‘tilgan. Jumladan:

***akkreditatsiya sohasi*** - muvofiqlikni baholash organining akkreditatsiya chog‘ida Milliy akkreditatsiya organi tomonidan belgilana-digan faoliyati sohasi;

***inspeksiya nazorati*** - mahsulotni, ishlab chiqarish jarayonlarini, xizmatlarni, menejment tizimlarini, muvofiqlikni baholash organlarini ularning muvofiqlikni baholash davrida belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan davriy qayta baholash tartib-taomili;

***inspeksiya organi*** - yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiyani va inspeksiya nazoratini o‘tkazish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik shaxs;

***milliy akkreditatsiya tizimi*** - muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish qoidalari va tartib-taomilini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normative hujjatlarga muvofiq davlat miqyosida faoliyat ko‘rsatuvchi tizim;

***muvofiqlikni baholash*** - mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlar, muvofiqlikni baholash organlarining normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash bo‘yicha faoliyat;

***muvofiqlikni baholash organlari*** - yuridik shaxs bo‘lgan va muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan inspeksiya organlari, sinov va kalibrlash laboratoriyalari (markazlari), mahsulotni, xizmatlarni, menejment tizimlarini, xodimlarni sertifikatlashtirish organlari;

***muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya*** – ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi mahsulotning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normative hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat;

***muvofiqlikni tasdiqlash*** - normativ-huquqiy hujjatlarning, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normative hujjatlar-ning talablari bajarilganligi isbotlangani haqida Milliy akkreditatsiya organi yoki muvofiqlikni baholash organlari tomonidan qabul qilingan qarorga asoslangan hujjatlashtirilgan (akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma, muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya tarzidagi) tasdiq;

***xodimlar***-muvofiqlikni baholashga doir ishlarni amalga oshirish uchun tayyorgarlikka va malakaga ega bo'lgan mutaxassislar.

## 1.3. Akkreditatsiya bo'yicha xalqaro tashkilotlar

Xalqaromiqyosda sertifikatlashtirishningtashkiliy-uslubiy ta'minotini Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO)ning "Sertifikatlash-tirish va sifat bo'yicha qumitasi" – CASCO (CASCO - Committee on conformity assessment) amalga oshirib keladi.

ISO Bosh Assambleyasining 1970 yilda o'tkazilgan VIII-sessiyasida tavsiyalar o'rniga xalqaro standartlarni ishlab chiqishga o'tish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu esa ISO tashkiloti doimiy a'zolarining xalqaro standartlashtirishga bo'lgan munosabatining tubdan o'zgarishiga va milliy va tashqi savdo amaliyotida xalqaro standartlarni qo'llashning ortishiga olib keldi.

Shu bilan birga, ushbu sessiyada Mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini sertifikatlashtirish bo'yicha qo'mita (SERTICO)ni tuzish haqida qaror qabul qildi. 1985 yilda bu qo'mita Muvofiqlikni baholash bo'yicha qo'mita (CASCO) deb qayta nomlandi.

Ushbu organga milliy sertifikatlashtirish tizimlaridagi farqlar mamlakatlar o'rtasidagi savdoni kengaytirish uchun to'siq bo'lmasligi uchun sertifikatlashtirish masalalariga yagona yondashuvni ishlab chiqish maqsadida sertifikatlashtirishning barcha jihatlari bo'yicha mamlakatlar

uchun xalqaro tavsiyalarni ishlab chiqish topshirildi. Bu jihatlarga quyidagilar kiradi:

- mamlakatlarda sinov markazlarini tashkil yetish;
- ularga qo‘yiladigantalablar; sertifikatlashtirish mahsulotlarini markalash;
- sertifikatlashtirish tizimlarini boshqaruvchi organlarga qo‘yiladigan talablar va boshqalar.

CASCO mahsulotlar, xizmatlar, jarayonlar va sifat tizimlarining standartlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash, ushbu faoliyat amaliyotini o‘rganish va ma’lumotlarni tahlil qilish masalalari bilan shug‘ullanadigan qo‘mita hisoblanadi. Shuningdek ushbu qo‘mita mahsulotlar, xizmatlar, sifat tizimlarini sinash va muvofiqlikni baholash (sertifikatlash) hamda sinov laboratoriyalari va sertifikatlashtirish organlarining vakolatini tasdiqlash bo‘yicha ko‘rsatmalar ishlab chiqadi.

CASCO faoliyatining muhim sohalaridan biri - bu milliy va mintaqaviy sertifikatlashtirish tizimlarini o‘zaro tan olinishini va qabul qilinishini, shuningdek, sinovlar va muvofiqlikni baholash sohalarida xalqaro standartlardan foydalanishni ta’minlash va rag‘batlantirishdir.

CASCO muvofiqlikni baholash masalalar bilan ham shug‘ullanadi. U muvofiqlikni baholash sohasidagi siyosatni amalga oshiradi va shu sohada qo‘llaniladigan standartlarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi, lekin muvofiqlikni baholashni amalga oshirmaydi. Qo‘mita ishida ISO ning doimiy a’zolari va tegishli a’zolarning vakillari ishtirok etadi.

Qo‘mita faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

-turli mamlakatlarda sifatni ta’minlash tizimi va mahsulotlarning muvofiqligini baholash usullariga o‘rnatilgan talablarini o‘rganish;

-mahsulot, jarayonlar, xizmatlarni sertifikatlashtirish va inspeksion nazorati, sinashlar bo‘yicha shuningdek, sifatni ta’minlash tizimlari va sertifikatlashtirish bo‘yicha idorlar, sinov laboratoriyalarini baholash va faoliyati bo‘yicha qo‘llanmalar tayyorlash;

-milliy va hududiy sifatni ta‘minlash tizimlarini qabul qilish va o‘zaro tan olinishiga ko‘maklashish hamda sifat tizimi, sertifikatlashtirish, tekshirish, sinashga xalqaro standartlardan foydalanishga yordamlashish.

Quyidagi 1.2-rasmda CASCO qumitasining tarkibiy tuzilishi ko‘rastilgan.




**1.2.-rasm. CASCO qumitasining tarkibiy tuzilishi.**

CASCO qo‘mitasi:

- mahsulotlar, xizmatlar, jarayonlar va sifat tizimlarining standartlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash masalalari bilan shug‘ullanadi;

- sinov laboratoriyalari va sertifikatlashtirish organlarining vakolatini tasdiqlash, shuningdek mahsulotlar, xizmatlar, sifat tizimlarini sinash va muvofiqligini baholash (sertifikatlash) bo‘yicha ko‘rsatmalarni ishlab chiqadi;

- milliy va mintaqaviy sertifikatlashtirish tizimlarini (muvofiqlikni baholash) o‘zaro tan olish va qabul qilishga hamda sinov va muvofiqlikni baholash sohasida xalqaro standartlardan foydalanishga ko‘maklashadi;

- sinov laboratoriyalarini akkreditlash va akkreditatsiya organlarining ish sifatini baholash uchun auditorlar uchun umumiy talablarni yaratish bilan shug‘ullanadi;

- mahsulot va sifat tizimlarining muvofiqlik sertifikatlarini o‘zaro tan olish masalalari va boshqalar bilan shug‘ullanadi.

1.3-rasmda Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO)ning CASCO qo‘mitasi orqali xalqaro miqyosda akkreditatsiya va sertifikatlashtirish

sohasida faoliyatlarni amalga oshirishda xalqaro miqyosda tan olinishi shartlari tasvirlangan.




**1.3-rasm. Sertifikatlashtirishni xalqaro miqyosda tan olish shartlari.**

Rasmda: EA - Akkreditatsiya bo'yicha Yevropa tashkiloti; MLA - Multilateral Recognition Agreement (O'zaro tan olish to'g'risidagi bitim); IAF - International Accreditation Forum (Халқаро аккредитация форуми). TK – texnik qo'mitalar.

**Sinov laboratoriyalarining akkreditlash bo'yicha Xalqaro konferensiyasi (ILAC).** ISO va MEK ishlab chiqqan xalqaro qoidalarga asosan laboratoriyalarni akkreditlashdan maqsad sinov laboratoriyalarini aniq sinovlar yoki aniq tur sinovlari (ISO/MEK Rukovodstvo 2.86) o'tkazishga huquq berishdan iborat.

Akkreditlangan sinovlar tushunchasi mahsulotni sertifikatlashtirish faoliyati bilan chambarchas bog'langandir.

ILAC (International Laboratory Accreditation Conference) birinchi marta 1977 yili Daniya mamlakatining Kopengagen shahrida chaqirilgan.

Konferensiyaning tashkil ko'zda tutilgan maqsad – bu sinov laboratoriyalarining akkreditlash milliy tizimlarini o'zaro tan olish bilan amaldagi va xalqaro bitimlardagi ma'lumotlarni, mahsulotni sinash natijalarini va mahsulot sifati haqidagi boshqa ma'lumotlarni umumlashtirishga harakat qilish.

1980 yilda chaqirilgan ILAKning konferentsiyasida milliy tizimlarining akkreditlangan laboratoriyalarini o‘zaro tan olish bo‘yicha amaldagi ikki va ko‘p tomonlama bitimlar haqida ma’ruza tayyorlashga qaror qabul qilindi.

Ish jarayonida ikki xil xalqaro bitimlar borligi namoyon bo‘ldi:

- laboratoriyalarni akkreditlamasdan sinov natijalarini va sertifikat bayonnomalarini o‘zaro tan olish bitimi;
- sinov laboratoriyalarining akkreditlash milliy tizimlarini o‘zaro tan olish bitimi (tan olishni sertifikatga yozish bilan).

Shu masalalar bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi va ularning natijalariga ko‘ra shunday bitimlar zarurligi qayd qilindi.

Laboratoriyalarni akkreditlash masalalari hozirgi kunda dolzarb bo‘lib, ular bilan bog‘liq bo‘lgan materiallarni sistemali ravishda chop etilish zarurati to‘g‘ildi. Shu masalalarda har doim ILAK o‘z materiallarining chop etilishini «Metrologiya» jurnali tahririyati bilan hamkorlikda amalga oshirilishiga qaror qildi.

1983 yili ILAK tashabbusi bilan sinov laboratoriyalari uchun sifat bo‘yicha qo‘llanma tuzishga tavsiyaviy loyiha tayyorlandi, 1986 yili esa bunday tavsiya qabul qilindi. ISO va XEK (MEK)lar tomonidan qayta ishlangan bu hujjat ISO/XEK (MEK) 49 qo‘llanmasi nomi bilan ma’lumdir.

ILAK tomonidan ishlab chiqarilgan xalqaro hujjatlar mahsulotni chetga chiqaradigan va chetdan mol olib keladigan mamlakatlardagi savdo – iqtisodiy siyosatiga katta ta’sir o‘tkazmoqda. Bunga misol tariqasida YeES mamlaktalari tomonidan 1989 yili qabul qilingan akkreditlanuvchi laboratoriyalarga talablar asosini belgilovchi akkreditlash va sertifikatlashtirish idoralari uchun zarur Yevropa EN – 45000 standartini ko‘rsatish mumkin.

***COSFRAK tashkiloti.*** Bu akkreditatsiya masalalari bo‘yicha qo‘mita bo‘lib, davlat hisobidan mablag‘ bilan ta'minlanadi. Faoliyati muvofiqlikni Yevropa direktivalari, Yevropa normasi (YeN) gamuvofiqligini baholash va sertifikatsiyalashda foydalanishni nazorat qiladi. Ixtiyoriy sertifikatlashtirishni o‘tkazish bo‘yicha ham shug‘ullanadi.

## 1.4. “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi

Ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish jarayonida iste’molchilar huquqlarini himoya qilish, mahsulot va xizmatlar sifati hamda raqobatbardoshligini oshirish, ichki hamda tashqi savdoda texnik to‘siqlarni bartaraf etish mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor vazifalari hisoblanadi. Shu bois bu masalaga bosqichma-bosqich davom etayotgan islohotlarning tarkibiy qismi sifatida alohida e’tibor qaratilib, uning qonuniy asoslari mustahkamlab borilmoqda.

2013 yil 4 oktabrda O‘zbekiston Respublikasining “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi Qonuni imzolandi. Ushbu qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2013 yil 6 iyunda qabul qilingan va Oliy Senat tomonidan 2013 yil 22 avgustda ma’qullangan.

Mazkur Qonunning asosiy maqsadi muvofiqlikni baholash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Qonunda belgilangan me’yorlar ichki va tashqi bozorda mahsulot hamda xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlik, xalqaro savdoda ishtirok etish, savdodagi texnik to‘siqlarni bartaraf etishga erishish, ichki bozorni xavfli tovarlardan himoyalash,eksport salohiyatini kengaytirishni ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Yana bir asosiy jihati, Qonun bilan amalga oshiriladigan vazifalarning bir qismi jismoniy shaxslar va davlatning mol-mulki xavfsizligini hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, eng muhimi, atrof-muhit, har bir fuqaro hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish bilan bog‘liqdir.

“Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi Qonun 4 ta bob va 33 ta moddadan iborat.

Ushbu Qonunning asosiy maqsadi - bu muvofiqlikni baholash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish.

Qonunning birinchi bobi “***Umumiy qoidalar***” deb nomlangan va bu bobga 1-14 moddalar kiradi.

1-modda. Ushbu qonunning maqsadi.

2-modda. Muvofiqlikni baholash to‘g‘risidagi qonun hujjatlari.

3-modda. Asosiy tushunchalar.

4-modda. Muvofiqlikni baholashning asosiy vazifalari.

5-modda. Muvofiqlikni baholashning asosiy prinsiplari.

6-modda. Muvofiqlikni baholash obyektlari.

7-modda. Muvofiqlikni baholashni amalga oshirish.

8-modda. Akkreditatsiyani amalga oshirish.

9-modda. Muvofiqlikni deklaratsiyalash.

10-modda. Inspeksiya nazoratini amalga oshirish.

11-modda. Sertifikatlashtirishni, yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspektsiyani, mahsulot sinovini, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya xulosalarini yoki ekologik ekspertizani amalga oshirish.

12-modda. Muvofiqlikni tasdiqlashni amalga oshirish.

13-modda. Muvofiqlikni baholash qoidalari va tartib-taomili.

14-modda. Muvofiqlikni baholash natijalarini tan olish.

Qonunning 2-bobi **“Muvofiqlikni baholash sohasini davlat tomonidan tartibga solish”** deb nomlangan bo‘lib, unga 15-19 moddalar kiradi. Ushbu moddalarning nomlanishi quyidagicha:

15-modda. Muvofiqlikni baholash sohasini davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshiruvchi organlar.

16-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining muvofiqlikni baholash sohasidagi vakolatlari.

17-modda. O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining, O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish Qo‘mitasining, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat Qo‘mitasining, boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining muvofiqlikni baholash sohasidagi vakolatlari.

18-modda. Muvofiqlikni baholash organlarining huquqlari.

19-modda. Muvofiqlikni baholash organlarining majburiyatlari.

Qonunning 3-bobi **“Akkreditatsiya”** deb nomlanib, unda akkreditatsiya haqida so‘z yuritiladi. Uning tarkibiga kiruvchi moddalar quyidagicha nomlanadi:

20-modda. Milliy akkreditatsiya organi.

21-modda. Akkreditatsiya shartlari.

22-modda. Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma.

23-modda. Milliy akkreditatsiya tizimining belgisi.

24-modda. Akkreditatsiya sohasini o‘zgartirish.

25-modda. Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini to‘xtatib turish.

26-modda. Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish.

27-modda. Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomani bekor qilish.

4-bobi“**Yakunlovchi qoidalar”** deb atalib, unga 28-33 moddalar kiradi.

28-modda. Muvofiqlikni baholashga doir ishlarni moliyalashtirish.

29-modda. Muvofiqlikni baholash organlarining birlashmalari.

30-modda. Nizolarni hal etish.

31-modda. Muvofiqlikni baholash to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

32-modda. Qonun hujjatlarini ushbu qonunga muvofiqlashtirish.

33-modda. Ushbu qonunning kuchga kirishi.

2.2. Qonunning mazmuni va mohiyati haqida umumiy tushunchalar

Qonunning 3-moddasida asosiy tushunchalar yoritib berilgan. Jumladan:

**akkreditatsiya** - yuridik shaxslarning muayyan faoliyat sohasida muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini Milliy akkreditatsiya organi tomonidan rasman tasdiqlash;

**akkreditatsiya sohasi** - muvofiqlikni baholash organining akkreditatsiya chog‘ida Milliy akkreditatsiya organi tomonidan belgilanadigan faoliyati sohasi;

**inspeksiya nazorati** - mahsulotni, ishlab chiqarish jarayonlarini, xizmatlarni, menejment tizimlarini, muvofiqlikni baholash organlarini ularning muvofiqlikni baholash davrida belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan davriy qayta baholash tartib-taomili;

**inspeksiyaorgani** – yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiyani va inspeksiya nazoratini o'tkazish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik shaxs;

**milliy akkreditatsiya tizimi** – muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish qoidalari va tartib-taomilini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq davlat miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi tizim;

**muvofiqlikni baholash** - mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlar, muvofiqlikni baholash organlarining normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash bo'yicha faoliyat;

**muvofiqlikni baholash organlari** – yuridik shaxs bo'lgan va muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan inspeksiya organlari, sinov va kalibrlash laboratoriyalari (markazlari), mahsulotni, xizmatlarni, menejment tizimlarini, xodimlarni sertifikatlashtirish organlari;

**muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya** — ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi mahsulotning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat;

**muvofiqlikni tasdiqlash** - normativ-huquqiy hujjatlarning, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablari bajarilganligi isbotlangani haqida Milliy akkreditatsiya organi yoki muvofiqlikni baholash organlari tomonidan qabul qilingan qarorga asoslangan hujjatlashtirilgan (akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma, muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya tarzidagi) tasdiq;

**xodimlar** – muvofiqlikni baholashga doir ishlarni amalga oshirish uchun tayyorgarlikka va malakaga ega bo'lgan mutaxassislar.

Qonunning 4-moddasida esa muvofiqlikni baholashning asosiy vazifalari nimalardan iborat ekanligi ko'rsatib berilgan. Unga ko'ra muvofiqlikni baholashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- inson hayoti va sog‘lig‘i, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulki xavfsizligini ta’minlash;
- atrof-muhit muhofaza qilinishini, shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanilishini ta’minlash;
- mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlarning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash;
- muvofiqlikni baholash organlari akkreditatsiyaning belgilangan sohasida ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini tasdiqlash;
- ichki va tashqi bozorlarda mahsulot hamda xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish;
- xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdoda ishtirok etish;
- savdodagi texnik to‘siqlarni bartaraf etish.

Qonunning 5-moddasi “Muvofiqlikni baholashning asosiy prinsiplari” deb nomlangan va unda muvofiqlikni baholashning asosiy prinsiplari yoritib berilgan.

Ushbu qonunda milliy akkreditatsiya organi sifatida O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi belgilab qo‘yilgan.

Milliy akkreditatsiya organi:

- muvofiqlikni baholash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;
- milliy akkreditatsiya tizimi tashkil etilishini, faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta’minlaydi;
- muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilishni amalga oshiradi va ularga akkreditatsiya to‘g‘risida guvohnoma beradi;
- muvofiqlikni baholash organlari ustidan inspektsiya nazoratini amalga oshiradi;
- belgilangan tartibda akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini to‘xtatib turadi, tugatadi va ushbu guvohnomani bekor qiladi;

- xalqaro akkreditatsiya organlari va xorijiy davlatlarning milliy akkreditatsiya organlari bilan akkreditatsiya masalalari bo‘yicha hamkorlik qiladi;

- muvofihlikni baholash organlarining davlat reestrini yuritadi.

Qonunda Milliy akkreditatsiya organi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi belgilab qo‘yilgan.

## 1.5. Muvofiqlikni baholash sohasida qo‘llaniladigan xalqaro standartlar haqida umumiy ma’lumotlar

Muvofiqlikni baholash sohasida qo‘llaniladigan bir qancha xalqaro standartlar mavjud. Jumladan:

- ISO/MEK 17000 Otsenka sootvetstviya. Slovar i obshiye prinsipi(ISO/IEC 17000, Conformity assessment — Vocabulary and general principles);
- ИСО/МЭК 17020 Otsenka sootvetstviya. Obshie kriterii deyatelnosti razlichnix tipov kontroliruyushix organov (ISO/IEC 17020, General criteria for the operation of various types of bodies performing inspection);
- ИСО/МЭК 17021 Otsenka sootvetstviya. Trebovaniya korganam, provodyashim audit i sertifikatsiyu sistem menedjmenta (ISO/IEC 17021, Conformity assessment — Requirements for bodies providing audit and certification of management systems);
- ИСО/МЭК 17025 Otsenka sootvetstviya. Obshie trebovaniya k kompetentnosti ispitatelnix i kalibrovochnix laboratoriy (ISO/IEC 17025, General requirements for the competence of testing and calibration laboratories)

Muvofiqlikni baholash bo‘yicha organlarga qo‘yilgan talablar Standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilot (ISO)ning tegishli standartlarida belgilangan. Masalan, mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlariga qo‘yilgan talablar ISO/MEK 65 standartida, sinov va kalibrlash laboratoriyalariga qo‘yilgan talablar ISO/MEK 17025, inspeksiya organlariga qo‘yilgan talablar ISO/MEK 17020 standartlarida belgilangan. Akkreditatsiya bo‘yicha organga qo‘yilgan talablar esa ISO/MEK 17011 standartida belgilangan.

3.1-rasmda muvofiqlikni baholash sohasida qo‘llaniladigan xalqaro standartlarning ayrimlari ko‘rsatib o‘tilgan.




**1.3-rasm. Muvofiqlikni baholash sohasidagi xalqaro standartlar.**

## 1.6. ISO/IEC 17065:2012(R) standarti haqida

2012 yilda ISO/IEC 17065:2012(R) “*Muvofiqlikni baholash. Mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish organlariga talablar*” (ISO/IEC 17065:2012(R) “Оценка соответствия. Требования к органам по сертификации продуктов, процессов и услуг”) standarti qabul qilingan. Ushbu standartning dastlabki nashri 15.09.2009 yilda chop etilgan.

ISO/IEC 17065 standarti ISO tarkibiga kiruvchi Muvofiqlikni baholash qo‘mitasi (CASCO) tomonidan tayyorlangan bo‘lib, Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) va Xalqaro elektrotexnika komissiyasi (IEC)da ovozga qo‘yilgan va ikkala tashkilot tomonidan ham tasdiqlangan.

ISO/IEC 17065 ning birinchi nashri ISO/IEC Guide 65:1996 standartini bekor qildi va uning o‘rnini egalladi. Ushbu standartda ISO/IEC Guide 65:1996 ga nisbatan quyidagi o‘zgarishlar kiritilgan:

- ushbu xalqaro standartning tuzilishi ISO/CASCO da qabul qilingan umumiy strukturaga asosan ishlab chiqilgan;
- ISO/PAS 17001, ISO/PAS 17002, ISO/PAS 17003, ISO/PAS 17004 va ISO/PAS 17005 larga asoan o‘zgartirishlar kiiritilgan;
- atamalar va ta’riflar 3-bo‘limda ko‘rsatib berilgan;
- ushbu xalqaro standartning jarayonlar va xizmatlarda qo‘llanilishi haqidagi ma’lumotlar B ilovada berilgan;
- xolislik, adolatlilikka talablar aniqlashtirib berilganva boshqalar.

Ushbu xalqaro standart o‘z ichiga muvofiqlik, hamkorlik ishlari va mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish organlarining xolisligiga bo‘lgan talablarni qamrab oladi. Usbu xalqaro standart doirasida faoliyat yurituvchi sertifikatlashtirish organlari barcha turdagi mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlarni sertifikatlashtirishni taklif etishi lozim emas.

Mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish mustaqil tomonlarning muvofiqlikni baholashga oid faoliyatidir.

## 1.7. Muvofiqlikni baholash sohasida qo‘llaniladigan milliy standartlar haqida

Muvofiqlikni baholash sohasida mamlakatimizda tegishli idoralar va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan ko‘plab standartlar qo‘llaniladi. Quyida ulardan ayrimlarining nomlarini keltirib o‘tamiz:

- O‘z DSt 16.0:2006 Sistema akkreditatsii Respubliki Uzbekistan. Osnovniye polojeniya;
- O‘z DSt 16.3:2001 Akkreditatsiya yuridicheskix lits na pravo izgotovleniya, attestatsii I realizatsii standartnix obrazsov. Organizatsiya i poryadok provedeniya;
- O‘z DSt 16.5:2006 Sistema akkreditatsii RUz. Akkreditatsiya yuridicheskix i fizicheskix lits na pravo attestatsii metodik vipolneniya izmereniy i metrologicheskoy ekspertizi dokumentov. Organizatsiya i poryodok provedeniya.
- O‘z DSt 16.6:2003 Sistema akkreditatsii RUz. Akkreditatsiya yuridicheskix lits na pravo organizatsii i kontrolya metodik vipolneniya izmereniy.

- O‘z DSt 16.9:2006 Sistema akkreditatsii RUz. Attestatsiya ekoanaliticheskix laboratoriy RUz. Poryodok provedeniya otsenki texnicheskoy kompetentnosti laboratorii;
- O‘z DSt 16.10:2009 (ISO/IEC 65:1996, MOD) Sistema akkreditatsii RUz. Obshiye trebovaniya k organom po sertifikatsii produksii;
- O‘z DSt 2910:2014 Otsenka sootvetstviya. Pravila vedeniya gosudarstvennogo reestra;
- O‘z DSt ISO/IEC 7:2002 Trebovaniya k normativnim dokumentam, ispolzuyemim dlya podtverjdeniya sootvetstviya;
- O‘z DSt ISO/IEC 53:2010 Otsenka sootvetstviya. Rukovodyashiye po primeneniyu sistemi menedjmenta kachestva organizatsii pri sertifikatsii produksii;
- O‘z DSt ISO/IEC 17011:2009 Otsenka sootvetstviya.Obshiye trebovaniya k organom akkreditatsii organov po otsenke sootvetstviya;
- O‘z DSt ISO/IEC 17020:2009 Obshiye kriterii raboti razlichnix tipov inspektiruyushix organov;
- O‘z DSt ISO/IEC 17021:2009 Otsenka sootvetstviya. Trebovaniya k organom, obespechivayushim audi i sertifikatsiyu system menedjmenta;
- O‘z DSt ISO/IEC 17024:2009 Otsenka sootvetstviya. Obshiye trebovaniya k organom, osushestvlyayushim sertifikatsiyu personala;
- O‘z DSt ISO/IEC 17025:2007 Obshiye trebovaniya k kompetentnosti ispitatetlnix i kalibrovochnix laboratoriy;
- O‘z DSt ISO/TS 22003:2014 Sistema menedjmenta bezopasnosti pishevix produktov. Treboniya k organom, osushestvlyayushim audit I sertifikatsiyu system menedjmenta bezopasnosti pishevix produktov.

### 1.8. Muvofiqlikni baholashning asosiy vazifalari

2013 yil 4 oktabrda imzolanga O‘zbekiston Respublikasining “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasida muvofiqlikni baholashning asosiy vazifalari ko‘rsatib berilgan. Unga ko‘ra muvofiqlikni baholashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- inson hayoti va sog‘lig‘i, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulki xavfsizligini ta’minlash;

- atrof-muhit muhofaza qilinishini, shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanilishini ta’minlash;
- mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlarning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash;
- muvofiqlikni baholash organlari akkreditatsiyaning belgilangan sohasida ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini tasdiqlash;
- ichki va tashqi bozorlarda mahsulot hamda xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish;
- xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdoda ishtirok etish;
- savdodagi texnik to‘siqlarni bartaraf etish.

2009 yil 23 aprelda qabul qilingan “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida “*mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi*” va “*savdodagi texnik to‘siqlar*” tushunchalariga izoh berib o‘tilgan. Unga ko‘ra:

**mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi** – mahsulotning, uni ishlab chiqarish, ishlatish (undan foydalanish), saqlash, tashish, realizatsiya qilish va utilizatsiya qilish jarayonlarining, bajariladigan ishlar, ko‘rsatiladigan xizmatlarning holati bo‘lib, bunda insonning hayotiga, sog‘lig‘iga, atrof muhitga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga zarar yetkazilishi ehtimoli bilan bog‘liq yo‘l qo‘yilmaydigan xavf mavjud bo‘lmaydi.

**savdodagi texnik to‘siqlar** – mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda mavjud bo‘lgan tafovutlari yoki o‘zgarishlari oqibatida savdoda yuzaga keladigan to‘siqlar.

## 1.9. Muvofiqlikni baholashning asosiy prinsiplari

“Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasida muvofiqlikni baholashning asosiy prinsiplari ko‘rsatib berilgan.

Muvofiqlikni baholashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- muvofiqlikni baholashning yagona qoidalari va tartib-taomillarini qo‘llash;
- muvofiqlikni baholash haqidagi axborotning ishonchliligi va ochiqligi;
- akkreditatsiya qilingan muvofiqlikni baholash organlarining xizmatlaridan foydalanishga to‘siqlar qo‘yishga va ular o‘rtasidagi raqobatni cheklashga yo‘l qo‘ymaslik;
- davlat sirlarining, tijorat sirining va qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirning saqlanishi;
- akkreditatsiya bo‘yicha faoliyatni sertifikatlashtirishga, muvofiqlikni deklaratsiyalashga, yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiyani amalga oshirishga, mahsulot sinoviga, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya xulosalarini berishga, ekologik ekspertiza o‘tkazishga doir faoliyat bilan qo‘shib olib borilishiga yo‘l qo‘ymaslik.

Muvofiqlikni baholashning asosiy tamoyillari ISO/MEK 60 xalqaro qo‘llanmasida ham aniqlab berilgan. Muvofiqlikni baholash faoliyatida qatnashuvchi barcha tashkilotlar jumladan, muvofiqlikni baholash va akkreditatsiya bo‘yicha idoralar quyidagi shartlarni bajarishlari lozim:

- o‘z faoliyatini xalqaro standartlar va ISO/MEK qo‘llanma-lariga asoslashi;
- o‘zining texnik layoqatliligini ushlab turish, ya’ni muvofiqliknibaholash natijalarini tan olishni soddalashtirish va mahsulot, jarayon,tizim, shaxs yoki idoralarning o‘rnatilgan talablarga muvofiqligini yetarli darajada kafolatlashi;
- barcha maxfiy ma’lumotlarni himoyalashi;
- o‘z faoliyatini kasbiy halollik bilan amalga oshirishi, odob-axloq tamoyillariga rioya qilish va kamsitmaslikka qaratilgan tarzda vatomonlarni barcha nizolaridan o‘zini chetga olishi;
- adolatli va samarali tarzda tezkorlik bilan ishlashi, arizani ko‘rib chiqishi va baholashni bajarishi;

- shikoyat yoki apellyatsiya holatlarini ko‘rib chiqishda adolatli vasamarali tarzda, tezkorlik bilan to‘g‘rilovchi amallarni amalga oshirishi zarur;
- muvofiqlikni baholash, muvofiqlik guvohnomasini berish haqidagi tasdiqlovchi qaror yoki uning rad etilishi, bekor qilish, to‘xtatish va faoliyatga chek qo‘yish bo‘yicha faoliyatlari haqidagi yozuvlarni yuritish hamda saqlashi;
- barcha arizachilarga taklif etilayotgan xizmatlar va uning uchun to‘lov shartlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim qilishga tayyorligi hamda beriladigan sertifikatlar, akkreditlash sohasi va hokazolar to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjudligi;
- o‘zining layoqatliligini muvofiq mexanizmlardan (masalan, akkreditlash, ekspert baholash) foydalanish yo‘li bilan namoyish qilishi;
- muvofiqlikni baholash jarayoni haqida muvofiq hujjatlashtirilgan ko‘rsatma bilan hisobotni, zaruriyat bo‘lsa, aniqlangan nomuvofiqliklarni yoki talab qilingan to‘g‘rilovchi amallarni arizachiga taqdim etishi;
- muvofiqlik belgisidan foydalanilgan holatlarda bu belgi bilanbog‘liq bo‘lgan noto‘g‘ri foydalanishlardan himoya qilish uchun qo‘llash qoidalari yoki shartlarini ta‘minlashi;
- rivojlanayotgan mamlakatlar ishtiroki bilan bog‘liqbo‘lgan muammolarni va rivojlangan mamlakatlar faoliyati natijalaridan foydalanishni hisobga olish.

Muvofiqlikna baholash organi nimalarga ega bo‘lishi lozimligi 1.4-rasmda tasvirlangan.




**1.4-rasm. Muvofiqlikni baholash organining xususiyatlari.**

Akkreditatsiya faoliyati yana quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirilishi kerak:

- mustaqillik;
- texnik kompetentlik;
- haqqoniylik;
- ishonchlilik;
- shaffoflik;
- sir saqlay olishlik (maxfiylik).

## 1.10. Muvofiqlikni baholash obyektlari haqida umumiy ma'lumotlar

2013 yil 4 oktabrda imzolangan O'zbekiston Respublikasining "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasida muvofiqlikni baholash obyektlari ko'rsatib berilgan. Unga ko'ra muvofiqlikni baholash obyektlari quyidagilardan iborat:

- mahsulot;
- ishlab chiqarish jarayonlari;
- xizmatlar;
- menejment tizimlari;

- akkreditatsiya qilinishga talabgor bo‘lgan yuridik shaxslar;
- muvofiqlikni baholash sohasida xodim sifatida ishtirok etishga talabgor bo‘lgan mutaxassislar;
- muvofiqlikni baholash organlari inspeksiya nazoratidan o‘tkazilishi chog‘ida ushbu organlarning o‘zi.

***Mahsulot*** deganda, mehnat faoliyati jarayonining moddiylashtirilgan natijasi tushunilib, u foydali xossalarga ega bo‘ladi, aniq ishlab chiqarish jarayonlarida olinadi hamda muayyan jamoa va shaxs ehtiyojlarini qanoatlashtirishga mo‘ljallanadi.

Mahsulotlar tayyor holda, aniq bozorda sotilishi uchun yaroqli yoki tayyorlash jarayoni, ishlash, yetishtirish, ta’mirlash va shu kabilarda bo‘lishi mumkin.

Mahsulot ta’rifi yana boshqa bir hujjat - ISO 9000 xalqaro standartida qisqa holda keltirilgan bo‘lib, «*mahsulot - faoliyat yoki jarayon natijasi*» deb ta’riflangan.

Mahsulot moddiylashtirilgan (masalan, qismlar, qayta ishlanadigan materiallar) (1.5-rasm) yoki moddiylashtirilmagan (masalan, axborot yoki tushuncha) yoki ularning o‘zaro uyg‘unlashgan birikmasi sifatida bo‘lishi mumkin. Mahsulot o‘z ichiga xizmatni ham oladi.



**1.5-rasm. Oziq-ovqat mahsulotlari.**

Mahsulotning yaratilishi, sotilishi va iste’molida yoki ishlatilishida namoyon bo‘ladigan xossasi uning xolisona ko‘rsatkichi hisoblanadi. Mahsulot ko‘pgina turli xossalarga ega bo‘lib, u yaratilishi, sotilishi va iste’moli yoki ishlatilishida namoyon bo‘lishi mumkin.

«Ishlatilish» atamasi shunday mahsulotga nisbatan ishlatilishi mumkinki, bunda mahsulotdan foydalanish jarayonida u o‘z resursi hisobiga sarflanadi.

«Iste’mol» atamasi shunday mahsulotga nisbatan ishlatiladiki, u vazifasiga ko‘ra ishlatilishida o‘zi sarflanadi.

***Mahsulot sifati* –** o‘z vazifasi (qo‘llanilishi)ga ko‘ra ma’lum darajada muayyan ehtiyojni qondirishga yaroqliligini ko‘rsatadigan xossalari majmuasidir (GOST 15467- 70 bo‘yicha).

Bu ta’rifdan shunday xulosa kelib chiqadiki, mahsulot sifati jamiyat ehtiyojidan kelib chiqadi. Ba’zi bir mamlakatda sifatli hisoblangan mahsulot boshqa bir mamlakatda unday mahsulotga ehtiyoj bo‘lmasligi mumkin (milliy traditsiyalar bo‘yicha) va u shu jamiyat uchun sifatli hisoblanmaydi. Lekin hamma mahsulotlarga bu misol to‘g‘ri kelmaydi. Masalan, sifatli rangli televizorlar, avtomashinalar, video-, radio texnikalar va h.k.

Mahsulot sifati ishlab chiqarishning texnik darajasiga bog‘liq va juda ko‘p faktorlar bilan aniqlanadi: konstruksiyaning takomilligi, standartlashtirish va agregatlashtirish darajalari va h.k.

Barcha xalq xo‘jaligi mahsulotlari birinchi va ikkinchi sinf (klass) mahsulotlariga bo‘linadi.

Birinchi sinfga xomashyo, yarimfabrikatlar, materiallar, yonilg‘i, oziq-ovqat, o‘g‘it va boshqalar kiradi (bu mahsulotlardan turlicha foydalaniladi).

Ikkinchi sinfga resurslari ishlatiladigan mahsulotlar kiradi: mashina, pribor, videotexnika va h.k.

Mahsulotlar guruhlar bo‘yicha quyidagilarga bo‘linadi.

1-guruh: Xom ashyo va yoqilg‘ilar, rudalar va ularning konsentratlari, tabiiy qurilish materiallari va h.k.

2-guruh: Moylash materiallari, zagotovkalar, prokatlar, har xil kimyoviy mahsulotlar, tibbiyot dorilari va h.k.

3-guruh: Atir-upalar, konservalar (bankalarda), ballondagi gazlar va h.k.

4-guruh: Ta'mirlanmaydigan buyumlar: elektrovakuumli va yarim o'tkazgichli priborlar, rezistorlar, kondensatorlar, keramik plitalar va h.k.

5-guruh: Ta'mirlanadigan buyumlar (mashinalar, mebel va boshqalar).

Mahsulotlarni sinflar va guruhlarga bo'lishdan maqsad ularning sifat ko'rsatkichlarini aniqlashni hamda standart tuzishni yengillashtiradi.

**Mahsulot sifatining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.** Mahsulot sifatini uning xossalarini son jihatdan xarakterlab, obyektiv baholash mumkin.

*Kvalimetriya* mahsulot sifatini aniqlashning nazariy asoslari va son ko'rsatkichlarini aniqlash usullarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Kvalimetriyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-mahsulot sifati miqdoriy ko'rsatkichlarini baholash usullarini ishlab chiqish;

-vaqt o'tishi bo'yicha mahsulot sifati o'zgarishini hisobga olish usulini yaratish;

Mahsulot sifati quyidagi prametrlar bilan xarakterlanadi.

1. Mahsulot sifatining yakka ko'rsatkichlari: mehnat unumdorligi; tezlik; yuk ko'tarish qobiliyati va h.k.

2. Mahsulot sifatining kompleks ko'rsatkichlari. Bu ko'rsatkich mahsulot sifatining bir necha xossalarini xarakterlaydi. Masalan: buyumning tayyorlik koeffisiyenti (koeffisiyent gotovnosti izdeliya). Bu ko'rsatkich bir vaqtni ichida buyum buzilmasdan ishlashi (bezotkaznost) va ta'mirlashga yaroqliligini (remontoprigodnost) xarakterlaydi:

$$K = T/\ T + T_{ur}\ ,$$

bunda T - buyum buzilguncha (ishlamay qolguncha) ishlash vaqti;

$T_{ur}$- buyumni tamirlash uchun o'rtacha sarflangan vaqt.

*Mahsulot tovar navi (sorti)* kompleks ko'rsatkich bo'lib, uning bir qator xossalarini o'z ichiga oladi. Masalan, paxtaning tovar navi (sorti) tolaning uzilish kuchi, tashqi ko'rinishi, pishiqligi, iflosligi, namligi va boshqa bir qator xossalarini o'z ichiga oladi.

*Sifatning umumlashtirilgan ko'rsatkichlari.* Bunga alohida-alohida ko'rsatkichlar yig'indisi kiradi. Alohida - alohida ko'rsatkichlar bir xil birliklarga ega bo'lishi kerak. Yoxud nisbiy o'lchamsiz birliklarda bo'lishi

lozim. Bunda har qaysi ko‘rsatkichning ta’siri koeffisentlarda (ballar bilan) ifodalanadi.

Barcha texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlar quyidagi guruhlar bo‘yicha klassifikasiya qilinadi:

- mahsulot vazifalari bo‘yicha ko‘rsatkichlar;
- ishonchlik ko‘rsatkichlari;
- texnologik jarayonlar bo‘yicha ko‘rsatkichlar;
- ergonomik ko‘rsatkichlar;
- estetik ko‘rsatkichlar;
- standartlashtirish va unifikasiyalashtirish ko‘rsatkichlari;
- patent - huquqiy ko‘rsatkichlar.

***Mahsulot vazifalari bo‘yicha ko‘rsatkichlar:***

- mehnat unumdorligi;
- energiya iste’mol qilishligi;
- og‘irligi (material sarflanganligi) ;
- mashinaning universalligi va h.k.

***Mahsulot ishonchliligi ko‘rsatkichlari:***

- buzilmasdan ishlashi (bezopasnost);
- ko‘p yeyilmasdan ishlashi (dolgovechnost);
- ta’mirlashning osonligi (remontoprigodnost).

***Ergonomik (*****grekcha** ***ergon- ish*** **va** ***nomes- qonun) ko‘rsatkichlar:***

- mashinani boshqarishning qulayligi;
- xavfsiz boshqarish mumkinligi;
- mashinaning gigiyena sifatidan qulayligi;
- psixologik ko‘rsatkichlar;
- fiziologik ko‘rsatkichlar.

***Estetik ko‘rsatkichlar:***

- mahsulotning tashqi ko‘rinishi;
- mashinaning atrof-muhitga bilan uyg‘unligi;
- mashinaning tashqi pardozi.

Mahsulotning bir yoki bir necha xossa xususiyatlarining miqdoriy tavsifiga ***sifat ko‘rsatkichi*** deyiladi. Sifat ko‘rsatkichlarini tanlash – mahsulot sifati tarkibiga kiruvchi va uning sifati darajasini baholashga

imkon beruvchi mahsulot xususiyatlari miqdoriy tavsifining nomlarini aniqlashdir.

Sifat ko‘rsatkichlarining nomlarini tanlashni asoslab berish quyidagilarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi:

- mahsulotdan foydalanish shartlari va nima maqsadda ishlab chiqarilganligi;
- iste’molchi talablarining tahlili;
- mahsulot sifatini boshqarish masalalari;
- tavsiflanayotgan xususiyatlarning tarkibi va strukturasi;
- sifat ko‘rsatkichlariga nisbatan qo‘yilgan asosiy talablar (1.6-rasm).




**1.6-rasm. Sifat xalqasi.**

Xalq iste’moli tovarlarining sifatini nazorat qilish sifatining ijtimoiy, funksional, ishonchlilik, ergonometrik, estetik, ekologik, xavfsizlik kabi iste’mol ko‘rsatkichlarini o‘rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Zarurat tug‘ilsa, tovarlarining sifatini baholash va tahlil qilish iste’molchilarning talablarini ham hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy ko‘rsatkichlar maxsus ko‘rsatkichlar guruhiga kiradi. Tovarlar sifat ko‘rsatkichlari va iste’mol xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha klassifikasiyalanadi.

**Xizmatlar.** Biz kundalik hayotiy faoliyatimiz davomida turli xizmat turlaridan foydalanamiz. Xizmat deganda biz nimani tushunamiz?

Quyida “xizmat” tushunchasining ta’rifini keltirib o‘tamiz:

*Xizmat* – yetkazib beruvchi va iste’molchining o‘zaro bevosita ta’siri va yetkazib beruvchining iste’molchining ehtiyojlarini qondirish bo‘yicha ichki faoliyatining natijasi.

Izohlar:

1. Yetkazib beruvchi yoki iste’molchi xodimlar yoki jihozlar bilan o‘zaro ta’sirida namoyon bo‘lishi mumkin.

2. Iste’molchining yetkazib beruvchi bilan bevosita o‘zaro ta’siri xizmatlarni ko‘rsatishda muhim bo‘lishi mumkin.

3. Moddiy mahsulot turlarini yetkazib berish yoki ulardan foydalanish ko‘rsatiladigan xizmatlarning bir qismi bo‘lishi mumkin.

4. Xizmat moddiy mahsulotni ishlab chiqarish va yetkazib berish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

*Xizmat turi* - umumiy texnologik belgilari bilan tavsiflanuvchi bir turli xizmatlar to‘plami.

Mustaqil davlatlar hamkorligi davlatlararo statistik qo‘mita tomonidan mahsulot (mollar va xizmatlar) ning modelli statistik tasniflagichi ishlab chiqilgan. Bu tasniflagichga muvofiq xizmatlarning quyidagi turlari o‘rnatilgan:

– savdodagi xizmatlar;

– transport vositalarini, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy mollarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar;

– transport xizmatlari (avtomobil, temir yo‘l, havo tashish, shahar tarnsporti xizmatlari);

– sayohat shu‘basining (sayohat-ekskursiya) xizmatlari;

– pochta va aloqa xizmatlari;

– moliya xizmatlari;

– sug‘urta xizmatlari;

– ta‘lim xizmatlari;

– sog‘liqni saqlash xizmatlari;

– kommunal xizmatlar;

– dam olish, madaniy va sport tadbirlarini tashkillashtirish bo‘yicha xizmatlar.

*Moddiy xizmatlar* - xizmatlar iste‘molchisining moddiy-maishiy ehtiyojlarini qondirish bo‘yicha xizmatlar.

Moddiy xizmat buyumlarining iste’mol xossalarini tiklash (o‘zgartirish, saqlash) yoki fuqarolarning buyurtmalari bo‘yicha yangi buyumlarni tayyorlash, shuningdek yuklar va odamlarning joydan-joyga ko‘chishi, iste’mol qilish uchun sharoitlar yaratishni ta’minlaydi. Jumladan, moddiy xizmatlarga buyumlarni ta’mirlash va tayyorlash bilan bog‘liq bo‘lgan maishiy xizmatlar, turar joy-kommunal xizmatlari, umumiy ovqatlanish xizmatlari, transport xizmatlari va h.k. kirishi mumkin.

*Ijtimoiy-madaniy xizmat* - ma’naviy, intellektual ehtiyojlarni qondirish bo‘yicha va iste’molchining me’yoriy hayot faoliyatini saqlash bo‘yicha xizmat.

Ijtimoiy-madaniy xizmat sog‘liqni saqlash va tiklashni, shaxsning ma’naviy va jismoniy rivojlanishini, kasbiy mahoratini oshirishni ta’minlaydi. Ijtimoiy-madaniy xizmatlarga tibbiyot xizmatlari, madaniy xizmatlar, sayohat, ta’lim va h.k. xizmatlar kirishi mumkin.

*Xizmatga standart* – xizmatning o‘z vazifasiga muvofiqligini ta’minlash uchun xizmat qoniqtirish lozim bo‘lgan talablarni o‘rnatuvchi standart.

Xizmatlarga standartlar kir yuvish, mehmonxona xo‘jaligi, tarnsport, avtoservis, aloqa, sug‘urta, bank ishi, savdo kabi doiralarda ham ishlab chiqilishi mumkin.

Xizmatlar sohasida standartlashtirishning maqsadi xizmat ko‘rsatish sifati va samaradorligini me’yoriy ta’minlash va xizmat iste’molchila-rining manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Xizmatlarni ko‘rsatish sohasida standartlashtirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– xizmatlar sifati ko‘rsatkichlarining nomenklaturasini va buyurtmachilarga xizmat ko‘rsatish me’yorlarini o‘rnatish;

– buyurtmachilarga xizmat ko‘rsatish sifatiga istiqbolli talablarni va bularni tekshirish usullarini o‘rnatish;

– xizmat ko‘rsatish texnologik jarayonlariga istiqbolli talablarni o‘rnatish;

– xizmatlarning xavfsizligi, aholining sog‘ligini himoyalash, atrof-muhitni muhofazalash, xizmatlarning o‘z vaqtida aniq bajarilishi, xizmatlarning ergonomiklik va estetikligini va xizmat ko‘rsatish sharoitlarini ta'minlovchi talablarni o‘rnatish;

– o‘zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimi ?oidalariga muvofi? xizmatlarni sertifikatlashtirishga talablarni o‘rnatish;

– xizmat ko‘rsatish jarayonlarida qatnashuvchi korxonalarning faoliyatini muvofi?lashtirishni ta'minlash;

– xizmatlarning ishonchliligi bo‘yicha talablarni o‘rnatish;

– xizmatlarni sifat va (yoki) miqdor jihatdan baholash usullarini o‘rnatish;

– xizmatlarni ko‘rsatish sohasida sifatni bosh?arish va standartlashtirish doirasidagi asosiy tushunchalarga oid atamalar va ta'riflarni o‘rnatish.

Xizmatlar sohasida standartlashtirishning asosiy nizomlariga muvofiq bir turli xizmatlarning muayyan turlariga standartlar ishlab chiqiladi. Bunday standartlar xizmatlarining asosiy tafsilotlariga va xizmat ko‘rsatish sharoitlariga umumiy talablarni o‘z ichiga oladi: xizmatlarning nimaga mo‘ljallanganligi, ishonchliligi, puxtaligi; iste‘mol usuli, tavsifi; xavfsizligi; o‘z vaqtida va aniq bajarilishi; ergonomiklik; estetiklik; odoblik; ekologikligi; qulay va shinamligi; majmuiligi; kafolatni ta’minlash; mijozga nisbatan xushmuomalalik, ziyraklik, o‘zaro muloqot va b.

**Sifat menejmenti tizimlari.** *Menejment tizimi* - siyosat va maqsadlarni ishlab chiqish va bu maqsadlarga erishish tizimi.

Hozirgi kunda ishlab chiqarish tashkilotlari va koxonalarida ISO 9000 seriyali xalqaro standartlar talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimi joriy etilib, sertifikatlashtirilmoqda.

***Sifat menejmenti tizimi (SMT)*** — tashkilotning sifat bilan bog‘liqvazifalarni hal qiladigan usuldir. Keng ma’noda u mahsulot sifati sohasida belgilangan maqsadlarga erishish va iste’molchilar talablarini qanoatlantirish uchun qo‘llaniladigan tashkilotning tashkiliy tuzilmasi, hujjatlari, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini qamrab oladi.

Sifat menejmenti tizimi u yoki bu faoliyat qanday va nima uchun amalga oshirilishi, vazifalarni hal qilish usullari va erishilgan natijalarning qayd qilinishi bayoni masalalarini qamrab oladi. Ular, asosan, 7 tamoyildan tashkil topgan bo‘lib, o ‘z ichiga quyidagilarni oladi:

***1. Iste’molchi talablariga moslashish.*** Tashkilotlar o‘zining iste’molchilariga tobe bo‘ladi va shuning uchun ularning joriy va kelgusidagi ehtiyojlarini tushunishi, ularning talablarini bajarishi va kutganidan ham ortiq yaxshi natijaga erishishi lozim.

***2. Peshqadamlik.*** Rahbarlar tashkilotning maqsadi va faoliyati yo‘nalishining yagonaligini ta’minlaydi. Rahbarlar tashkilot oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishga xodimlarni jalb etish mumkin bo‘ladigan ichki muhitni yaratishi va saqlashi lozim.

***3. Insonlarning o‘zaro munosabati.*** Barcha pog‘ona xodimlari tashkilot asosini tashkil etadi va ularning ishga to ‘liq jalb etilishi tashkilotga xodimlar qobiliyatlaridan unumli foydalanish imkonini beradi.

Har bir xodim sifatni ta’minlash ishida o‘zining muhimligini tushunishi kerak va sifatni yaxshilashda o‘z vazifalariga ega. Xodimlarning to‘liq jalb qilinishi ularning qobiliyatlarini tashkilot uchun maksimal foyda olishda qo‘llash imkoniyatini beradi.

Jarayonli yondashuvga asoslangan sifat menejmenti tizimi modeli 1.7-rasmda keltirilgan.

***4. Jarayonli yondashuv.*** Tashkilotning faoliyati va mavjud resurslar jarayon tarzida boshqarilganda kutilgan natija samarali bo‘ladi.

SMT bazaviy modeli sharoitlarida tashkilot bu tamoyil asosida mahsulot va xizmatlarni loyihalash, ishlab chiqarish va yetkazish jarayonlarini aniq belgilaydi.

***5. Yaxshilanish.*** Tashkilotning faoliyatini doimiy yaxshilashga o‘zgarmas maqsad deb qaralishi lozim.Tashkilot SMT faoliyati orqali

buyurtmachining kelajakdagi ehtiyojlarini samarali qanoatlantirish va joriy qilingan jarayonlarni eng yaxshi natijalarga erishishini o‘z maqsadi deb qaraydi.

***7. Guvohnomalarga asoslangan qarorlarni qabul qilish.*** Samarali qarorlar ma’lumotlar va axborotlarni tahlil etishga asoslanadi.SMT faoliyatiga tegishli qarorlarni qabul qilish uchun bu darajada faktlar va ma’lumotlar qo‘llaniladi. Bunda ma’lumotlar manbalari bo‘lib auditlar, to‘g‘rilovchi amallar, jarayonlar faoliyati, buyurtmachilarning shikoyatlari tahlillari natijalari, shuningdek, boshqa manbalar xizmat qiladi. Tahlilda qanoatlanganlik darajasi va SMT samaradorligini oshirish uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarga alohida e’tibor beriladi.

***8. O‘zaro munosabatlar menejmenti.*** Tashkilotlar va ularning xamkorlari o‘zaro bog‘liq bo‘ladi va o‘zaro manfaatli munosabatlar ikkala tomonning moddiy boylik yaratish imkoniyatlarini oshiradi.




**1.7-rasm. Sifat menejmenti tizimi modeli.**

### 1.11. Muvofiqlikni baholash shakllari

*Muvofiqlikni tasdiqlash* va *muvofiqlikni baholash* tushunchalari mavjud bo‘lib, quyida ularning ta’riflarini va ularga oid ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz.

***Muvofiqlikni tasdiqlash***- normativ-huquqiy hujjatlarning, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablari bajarilganligi isbotlangani haqida Milliy akkreditatsiya organi yoki muvofiqlikni baholash organlari tomonidan qabul qilingan qarorga asoslangan hujjatlashtirilgan (akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma, muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiya tarzidagi) tasdiq.

***Muvofiqlikni baholash***- mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlar, muvofiqlikni baholash organlarining normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash bo‘yicha faoliyat.

Muvofiqlikni baholash mahsulot, jarayon, tizimga nisbatan o‘rnatilgan talablarni shaxslar yoki idoralar tomonidan baholashni amalga oshirishni bajarilishini tasdiqlash zaruriyati bilan bog‘liqdir. Muvofiqlikni tasdiqlash mahsulot, jarayon, tizim, shaxslar yoki idoralarni xalqaro, hududiy yoki milliy standartlarga tegishli me’yoriy hujjatlarga muvofiq bayon qilingan talablarning bajarilishini kafolatlashda xizmat qiladi (1.8-rasm).




**1.8-rasm. Muvofiqlik atamasi bilan bog‘liq tushunchalar.**

ISO/MEK 17000 xalqaro standarti bo‘yicha:

***muvofiqlikni baholash***- bu «mahsulot, jarayon, tizim, shaxs yoki idoralarga berilgan talablarni bajarilishini asoslashi yoki isbotlashi».

Bunda muvofiqlikni baholash deganda, shunday faoliyat turlari tushuniladiki, unda sinov, nazorat, muvofiqlikni tasdiqlash hamda muvofiqlikni baholash bo‘yicha akkreditlangan idoralar faoliyat yuritishini tasdiqlash tushuniladi. Sinov laboratoriyalari, sertifikatlashtirish bo‘yicha idoralar va nazorat idoralari hamda muvofiqlikni baholash bo‘yicha idoralarni akkreditlash idoralarning muvofiqlikni baholash bo‘yicha amalga oshirilayotgan faoliyatlari muvofiqlashtiriladi. «Muvofiqlikni tasdiqlash» jarayoni «arizani (sertifikat ko‘rinishida rasmiy hujjat yoki muvofiqligi to‘g‘risida deklaratsiya), obyektni tekshiruvdan so‘ng belgilangan talablarnibajarishini isbotlanganligi to‘g‘risidagi qaror qabul qilinganligi asosida berish» sifatida ifodalangan jarayondir.

Muvofiqlikni baholashyo‘llari 1.9-rasmda ifodalangan.




**1.9-rasm. Muvofiqlikni baholash yo‘llari.**

**I bobni takrorlash uchun savollar:**

1. Akkreditatsiya va uning ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Akkreditatsiyaning asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3. Akkreditatsiya bo‘yicha xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyat doiralari haqida ma’lumot bering.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi Qonuni va uning ahamiyati haqida aytib bbering.
5. Muvofiqlikni baholash sohasida qo‘llaniladigan qanday xalqaro standartlarni bilasiz?
6. Muvofiqlikni baholash sohasida qo‘llaniladigan milliy standartlar haqida ma’lumot bering.
7. Muvofiqlikni baholashda qanday asosiy prinsiplarga tayaniladi?
8. Akkreditatsiya faoliyati qanday prinsiplar asosida amalga oshiriladi?
9. Muvofiqlikni baholash obyektlari haqida ma’lumot bering.
10. Sifat xalqasi nima? Izong bering.
11. Muvofiqlikni baholash yo‘llari haqida aytib bering.
12. Sifat menejmenti tizimi modelini tushuntirib bering.
13. Muvofiqlikni baholash jarayoni qanday jarayon hisoblanadi?

# II-BOB.
# AKKREDITATSIYANI AMALGA OSHIRISH

## 2.1. Akkreditatsiya haqida umumiy tushunchalar

***Akkreditatsiya*** - yuridik shaxslarning muayyan faoliyat sohasida muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini Milliy akkreditatsiya organi tomonidan rasman tasdiqlash.

ISO/MEK 17000 standarti bo‘yicha:

*Akkreditatsiya* - bu «muvofiqlikni tasdiqlovchi uchinchi tomon, muvofiqlikni baholash bo‘yicha idoraga tegishli bo‘lib, muvofiqlikni baholash bo‘yicha muayyan topshiriqlarni bajarish uchun uning layoqatliligini rasmiy isbotlashda xizmat qiladi».

Akkreditatsiyaning tarkibiy elementlari quyidagi 2.1-rasmda tasvirlangan.




**2.1-rasm. Akkreditatsiyaning tarkibiy elementlari.**

Avvalo muvofiqlikni baholash organlari (sertifikatlashtirish organlari, inspeksiya tashkilotlari, sinov, kalibrlash va tekshirish labora-toriyalari) va akkreditatsiya organlari talablarini belgilovchi xalqaro, Yevropa va milliy hujjatlar roʻyxatini koʻrib chiqaylik (2.1-jadval).

***2.1-jadval***

***Akkreditatsiya obyektlariga talablarni belgilovchi me'yoriy hujjatlar***

| ***Hujjatning shartli raqamli belgisi*** | ***Hujjatning nomlanishi*** |
|---|---|
| ***Xalqaro miqyosdagi hujjatlar*** | |
| Руководство ИСО/МЭК 65:1996 | Общие требования к органам, действующим в системе сертификации продукции |
| Руководство ИСО/МЭК 62:1996 | Общие требования к органам, осуществляя-ющим оценку и сертификацию/регистрацию систем качества |
| ИСО/МЭК 17020:1998 | Общие критерии для функционирования различных ти-пов органов, проводящих инспекции |
| ИСО/МЭК 17024:2003 | Оценка соответствия – Общие требования к органам, осуществляющим сертификацию персонала |
| ISO/IEC 17011:2004 | Conformity assessment – General requirements for accreditation bodies accrediting conformity assessment bodies |
| ISO/IEC 17025:2005 | General requirements for the competence of testing and calibration laboratories |
| ISO/IEC FDIS 17021:2006(E) | Conformity assessment – Requirements for bodies providing audit and certification of management systems |

| | |
|---|---|
| ***Yevropa miqyosidagi hujjatlar*** | |
| ЕН ИСО/МЭК 17020:2004 | Общие требования к функционированию инспекционных органов разного типа |
| ЕН 45010:1995 | Общие требования к аттестации и аккредитации органов по сертификации |
| ЕН 45011:1998 | Общие требования к органам по сертифи-кации продукции |
| ЕН 45012: 1998 | Общие требования к органам по серти-фикации систем обеспечения качества |
| ЕН 45013:1989 | Общие требования к органам по сертифи-кации персонала |
| ЕН 45001:1995 | Общие требования к деятельности испытательных лабораторий |
| ЕН 45002:1995 | Общие требования при оценке (аттестации) испытательных лабораторий |
| ЕН 45003:1995 | Общие требования к органам по аккредитации лабораторий |
| ***Milliy miqyosidagi hujjatlar*** | |
| O‘z DSt 20.501:2008 (O‘z DSt 789-97 o‘rniga) | Методика испытаний продукции. Порядок разработки, аттестации и регистрации. |
| O‘z DSt 1.10-98 (O‘z DSt 1.10-93 o‘rniga) | Система стандартизации Республики Узбекистан. Основные термины и определения. |
| O‘z DSt 915-98 | Правила проведения испытаний продукции. |
| O‘z DSt 2895:2014 (GMW 3221, IDT) | Процедуры для соответствия стандартам органических материалов |
| O‘z DSt 3311:2018 (РД 37.052.172-88, РД 37.052.193-89, | Национальная система сертификации Республики Узбекистан. Типовая программа и методика проведения |

| | |
|---|---|
| РД 37.052.201-89 o'rniga) | контрольных климатических испытаний транспортных средств в природно-климатических условиях РУз. |
| O'z DSt 20.201:2001 | Система испытаний продукции. Контроль неразрушающий. Организация и порядок проведения. |
| O'z DSt 20.201:2001 | Система испытаний продукции. Контроль неразрушающий. Организация и порядок проведения. |
| O'z DSt 20.202:2016 | Система испытаний продукции. Контроль неразрушающий. Требования к лабораториям неразрушающего контроля. |
| O'z DSt 20.203:2007 (O'z DSt 0.203:2001o'rniga) | Система испытаний продукции. Контроль неразрушающий. Подготовка и сертификация персонала. Общие требования. |
| O'z DSt 20.204:2002 | Система испытаний продукции. Контроль неразрушающий. Требования к учебным и экзаменационным центрам |
| O'z DSt 20.205:2008 (O'z DSt 0.205:2002 o'rniga) | Система испытаний продукции. Контроль неразрушающий, инструкции и методики контроля объектов. Построение, оформление, аттестация, утверждение и регистрация. |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki akkreditatsiya sohasidagi tashkilotlarga talablarni belgilovchi hujjatlarni uch toifaga, ya'ni xalqaro, Yevropa va milliy toifadagi hujjatlarga ajratish mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, bizning mamlakatimizda sertifikatlashtirish organlari, inspeksion nazorat organlari va sinov laboratoriyalariga qo'yiladigan talablar xalqaro vaYevropa me'yorlari asosida ishlab chiqiladi.

Xalqaro talablarga muvofiq muvofiqlikni baholash bo‘yicha organlar (sertifikatlashtirish organlari, sinov va kalibrlash laboratoriyalari, inspeksiya organlari) akkreditatsiyadan o‘tkaziladi.

Muvofiqlikni baholash bo‘yicha organlarni akkreditatsiyadan o‘tkazish ishlari akkreditatsiya bo‘yicha organ tomonidan amalga oshiriladi.

Akkreditatsiya bo‘yicha organ muvofiqlikni baholash bo‘yicha organlarning vakolatini baholaydi. Akkreditatsiya bo‘yicha organ akkreditlangan muvofiqlikni baholash bo‘yicha organlarning muvofiqlikni baholash natijalarini xalqaro miqyosda tan olish yo‘li bilan savdoga ko‘maklashishi mumkin. Bunday baholash, agar bir xil mezonlar bo‘yicha o‘tkazilgan va akkreditatsiya bo‘yicha organ bilan o‘zaro tan olish bitimiga a’zo bo‘lsa, nufuzli bo‘ladi (2.2-rasm).

Muvofiqlikni tasdiqlash xalqaro savdoni rivojlanishidako‘maklashish ahamiyatiga molikdir. Lekin, majburiy sertifikatlashtirish sertifikatlashtirishning texnik to‘siqlarida ma’lum bo‘lishi mumkin. Texnik to‘siqlarni bartaraf etish savdoda muvofiqlikni tasdiqlash bo‘yicha ishlar natijalarini o‘zaro tan olish to‘g‘risidagi kelishuvni osonlashtiradi, ya’ni mamlakatlar soniga bog‘liqholda, boshqa tomonlar faoliyati natijalarini bir tomonlama, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama tan olish bo‘lishi mumkin.

Tan olish bo‘yicha kelishuv, ya‘ni boshqa tomonlama taqdim qilingan muvofiqlikni baholash tizimlarida o‘rnatilgan funksional elementlarining bir nechtasi yoki bittasini qo‘llashdan olingan bir tomonli natijalarni qo‘llash asosida kelishuv deb yuritiladi.

Bu muvofiqlikni tasdiqlash natijalarini tan olishning mazmuni umumiy natijalarga aloqadorlik, nafaqat sinovga (sinov bo‘yicha kelishuv) yoki faqat nazoratga (nazorat bo‘yicha kelishuv) sifatida tan olish mumkin. Tan olish bo‘yicha kelishuv xalqaro, hududiy va milliy darajalarda yakunlanadi.

Bir tomonlama kelishuv bir tomon ishlarining natijalarini ko‘ptomonli qabul qilishdan iborat bo‘ladi. Ikki tomonlama kelishuv mazmuni, o‘zaro tan olish bo‘yicha kelishuv bo‘lib, u har bir tomon ishlari natijalarini boshqa tomonlar qabul qilinishini qamrab oladi. Ko‘p tomonlama kelishuv bu

ishlar natijalarini ikki tomondan ko‘proq o‘zaro tan olish to‘g‘risidagi kelishishdir.




**2.2-rasm. EN 45000 standartlari asosida muvofiqlikni baholash sxemasi.**

***Ariza beruvchilarni akkreditatsiya qilish Nizomga muvofiq quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:***

a) akkreditatsiya qilishga buyurtmanoma berish;

b) taqdim etilgan hujjatlar va ma‘lumotlarning butligini va to‘liqligini tahlil qilish hamda akkreditatsiya qilish ishlarini o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilish yoki taqdim etilgan hujjatlarni puxtalashtirish uchun qaytarish,

ekspertiza dalolatnomasini rasmiylashtirilgan holda taqdim etilgan hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazish;

v) akkreditatsiya obyektini baholash, baholash dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda akkreditatsiya obyektini baholash uchun komissiya tuzish;

g) akkreditatsiya obyektini baholash natijalarini va tuzatish ishlari (baholashda nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda) samaradorligini tahlil qilish Milliyakkreditatsiya organi tomonidan ariza beruvchini akkreditatsiya qilish yoki akkreditatsiya qilish kengashi tavsiyalarini hisobga olgan holda akkreditatsiya qilishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

d)akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomani rasmiylashtirish, ro‘yxatdan o‘tkazish va berish.

## 2.2. Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma

Akkreditatsiyadan o‘tgan shaxsga tasdiqlangan shakldagi akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma beriladi (ilova-1 va ilova-2 ga qarang).

Akkreditatsiya qilish to‘g‘risidagi qaror ijobiy bo‘lgan taqdirda «Akkreditatsiya markazi» DK ariza beruvchiga akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomani ***3 ish kuni*** mobaynida beradi.

Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning shakli Milliy akkreditatsiya organi tomonidan tasdiqlanadi (2.2-rasm). Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma ***besh yil*** muddatga beriladi.

Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomadan boshqa shaxsning foydalanishi taqiqlanadi.

Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishi quyidagi hollarda to‘xtatiladi:

- muvofiqlikni baholash organi va metrologik xizmat akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishi to‘xtatilganligi haqidagi ariza bilan murojaat qilganda;
- yuridik shaxs - muvofiqlikni baholash organi va metrologik xizmat tugatilganda - ular tugatilgan yoki ularning faoliyati to‘xtatilgan vaqtdan boshlab, ularning qayta tashkil etilishi natijasida - ular qayta tashkil etilgan vaqtdan boshlab, ularning qayta o‘zgartirilishi bundan mustasno;




**2.2-rasm. Akkreditatsiya guvohnomasi.**

- akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishi to‘xtatib turilishiga sabab bo‘lgan holatlar Milliy akkreditatsiya organi yoki sud tomonidan belgilangan muddatda muvofiqlikni baholash organi va metrologik xizmat tomonidan bartaraf etilmaganda;
- me’yoriy-huquqiy hujjatlarda, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me’yoriy hujjatlarda belgilangan talablar muvofiqlikni baholash organi va metrologik xizmat tomonidan muntazam yoki bir necha marotaba qo‘pol tarzda buzilganda;
- Milliy akkreditatsiya organining akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomani berish haqidagi qarorining qonuniy emasligi aniqlanganda;
- akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilish muddati tugaganda.

Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini to‘xtatish Milliy akkreditatsiya organi tomonidan amalga oshiriladi

Milliy akkreditatsiya organining akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomani bekor qilish haqidagi qarori muvofiqlikni baholash organiga qaror qabul qilingan kundan e’tiboran ***3 kun***dan kechiktirmasdan yozma shaklda yetkaziladi. Sudning akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomani bekor qilish haqidagi hal qiluv qarori muvofiqlikni baholash organiga va Milliy akkreditatsiya organiga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yetkaziladi.

Muvofiqlikni baholash organi Milliy akkreditatsiya organining yoki sudning akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomani bekor qilish haqidagi qarorini olgan kundan e’tiboran ***o‘n kun*** ichida akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma Milliy akkreditatsiya organiga qaytarishi lozim. Bekor qilingan guvohnomalar Muvofiqlikni baholash organlarining davlat reestridan chiqarilishi va yo‘q qilib yuborilishi lozim.

Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma bekor qilinganligi haqidagi ma’lumotlar ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinishi lozim.

Akkreditatsiya ishlari amalga oshiriladigan sohalarining ro‘yxati ilovalarda keltirilgan (qarang ilova - 3).

## 2.3. Sertifikatlashtirish haqida umumiy ma’lumotlar

Sertifikatlashtirish so‘zi*“guvohlik berish, qayd yoki shahodat etish, ishonch bildirish”* ma’nolarini bildiruvchi lotincha*“certifus”* so‘zidan olingan bo‘lib, kerakli ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki me’yoriy hujjatga muvofiqigini uchinchi, xolis va tan olingan tomon tarafidan tasdiqaydigan faoliyatni bildiradi.

"Sertifikatlashtirish" tushunchasi birinchi marta Xalqaro standartlashtirish tashkiloti Kengashining sertifikatlashtirish masalalari bo‘yicha maxsus qo`mitasi tomonidan ishlab chiqilib, uning "Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sinov laboratoriyalarining akkreditlash sohalaridagi asosiy atamalari va ularning qoidalari" qo‘llanmasiga kiritilgan [6].

Sertifikatlashtirish haqidagi ayrim ma’lumotlar quyidagi sxemada aks etgan (2.3-rasm).




**2.3 - rasm. Sertifikatlashtirish va uning turlari.**

Sanoat korxonalarida ishlab chiqlayotgan turli xil mahsulotlar muayyan sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘lishi kerak. Sifat ko‘rsatkichlari esa me’yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq(mos) kelishi lozim. Muvofiqlik o‘z navbatida ma’lum standartga yoki boshqa me’yoriy hujjatlarga mos kelishini talab etadi.

Muvofiqlikka quyidagicha ta’rif berish mumkin:

*Muvofiqlik– talabni bajarish* [4].

Muvofiqlikni sertifikatlashtirish (ya’ni tasdiqlash) mumkin. Muvofiqlikni belgilashning (tasdiqlashning) uchta ko‘rinishi mavjud: ***muvofiqlik bayonoti, muvofiqlikni attestatlas***va ***muvofiqlikni sertifikatlashtirish***.

***Muvofiqlik bayonoti*** deb, yetkazib beruvchining mahsulot, jarayon va xizmatlarning aniq bir standartga yoki boshqa me’yoriy hujjatga to‘la – to‘kis muvofiqligi haqida butun ma’suliyatni o‘z ichiga olganligini bayon etishiga aytiladi.

***Muvofiqlikni attestatlash*** – uchinchi tomon tarafidan “sinov laboratoriyasining bayonoti” tushunilib, ma’lum namuna mahsulotga

bo‘lgan talablarni belgilovchi ma’lum standartlar yoki boshqa hujjatlar bilan muvofiq ekanligini bayon etishiga aytiladi.

***Muvofiqlikni sertifikatlashtirish*** deganda, kerakli ishonchlilikning ta’minlanganligini tasdiqlashga oid uchunchi tomon faoliyati tushunilib, unda tegishlicha identifkatsiyalanuvchi mahsulot, jarayon yoki xizmatning aniq standart yoki boshqa me’yoriy hujjat talablariga muvofiqligi tasdiqlanadi [6].

Sertifikatlashtirishning maqsad va vazifalariga quyidagilar kiradi:

- odamlarning hayoti, sog‘lig‘i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki hamda atrof muhit uchun xavfli bo‘lgan mahsulotlar realizatsiya qilinishini nazorat etib borish;
- mahsulotlarning jahon bozorida raqobat qila olishini ta’minlash;
- mamlakat korxonalari, qo‘shma korxonalar va tadbirkorlar xalqaro miqyosdagi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdo-sotiqda ishtirok etishlari uchun sharoit yaratish;
- iste’molchini tayyorlovchining (sotuvchining, ijrochining) vijdon-sizligidan himoya qilish;
- mahsulot tayyorlovchisi (sotuvchisi, ijrochisi) ta’kidlagan sifat ko‘rsatkichlarini tasdiqlash maqsadlarida amalga oshiriladi [12].

Sertifikatlashtirish ikki xil ko‘rinishda amalga oshirilishi mumkin: *majburiysertifikatlashtirish* va *ixtiyoriy sertifikatlashtirsh*.

*Majburiy sertifikatlashtirish* deganda, sertifikatlashtirish huquqiga ega bo‘lgan idora tomonidan mahsulot, jarayon xizmatning standartlardagi majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlash tushuniladi.

*Ixtiyoriy sertifikatlashtirish* deganda, ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta’minlovchi) yoki iste’molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladigan sertifikatlashtirish tushuniladi [6].

O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida mahsulotni sertifikatlashtirish quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi:

a) sertifikatlashtirish idorasiga sertifikatlashtirish to‘g‘risida so‘rovnoma berish va uni ko‘rib chiqish;

b) Sertifikatlashtirishga taqdim etilgan mahsulotga oid me’yoriy hujjatni va so‘rovnomaga ilova qilgan boshqa hujjatlarni tahlil qilish;

v) so‘rovnoma bo‘yicha qaror qabul qilish;

g) sinovlar dasturini tayyorlash va tasdiqlash (6 va 9-sxemalardan tashqari);

d) namunalarni identifikatlash (aynan o‘xshashligini aniqlash), tanlab olish va laboratoriyaga olib kelish (6 va 9-sxemalardan boshqa);

e) namunalarni akkreditlangan sinov laboratoriyasida sinashni bajarish (6 va 9-sxemalardan boshqa);

j) mahsulotni ishlab chiqarish holatini tekshirish (sertifikatlashtirishning 3, 4 va 5-sxemalari uchun);

z) sifat tizimini baholash (5 va 6-sxemalari uchun);

i) mahsulotning muvofiqligi to‘g‘risida deklaratsiya yozish (9-sxema);

k) olingan natijalarni tahlil qilish, muvofiqlik sertifikatini berish yoki uni berishdan voz kechish;

m) muvofiqlik sertifikatini O‘zbekiston Respublikasi sertifikat-lashtirish milliy tizimi Davlat reestrida ro‘yxatdan o‘tkazish.

Sertifikatlashtirishga taqdim etilgan mahsulot me’yoriy hujjatida gigienik, veterinariya, fitosanitariya yoki ekologik talablar mavjud bo‘lganda sertifikatlashtirish idorasi gigienik va veterinariya eksperti-zalarini, fitosanitariya tekshiruvini o‘tkazish va ekologik sertifikatlash-tirish zarurligini aniqlaydi. Mazkur amallar sertifikatlashtirish sinovlari bilan bir vaqtda o‘tkazilishi mumkin va so‘rovchiga muvofiqlik sertifikatini berishdan avval, bu amallar tegishli hujjatlar berilishi bilan tugallanishi lozim.

Sertifikatlashtirish idorasi tadbirkorlik subyektlarining yozma arizasiga muvofiq, sertifikatlashtirishni o‘tkazishda davlat sanitariya nazorati idoralaridan, davlat veterinariya nazorati idoralaridan va o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat idoralaridan, shuningdek tabiatni muhofaza qilish davlat idoralaridan barcha zarur xulosalarni olishga oid agentlik xizmatlarini ko‘rsatishga haqlidir. Bunda namunalarni tog‘rri ajratib olish va ularni tegishli davlat idoralariga berish vazifasi, shuningdek mas’ullik sertifikatlashtirish idorasiga yuklatiladi.

**II bobni takrorlash uchun savollar:**

1. Akkreditatsiya deganda nimani tushunasiz?
2. Akkreditatsiyaning tarkibiy elementlariga nimalar kiradi?
3. Akkreditatsiya obyektlariga talablarni belgilovchi me’yoriy hujjatlar haqida ma’lumot bering.
4. Akkreditatsiya qilish qanday bosqichlardan iborat?
5. Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma nima? U kimga beriladi?
6. Qanday hollarda akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishi to‘xtatiladi?
7. Sertifikatlashtirish umumiy tushuncha bering.
8. Muvofiqlik va uni baholash usullari haqida aytib bering.
9. Muvofiqlikni sertifikatlashtirish va uning afzalliklari haqida aytib bering.
10. O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida mahsulotni sertifikatlashtirish qanday jarayonlarni o‘z ichiga oladi?
11. O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi haqida aytib bering.
12. Sertifikatlashtirish idorasi va uning vazifalari haqida ma’lumot bering.

# III-BOB.
# MUVOFIQLIKNI DEKLARATSIYALASH

## 3.1. Muvofiqlikni deklaratsiyalash

**“Deklaratsiya”** so‘zi lotincha “*declaratio*” so‘zidan olingan bo‘lib, “*ma’lum qilaman, e’lon qilaman*”degan ma’nolarni bildiradi.

2013 yil 4 oktabrda imzolangan O‘zbekiston Respublikasining “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi Qonunining 9-moddasi “Muvofiqlikni deklaratsiyalash” deb nomlangan bo‘lib, unda “*muvofiqlikni deklaratsiyalash*” atamasiga quyidagicha izoh berilgan:

***Muvofiqlikni deklaratsiyalash*** - mahsulotning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi tomonidan tasdiqlash.

***Muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiya*** - ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi mahsulotning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi tegishli me’yoriy hujjatlarda muvofiqlikni deklaratsiyalash jarayonida muvofiqlikni tasdiqlash qoidalari, tartibi va usullari belgilanadi.

Agar muvofiqlikni deklaratsiyalashda muvofiqlikni tasdiqlash qoidalari, tartibi va usullarida mahsulot sinovini o‘tkazish zarur ekanligi belgilangan bo‘lsa, bunday sinov akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyasi (markazi) tomonidan ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi bilan tuzilgan shartnoma asosida o‘tkaziladi [5].

Muvofiqlikni deklaratsiyalash jarayoni natijasi bu maxsus hujjat, ya’ni “***Muvofiqlik deklaratsiyasi***”ni taqdim etishdir.

***Muvofiqlik deklaratsiyasi*** **–** bu texnik jihatdan tartibga solish tizimi sohasiga tegishli rasmiy hujjat bo‘lib, u muvofiqlikni baholash obyektlari (mahsulot, asbob uskunalar, jihozlar) ning xavfsizlik bo‘yicha amaldagi standartlar talablariga (bu talablar texnik reglamentlar va ba’zi me’yoriy hujjatlarda aks etgan bo‘ladi) muvofiqligini tasdiqlaydi.

Deklaratsiya yo‘li bilan muvofiqlikni baholash tadbirkor (ishlab chiqaruvchi, sotuvchi) tomonidan ixtiyoriy amalga oshiriladi. Muvofiqlik deklaratsiyasi olingandan so‘ng, barcha javobgarlik ishlab chiqaruvchi zimmasida bo‘ladi. Agar muvofiqlikni deklaratsiyalashda mahsulot sinovini o‘tkazish ko‘zda tutilgan bo‘lsa, bunday sinov akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyasida o‘tkaziladi.

## 3.2. Dekalaratsiyalashni o‘tkazish tartibi

Muvofiqlikni deklaratsiyalash jarayoni ikki etapdan iborat:

1-etap. Laboratoriya sinovlarini o‘tkazish.

2-etap. Mahsulotni deklaratsiyalash.

Dastlab, laboratoriya sinovlari amalga oshiriladi, so‘ngra esa, o‘rganish natijalari bo‘yicha maxsus bayonnoma to‘ldiriladi. Ushbu protsedurani amalga oshirish uchun hujjatlarning elektron nusxalarini va shuningdek deklaratsiyalanuvchi buyumlarning namunalarini taqdim etish lozim.

Ishlab chiqaruvchilarni rasmiylashtirsh uchun quyidagi hujjatlar talab etiladi:

- ariza;
- INN va boshqa tegishli hujjatlarning nusxalari;
- texnik shartlar, agar mavjud bo‘lsa;
- arizachining rekvizitlari.

Mahsulotlarni rasmiylashtirsh uchun quyidagi hujjatlar talab etiladi:

- ariza;
- INN va boshqa tegishli hujjatlarning nusxalari;
- etkazib berish (ta’minlash) haqidagi shartrnomaning nusxasi;
- kompaniya rekvizitlari.

Deklaratsiyalash jarayoni 2-5 ish kuni muddatida amalga oshirilishi lozim va u mahsulot hajmiga, sinash sikliga (davriga) bog‘liq emas.

Muvofiqlik deklaratsiyasi 1 yildan 5 yilgacha bo‘lgan muddatlarga rasmiylashtirilishi mumkin.

3.1-rasmda deklaratsiyalash sxemasini shakllantirish tasvirlangan.




**7.1-rasm. Deklaratsiyalash sxemasini shakllantirish.**

3.1-jadval

***Muvofiqlikni deklaratsiyalash sxemalari***

| *Sxemalarning belgilanishi* | *Sxemalar tavsifi va uning bajaruvchilari* | *Sxemaga yaqin Yevropa modullarini belgilanishi* |
|---|---|---|
| 1d | **Arizachi (talabgor)**<br>Texnik faylda muvofiqlikni xususiy isbotlarini O‘tkazadi.<br>Muvofiqlik to‘g‘risida deklaratsiyalashni qabul qiladi. | A |
| 2d | **Akkreditlangan sinov laboratoriyasi**<br>Mahsulotning namunaviy namunasini sinovdan O‘tkazadi.<br>**Arizachi (talabgor)** | C |

| | | |
|---|---|---|
| | Muvofiqlik to‘g‘risida deklaratsiyalashni qabul qiladi. | |
| 3d | **Sertifikatlashtirish idorasi**<br>Ishlab chiqarish bosqichida sifat tizimini sertifikatlashtiradi.<br>**Akkreditlangan sinov laboratoriyasi**<br>Mahsulotning namunaviy namunasini sinovdan O‘tkazadi.<br>**Arizachi (talabgor)**<br>Muvofiqlik to‘g‘risida deklaratsiyalashni qabul qiladi.<br>**Sertifikatlashtirish idorasi**<br>Sifat tizimi ustidan inspeksion nazoratni amalga oshiradi. | D |
| 4d | **Sertifikatlashtirish idorasi**<br>Sinash va tekshirish bosqichlarida sifat tizimini sertifikatlashtiradi<br>**Arizachi (talabgor)**<br>Muvofiqlik to‘g‘risida deklaratsiyalashni qabul qiladi.<br>**Sertifikatlashtirish idorasi**<br>Sifat tizimi ustidan inspeksion nazoratni amalga oshiradi. | E |
| 5d | **Akkreditlangan sinov laboratoriyasi**<br>Ishlab chiqarilayotgan mahsulot partiyasidan tanlanma sinovini O‘tkazadi.<br>**Arizachi (talabgor)**<br>Muvofiqlik to‘g‘risida deklaratsiyalashni qabul qiladi. | F |
| 6d | **Akkreditlangan sinov laboratoriyasi**<br>Mahsulotning har bir donasini sinovdan O‘tkazadi.<br>**Arizachi (talabgor)**<br>Muvofiqlik to‘g‘risida deklaratsiyalashni qabul qiladi. | G |
| 7d | **Sertifikatlashtirish idorasi**<br>Loyihalashtirish va ishlab chiqarish bosqichlarida sifat tizimini sertifikatlashtiradi.<br>**Arizachi (talabgor)**<br>Muvofiqlik to‘g‘risida deklaratsiyalashni qabul qiladi.<br>**Sertifikatlashtirish idorasi**<br>Sifat tizimi ustidan inspeksion nazoratni amalga oshiradi. | H |

Muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyaning farqi va afzalliklari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Muvofiqlik sertifikati muvofiqlikni baholash sohasida ishlarni bajarish uchun vakolatlangan sertifikatlashtirish idorasi tomonidan berilishi mumkin. Muvofiqlik sertifikati olingan taqdirda, unda keltirilgan ma’lumotlarga nafaqat ishlab chiqaruvchi, balki uni rasmiylashtirgan sertifikatlashtirish idorasi ham mas’uldir.

Deklaratsiya yo‘li bilan muvofiqlikni baholash tadbirkor (ishlab chiqaruvchi, sotuvchi) tomonidan ixtiyoriy amalga oshiriladi. Muvofiqlik deklaratsiyasi olingandan so‘ng, barcha javobgarlik ishlab chiqaruvchi zimmasida bo‘ladi. Agar muvofiqlikni deklaratsiyalashda mahsulot sinovini o‘tkazish ko‘zda tutilgan bo‘lsa, bunday sinov akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyasida o‘tkaziladi.

Muvofiqlik sertifikati soxtalashtirishdan himoyalangan maxsus blankda rasmiylashtiriladi va O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish reyestriga kiritiladi. Muvofiqlik deklaratsiyasi esa belgilangan tartibga ko‘ra, ishlab chiqaruvchi tomonidan to‘ldiriladi.

Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan, majburiy sertifikatlanadigan ayrim turdagi mahsulotlar deklaratsiya yo‘li bilan rasmiylashtirilishi ham mumkin. Demak, mahsulotga muvofiqlik sertifikati to‘liq uchinchi xolis va vakolatli organ tomonidan berilsa, muvofiqlik deklaratsiyasi esa vakolatli laboratoriya xulosalarini olgan holda ishlab chiqaruvchining o‘zi tomonidan to‘ldiriladi. Bunda ishlab chiqaruvchining mablag‘i va vaqti tejaladi.

Umuman olganda, muvofiqlik sertifikati ham, muvofiqlik deklaratsiyasi ham mahsulotning sifatli va xavfsiz ekanligini tasdiqlovchi hujjat bo‘lib, ularning qay birini rasmiylashtirishni arizachi (ishlab chiqaruvchi, tadbirkor) o‘z ehtiyoji hamda hohishidan kelib chiqib tanlaydi.

Muvofiqlikni majburiy tasdiqlashning ikkita shaklining o‘ziga xos xususiyatlari 3.2-jadvalda keltirilgan.

*3.2-jadval*

*Muvofiqlikni majburiy tasdiqlash shakllarining o'ziga xos xususiyatlari*

| ***Tasdiqlash shakli*** | ***Muvofiqlik sertifikati*** | ***Muvofiqlik deklaratsiyasi*** |
|---|---|---|
| *Ta'rif* | Ob'ektning texnik reglamentlar, standartlar, amaliy qoidalar yoki shartnomalar shartlariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat | Muomalaga chiqarilgan mahsulotlarning texnik reglament talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat |
| *Protsedurani bajaradigan subyekt* | Uchinchi tomon (Sertifikatlash organi) | Birinchi tomon - talabnoma beruvchi (ishlab chiqaruvchi) |
| *Mas'uliyat sohasi* | Muvofiqlik sertifikati tegishli sohada akkreditatsiya qilingan mustaqil sertifikatlash organi tomonidan beriladi. Bundan tashqari, sertifikatlash organi sertifikatlangan mahsulotning sifati uchun javobgardir. | Deklaratsiya qilayotganda talabnoma beruvchining (ishlab chiqaruvchining) o'zi mahsuloti-ning texnik reglament talablariga muvofiqligini e'lon qiladi va keyin-chalik e'lon qilingan mahsulotning sifati uchun javobgardir. |
| *Protsedura taqdim etiladigan ob'ektlar* | 3 va 4-toifadagi asbob-uskunalar (032/2013 TR TR VI ning 43-bandi) | Birinchi va ikkinchi toifadagi asbob-uskunalar, shuningdek biron bir toifadagi asbob-uskunalar, ularni qayta taqsimlash bitta bo'lakli ulanishlar yordamida ish joyida amalga oshiriladi. |
| *Jarayon natijasi* | Muvofiqlik sertifikati | Muvofiqlik deklaratsiyasi |
| *Amal qilish muddati* | Sertifikatlashtirish organi tomonidan tashkil etilgan | Ariza beruvchi tomonidan o'rnatilgan |
| *Obyektlarning belgilangan talablarga* | Bu sertifikatlashtirish organi, inspeksiya nazorati (sertifikat-lashtirish sxemalariga | Bu davlat nazorati va nazorati doirasida amalga oshiriladi. |

| | | |
|---|---|---|
| *muvofiqligini monitoring qilish* | muvofiq), shuningdek davlat nazorati va nazorati organlari tomonidan amalga oshiriladi. | |

3.2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, majburiy sertifikatlashtirish doirasida xavfsizlik nazorati yanada qattiqroq, chunki u quyidagicha amalga oshiriladi:

a) uchinchi tomon;

b) sertifikatlashtirish bo‘yicha mutaxassislar;

c) sertifikatlangan mahsulotni inspeksiya nazorati.

Muvofiqlik deklaratsiyasi doirasida xavfsizlikni boshqarishning qat'iyligi deklaratsiya sxemasi bilan belgilanadi. Namunalar sinovini deklaratsiya qilishda, u sinov laboratoriyasida yoki akkreditatsiyalangan sinov laboratoriyasida o‘tkazilishi kerak.

Quyida haddan tashqari bosim ostida ishlaydigan uskunalarni sertifikatlash sxemalari (3.3-jadval) va ularni deklaratsiyalash sxemalari (3.4-jadval) keltirib o‘tamiz.

*3.3-jadval*

*Haddan tashqari bosim ostida ishlaydigan uskunalarni sertifikatlash sxemalari*

| *O‘ch-irish belgisi* | *Ishlab chiqarish tabiati* | *Ariza beruvchi / sertifikat egasi* | *Sinov* | *Ishlab chiqarishni baholash* | *Tekshirish nazorati* |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Sertifikatlashtirish organi sertifikatlangan uskunaning sinov natijalarini tahlil qiladi va / yoki ishlab chiqarish holatini tahlil qiladi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | Akkreditat-siyalangan laboratoriyada ommaviy namunani sinash | Yo‘qolgan | Yo‘qolgan |
| | Bitta element | Bojxona ittifoqi hududida ro‘yxatdan o‘tgan ishlab chiqaruvchi, uning vakolatli shaxsi yoki sotuvchisi | Akkreditatsiya-langan laboratoriyada bitta mahsulotni sinovdan o‘tkazish | Yo‘qolgan | Yo‘qolgan |
| | Ommaviy / ommaviy ishlab chiqarishga murojaat qilishda yoki uskunani o‘zgartirishni rejalashtirishda | Bojxona ittifoqi hududida ro‘yxatdan o‘tgan ishlab chiqaruvchi yoki uning vakili | Sertifikatlashtirish markazining turi bo‘yicha so‘rov | Sertifikatlash-tirish organi mahsulotning holatini tahlil qiladi | Yo‘qolgan |

*3.4-jadval*

*Haddan tashqari bosim ostida ishlaydigan uskunalarni deklaratsiya qilish sxemalari*

| O‘chirish belgisi | Ishlab chiqarish tabiati | Ariza beruvchi / deklarant | Sinov | Ishlab chiqarishni baholash |
|---|---|---|---|---|
| | | Bojxona ittifoqi hududida ro‘yxatdan o‘tgan ishlab chiqaruvchi yoki uning vakili | | |
| | Lot / birlik | Bojxona ittifoqi hududida ro‘yxatdan o‘tgan ishlab chiqaruvchi, uning vakolatli shaxsi yoki sotuvchisi | Laboratoriya turidagi testlar | Yo‘qolgan |
| | | Bojxona ittifoqi hududida ro‘yxatdan o‘tgan ishlab chiqaruvchi yoki uning vakili | Sinovni akkreditatsiyalangan laboratoriyada kiriting | Ishlab chiqarishni boshqarish ishlab chiqaruvchi tomonidan amalga oshiriladi |
| | Lot / birlik | Bojxona ittifoqi hududida ro‘yxat-dan o‘tgan ishlab chiqaruvchi, uning vakolatli shaxsi yoki sotuvchisi | Sinovni akkreditatsiyalangan laboratoriyada kiriting | Yo‘qolgan |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Bir parcha bo‘g'inlardan foydalangan holda rentabelligi ish joyida amalga oshiriladigan uskunalar uchun | Bojxona ittifoqi hududida ro‘yxatdan o‘tgan ishlab chiqaruvchi yoki uning vakili | Sertifikatlashtirish organi tur ekspertizasini o‘tkazadi va uning natijalariga ko‘ra jihoz turiga sertifikat beradi | Yo‘qolgan |

**III bobni takrorlash uchun savollar:**

1.Muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiya nima?

2. Muvofiqlikni deklaratsiyalash deganda nimani tushunasiz?

3. Muvofiqlikni deklaratsiyalash jarayoni qanday etaplardan iborat?

4. Deklaratsiyalashda ishlab chiqaruvchilarni rasmiylashtirsh uchun qanday hujjatlar talab etiladi?

5. Deklaratsiyalashda mahsulotlarni rasmiylashtirsh uchun qanday hujjatlar talab etiladi?

6. Muvofiqlik deklaratsiyasi qancha muddatga beriladi?

7. Deklaratsiyalash jarayoni qancha muddatida amalga oshirilishi lozim?

8. Muvofiqlikni deklaratsiyalash sxemalari haqida tushuncha bering.

9. Muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyaning farqi va afzalliklarini aytib bering.

10. Muvofiqlikni majburiy tasdiqlash shakllarining o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.

# IV-BOB.
# TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH

## 4.1. Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida umumiy tushunchalar

O‘zbekiston Respublikasining «Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilinishi bilan (O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami, 2009 y., 17-son, 211-modda) O‘zbekiston iqtisodiyoti mahsulot, ishlar, xizmatlarga talablar o‘rnatishning xalqaro amaliyotga yaqin bo‘lgan mutlaqo yangi tizimiga o‘tmoqda. Qonun, majburiy talablarni o‘rnatish, qo‘llash va bajarish sohasida, shuningdek mahsulot hayotiy stiklining barcha bosqichlarida talablarni ixtiyoriy asosda o‘rnatish va qo‘llash sohasida huquqiy munosabatlarni o‘rnatadi.

Qonun qoidalarining amalga oshirilishi xavfsizlik darajasini ma’muriy aralashuvning minimal holatida ta’minlaydi va bozorda xavfli hamda soxtalashtirilgan mahsulot paydo bo‘lishining oldini olishga, shuningdek xalqaro savdodagi texnik to‘siqlarni kamaytirishga zamin yaratadi.

«Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risidagi» Qonun orqali O‘zbekistonda joriy etilgan texnik jihatdan tartibga solish – tizimli yondashuv, yani - texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimini ishlab chiqish va ishlashini ta’minlash yo‘li bilan hal qilish mumkin bo‘lgan murakkab ilmiy-texnik vazifadir (O‘zbekiston Respublikasi «Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida»gi Qonunining 6 moddasi) [13].

O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuni 2009 yil 23 aprelda tasdiqlangan bo‘lib, ushbu Qonunning maqsadi mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilash, qo‘llash va bajarish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonun 4 bob, 28 ta moddadan iborat. Qonunning 1-moddasida uning maqsadi ko‘rsatib berilgan. Qonunning 3-moddasi *“Asosiy tushunchalar”* deb nomlangan bo‘lib, unda qo‘llanilgan asosiy tushunchalar va ularning ta’riflari keltirilgan. Ularga quyidagilar kiradi [30]:

**texnik jihatdan tartibga solish** – mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilash, qo‘llash va bajarish;

**mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi** – mahsulotning, uni ishlab chiqarish, ishlatish (undan foydalanish), saqlash, tashish, realizatsiya qilish va utilizatsiya qilish jarayonlarining, bajariladigan ishlar, ko‘rsatiladigan xizmatlarning holati bo‘lib, bunda insonning hayotiga, sog‘lig‘iga, atrof muhitga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga zarar yetkazilishi ehtimoli bilan bog‘liq yo‘l qo‘yilmaydigan xavf mavjud bo‘lmaydi;

**texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar** – texnik reglamentlar, standartlashtirishga doir normativ hujjatlar, sanitariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalari, shaharsozlik normalari hamda qoidalari, ekologik normalar hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa hujjatlar;

**texnik reglament** – texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

**umumiy texnik reglament** – texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, bir turdagi mahsulotlar, ishlar va xizmatlar guruhi xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

**maxsus texnik reglament** – texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, umumiy texnik reglamentda nazarda tutilmagan mahsulotlar, ishlar va xizmatlar ayrim turining xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

**savdodagi texnik to‘siqlar** – mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda mavjud bo‘lgan tafovutlari yoki O‘zgarishlari oqibatida savdoda yuzaga keladigan to‘siqlar.

Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy vazifalar nimalardan iborat ekanligi 4.1-rasmda ko‘rsatib berilgan.




**4.1-rasm. Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy vazifalari.**

Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- texnik reglamentlarni qo‘llashning majburiyligi;
- texnik reglamentlarni qo‘llashning bir xilligi;
- texnik reglamentlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi milliy va xalqaro normativ hujjatlarga muvofiqligi;
- texnik reglamentlarning, ularni ishlab chiqish, qabul qilish va e’lon qilish tartibi to‘g‘risidagi axborotning ochiqligi.

### 4.2. Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi

Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimini quyidagilar tashkil etadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari – O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikat-lashtirish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston

Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasida o‘z vakolatlari doirasida faoliyatni amalga oshiruvchi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari.

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:*

texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimiga kiruvchi organlar faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi;

texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimiga kiruvchi organlarning faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi;

texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarini tasdiqlaydi;

umumiy texnik reglamentlarni tasdiqlaydi, ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritadi, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

*O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlari:*

O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi:

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan kiritilgan texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarining loyihalari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga umumlashtirilgan takliflar kiritadi;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining umumiy va maxsus texnik reglamentlarni ishlab chiqishga doir faoliyatini o‘z vakolati doirasida muvofiqlashtiradi hamda tashkil etadi;
- umumiy texnik reglamentlarni tasdiqlash, ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyasini tuzadi;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan umumiy va maxsus texnik reglamentlarni O‘z vakolati doirasida

ekspertizadan o‘tkazadi;

O‘z vakolati doirasida: xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlaydi, ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritadi, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qiladi;

umumiy va maxsus texnik reglamentlarga rioya etilishi ustidan o‘z vakolati doirasida davlat nazoratini amalga oshiradi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondini shakllantiradi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasida o‘z vakolati doirasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

***O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi*** texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning xavfsizligiga doir, ularda inson hayoti va sog‘lig‘i uchun zararli bo‘lgan moddalar, kasallik tug‘diruvchi organizmlarning mavjudligi, kasallik tashuvchilarning kirib kelishi yoki tarqalishining oldini olish, tibbiyot uchun mo‘ljallangan buyumlar, tibbiy texnika va dori vositalarini ishlab chiqarish hamda qo‘llash bo‘yicha majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta’minlaydi.

***O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi*** shaharsozlik faoliyatida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta’minlaydi.

***O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi***tabiiy resurslardan foydalanishda hamda atrof-muhitni ifloslanish va boshqa zararli ta’sirlardan muhofaza qilishda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta’minlaydi.

***Ushbu texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari*** o‘z vakolati doirasida:

- texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlari loyihalari va umumiy texnik reglamentlarni tasdiqlash yuzasidan O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligiga takliflar kiritadi;
- umumiy va maxsus texnik reglamentlar ishlab chiqilishini amalga oshiradi hamda ularni ekspertizadan o‘tkazadi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalarini tuzadi;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan umumiy va maxsus texnik reglamentlarni ekspertizadan o‘tkazadi;
- umumiy texnik reglamentlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;
- maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlaydi, ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritadi, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qiladi;
- umumiy va maxsus texnik reglamentlarga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondini shakllantiradi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Davlat boshqaruvi organlari o‘z vakolatlari doirasida maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlaydi, ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritadi, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qiladi.

## 4.3. Texnik reglamentlar va ularda belgilanadigan xavfsizlik talablari

*Texnik reglament*- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

Texnik reglamentlar quyidagi turlarga bo‘linadi (4.2- rasm).




**4.2-rasm. Texnik reglament turlari**

Texnik reglamentlarda mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligini ta'minlashga doir talablar quyidagilar bo'yicha belgilanishi mumkin:

bilologik xavfsizlik;

mexanik xavfsizlik;

kimyoviy xavfsizlik;

yadroviy va radiatsiyaviy xavfsizlik;

yong'in xavfsizligi;

elektr xavfsizligi;

mashina va uskunalarni ishlatish (ulardan foydalanish) hamda utilizatsiya qilish xavfsizligi;

elektromagnit mosligi;

qurilish ishlari xavfsizligi;

binolar, inshootlardan va ularga tutash hududdan foydalanish xavfsizligi;

ekologik xavfsizlik;

veterinariya xavfsizligi;

sanoat va ishlab chiqarish xavfsizligi;

portlash xavfsizligi;

axborot xavfsizligi;

O‘lchovlarning va sinovlar usullarining bir xilligini ta’minlash.

Texnik reglamentlarda mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligini ta’minlashga doir boshqa talablar ham belgilab qo‘yilishi mumkin.

Hozirgi kunga qadar mamlakatimizda qabul qilingan texnik reglamentlarning umumiy soni 40 dan oshiq bo‘lib, ulardan 9 tasi maxsus texnik reglamentdir. Quyida ushbu texnik reglamentlarning nomlarini keltirib o‘tamiz.

*Umumiy texnik reglamentlar:*

1. «Foydalanish shartlari bo‘yicha avtotransport vositalari konstruksiya-larining xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.191-001:2012). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 04.07.2012 yildagi 191-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

2. «Temir yo‘l transporti infratuzilmasi xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.192-002:2012). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 04.07.2012 yildagi 192-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

3. "Ta’lim muassasalari uchun xavfsiz poligrafiya mahsulotlari haqida"gi Umumiy texnik reglamenti (UzTR.146-003:2015). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.06.2015 yildagi 146-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu texnik reglament 2015 yil 3 dekabrdan amalga kiritildi.

4. «Metallurgiya mahsulotlari xavfsizligi bo‘yicha» umumiy texnik reglament (UzTR.319-004:2015). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 6 noyabrdagi 319-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu texnik reglament 2016 yil 16 maydan boshlab amalga kiritildi.

5. “Siqilgan tabiiy gaz, suyultirilgan gaz yoki dizel va gaz yoqilg‘isi aralashmasi bilan ishlaydigan transport vositalari xavfsizligi to‘g‘risida”gi Umumiy texnik reglamenti (UzTR.326-005:2015). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 11 noyabrdagi 326-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu texnik reglament 2016 yil 16 may kunidan amalga kiritildi.

6. «Qishloq xo‘jaligi texnikalari konstruksiyasining xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.80-006:2016).

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 18 martdagi 80-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

7. «Don xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.99-007:2016). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 31 martdagi 99-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

8. «Yengil sanoat mahsulotlari xavfsizligi» to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamenti (UzTR.148-008:2016). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 11 maydagi 148-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

9. «Dori vositalarining xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.365-009:2016). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 27 oktyabrdagi 365-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

10. «Texnik vositalarning elektromagnit mosligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.389-010:2016). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 21 noyabrdagi 389-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

11. «Charm-poyabzal mahsulotlarining xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.5-011:2017). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 yanvardagi 5-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

12. «Alkogolli mahsulotlarning xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.71-012:2017). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 fevraldagi 71-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

13. «Shisha idishlarning xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.86-013:2017). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 16 fevraldagi 86-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

14. «Shaxta ko‘tarish qurilmalarining xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.99-014:2017). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 24 fevraldagi 99-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

15. «Telekommunikatsiya uskunalarining xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiytexnik reglamenti (UzTR.102-015:2017). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 fevraldagi 102-sonli

qarori bilan tasdiqlangan.

16. «Muomalaga chiqarilayotgan g‘ildirakli transport vositalarining xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.237-016:2017). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 25 apreldagi 237-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

17. «O‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari o‘quv xonalarining xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.265-017:2017). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 10 maydagi 265-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

18. «O‘quv asbob-uskunalari va anjomlarining xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.345-018:2017). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 2 iyundagi 345-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

19. «Bosim ostida ishlaydigan uskunalarning xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.427-019:2017). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 24 iyundagi 427-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

20. «Sut va sut mahsulotlarining xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.474-020:2017). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 iyuldagi 474-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

21. «Oziq-ovqat mahsulotlariga tegib turadigan qadoqlarning xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.476-021:2017). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 iyuldagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

22. «Oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alash yuzasidan uning xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.490-022:2017). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 12 iyuldagi 490-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

23. «Yog‘-moy mahsulotlarining xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.520-023:2017). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyuldagi 520-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

24. «Moylash materiallari, texnik moylar va texnik suyuqliklarga talablar to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.783-024:2017). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 2 oktyabrdagi 783-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

25. «Liftlarning xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.801-025:2017). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 oktyabrdagi 801-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

26. «Gaz holatidagi yoqilg‘ida ishlovchi apparatlarning xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.880-026:2017). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 30 oktyabrdagi 880-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

27. «Veterinariya dori vositalari va ozuqa qo‘shimchalarining xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.905-027:2017). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 noyabrdagi 905-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

28. «Avtomobil va aviatsiya benziniga, dizel va kema yonilg‘isiga, reaktiv dvigatellar uchun yonilg‘iga va mazutga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.931-028:2017). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 noyabrdagi 931-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

29. «Portlash xavfi bo‘lgan muhitlarda ishlovchi asbob-uskunalarning xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.941-029:2017). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 24 noyabrdagi 941-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

30. «Go‘sht va go‘sht mahsulotlarining xavfsizligi to‘g‘risida»gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.36-030:2018). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 yanvardagi 36-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

31. “Tamaki mahsulotlari to‘g‘risida” umumiy texnik reglamenti (UzTR.74-031:2019). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 1 fevraldagi 74-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

32. “Idishga qadoqlangan ichimlik suvining xavfsizligi to‘g‘risida”gi umumiy texnik reglamenti (UzTR.861-032:2019). O‘zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 10 oktabrdagi 861-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

*Maxsus texnik reglamentlar:*

1. «Gossipol smolasi xavfsizligi talablari to‘g‘risida»gi Maxsus texnik reglamenti (MTR.001-2010). «O‘zstandart» agentligining 31.12.2010 yildagi MTR-1 – sonli qarori bilan tasdiqlangan.

2. «Harbiy xizmatchilar uchun ustki kiyim xavfsizligi to‘g‘risida»gi Maxsus texnik reglamenti (MTR.002-2011). «O‘zstandart» agentligining 30.12.2011 yildagi MTR-2 – sonli qarori bilan tasdiqlangan.

3. «Harbiy xizmatchilar uchun poyabzal xavfsizligi to‘g‘risida»gi Maxsus texnik reglamenti (MTR.003-2011). «O‘zstandart» agentligining 30.12.2011 yildagi MTR-3 – sonli qarori bilan tasdiqlangan.

4. «Ochiq kalitlar infratuzilmasiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida»gi Maxsus texnik reglamenti (MTR.004-2013). «O‘zstandart» agentligining 04.03.2013 yildagi MTR-4 – sonli qarori bilan tasdiqlangan.

5. «Pochta aloqasida xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha talablar to‘g‘risida»gi Maxsus texnik reglamenti (MTR.005-2014). «O‘zstandart» agentligining 01.11.2014 yildagi MTR-5 – sonli qarori bilan tasdiqlangan.

6. «Sirlangan po‘lat xo‘jalik idish-tovoqlar xavfsizligi to‘g‘risida»gi Maxsus texnik reglamenti (MTR.006-2016). «O‘zstandart» agentligining 17.06.2016 yildagi MTR-6 – sonli qarori bilan tasdiqlangan.

7. «Don qayta ishlash mahsulotlari xavfsizligi to‘g‘risida»gi Maxsus texnik reglamenti (MTR.007-2016). «O‘zstandart» agentligining 17.11.2016 yildagi MTR-7 – sonli qarori bilan tasdiqlangan.

8. «Non va makaron mahsulotlarining xavfsizligi to‘g‘risida»gi Maxsus texnik reglamenti (MTR.008-2017). «O‘zstandart» agentligining 27.03.2017 yildagi MTR-8 – sonli qarori bilan tasdiqlangan.

9. «Ixcham (modul) statsionar va ko‘chma gaz bilan to‘ldirish kompressor shohobchalaridan xavfsiz foydalanish to‘g‘risida»gi Maxsus texnik reglamenti (MTR.009-2018). «O‘zstandart» agentligining 28.02.2018 yildagi MTR-9 – sonli qarori bilan tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya tizimlarini

yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida 2019-2021 yillarda 42 ta texnik reglamentni ishlab chiqilishini ko‘zda tutadigan texnik reglamentlarni ishlab chiqish bo‘yicha Dastur tasdiqlandi [36]. Ushbu dasturga ko‘ra turli sohalarga taalluqli bir qancha texnik reglamentlarni ishlab chiqish va amalga joriy etish nazarda tutilgan (4.3-rasm).




**4.3-rasm. Texnik reglamentlarni ishlab chiqish va qabul qilish holati.**

**Texnik reglamentlarning mazmuni.** Texnik reglamentlar quyida-gilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi tavsiflari;
- xavfsizlik talablari belgilanayotgan mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning to‘liq ro‘yxati;
- atamalarga, o‘rov-idishga, tamg‘alarga yoki yorliqlarga hamda ularni aks ettirish qoidalariga va mahsulotni identifikatsiya qilishga doir talablar;
- mahsulotlar namunalarini olish va ularni sinovdan o‘tkazish qoidalari;
- davlat nazoratini amalga oshirish tartibi;

- mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini baholash uchun zarur bo‘lgan sinovlar, o‘lchovlar qoidalari va usullari.

Zararli mikroorganizmlar va qo‘shimchalar, kasalliklar, kasallik tarqatuvchilar, ifloslantiruvchi moddalar, toksinlar, zararkunandalar va begona o‘simliklar kirib kelishi yoki tarqalishi munosabati bilan yuzaga keladigan insonning hayoti va sog‘lig‘iga, atrof muhitga zarar yetkazilishi xavfi darajasi hamda zararni bartaraf etish hisobga olingan holda texnik reglamentlarda sanitariya, veterinariya-sanitariya va fitosanitariya chora-tadbirlari ham ko‘rsatilishi kerak.

Sanitariya, veterinariya-sanitariya va fitosanitariya chora-tadbirlarida quyidagilar belgilab qo‘yiladi:

- mahsulotga, uni sinash, tekshirish tartib-taomiliga, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya va fitosanitariya xulosasini berish tartibiga doir majburiy talablar;

- karantin va veterinariya-sanitariya qoidalari, shu jumladan hayvonlar va o‘simliklarni tashish bilan bog‘liq talablar;

- namunalar olish usullari va tartib-taomili, insonning hayoti va sog‘lig‘iga, atrof muhitga zarar yetkazilishi xavfini tadqiq etish hamda baholash usullari, shuningdek texnik reglamentlarda ko‘rsatilgan boshqa talablar.

Texnik reglamentlarda mahsulotning konstruksiyasiga va bajarilishiga doir talablar bo‘lmasligi lozim, insonning hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazilishi xavfi darajasi hisobga olingan holda mahsulotning konstruksiyasiga va bajarilishiga doir talablar yo‘qligi sababli mahsulot xavfsizligi ta’minlanmasligi hollari bundan mustasno.

Mahsulotlar, ishlar va xizmatlardan uzoq muddat foydalanilishi oqibatida va (yoki) yo‘l qo‘yiladigan xavf darajasini aniqlash imkoniyatini bermaydigan boshqa omillar ta’siri sababli insonning hayoti va sog‘lig‘iga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga zarar yetkazadigan mahsulotlar, ishlar va xizmatlarga doir talablar texnik reglamentlarda bo‘lmasligi kerak. Bunda texnik reglamentlarda ehtimol tutilgan zarar to‘g‘risida hamda insonning hayoti va sog‘lig‘iga, atrof

muhitga zarar yetkazilishi xavfi qaysi omillarga bog‘liq bo‘lsa, shu omillar haqida iste’molchilarni xabardor qilishga doir talablar bo‘lishi mumkin.

Texnik reglamentlarda mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir quyidagi maxsus talablar bo‘lishi mumkin:

- qonun hujjatlarida belgilangan ayrim toifadagi fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘i muhofaza qilinishini ta’minlaydigan maxsus talablar;

- texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda insonning hayoti va sog‘lig‘iga, atrof muhitga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga tahdid soluvchi transchegaraviy xavfli ishlab chiqarish obyektlariga oid maxsus talablar.

Davlat sirlaridan va qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirdan iborat bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan texnik reglamentlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishlab chiqiladi va qabul qilinadi.

Texnik reglamentlar tugal bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi hamda ularga faqat belgilangan tartibda o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish yo‘li bilan o‘zgartirilishi mumkin.

**Texnik reglamentlar texnik** reglamentlarni ishlab chiqish dasturlariga asosan ishlab chiqiladi. Bu dasturlarini shakllantirish O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda barcha ishlar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa vakolatli davlat organlarining hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining o‘z vakolatlari doirasidagi takliflarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi va belgilangan tartibda e’lon qilinadi.

**Texnik reglamentlarni ishlab chiqish tartibi.** Texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilar belgilangan tartibda:

texnik reglamentlar ishlab chiqilishi haqidagi xabarlarni e’lon qiladi;

texnik jihatdan tartibga solinishi lozim bo‘lgan mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning guruhlari hamda turlarini belgilaydi;

mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning texnik reglamentlarda belgilanadigan talablarga muvofiqligini baholash usullarini belgilaydi;

ishlab chiqilgan texnik reglamentlarni kelishib oladi;

ishlab chiqilgan texnik reglamentlardan foydalanish erkinligini ta’minlaydi.

Texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilar ishlab chiqilgan texnik reglamentlar rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran ikki oy ichida ularning muhokama qilinishini ta’minlaydi.

Texnik reglament loyihasini ishlab chiqishda quyidagilar shakllantirilishi lozim:

1. Texnik reglamentga taalluqli obyektlar;
2. Texnik reglamentni ishlab chiqishdan maqsad;
3. Texnik reglamnet obyektlari uchun asosiy talablar ro‘yxati;
4. Texnik reglament obyektlari uchun mamlakat hududida belgilangan majburiy talablar ro‘yxati;
5. Obyektlar uchun tallauqli xalqaro standartlar ro‘yxati.

*Texnik reglamentlarni ishlab chiqish etaplari:*

1. Texnik reglamentni ishlab chiqish uchun arizalarni jamlash;
2. Tashkiliy bosqich, bunda barcha ishlar texnik jihatdan tartibga solish tizimi tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi;
3. Texnik reglamentning dastlabki loyihasini ishlab chiqish;
4. Texnik reglamentning ishlab chiqilayotganligi haqida tegishli nashrlarda ma’lum qilish;
5. Texnik reglament loyihasining ochiq muhokamasi;
6. Texnik reglament loyihasi uchun taqrizlar olish;
7. Olingan taqrizlar tahlili;
8. Texnik reglament loyihasining kamchiliklarini to‘dirish va to‘g‘rilash, bunda manfaatdor tomonlar tarafidan berilgan yozma mulohazalar va takliflar e’tiborga olinadi;
9. Texnik reglament loyihasini jamaotchilik oldida muhokamasini o‘tkazish;
10. Texnik reglament loyihasini birinchi o‘qishda qabul qilish;

11. Olingan yozma mulohazalar ro‘yxatini tuzish, bunda ularning qisqacha mazmuni va ularni muhokamasi natijasining bayoni keltiriladi;

12. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyasida texnik reglamenbt loyihasini ekspertizadan o‘tkazish;

13. Tayyor va qayta ishlab chiqilgan texnik reglament loyihasini ikkinchi o‘qishda qabul qilish.

**IV bobni takrorlash uchun savollar:**

1. «Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risidagi» Qonunning qabul qilinishi va uning ahamiyati haqida aytib bering.
2. Mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi deganda nimani tushunasiz?
3. Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi haqida ma’lumot bering.
5. Texnik reglamentlar va ularning turlari haqida tushuncha bering.
6. Texnik reglamentlarda mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligini ta’minlashga doir talablar nimalarga asosan belgilanadi?
7. Mamlakatimizda texnik jihatdan tartibga solish sohasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

# V-BOB.
# INSPEKSION NAZORAT VA UNI AMALGA OSHIRISH

## 5.1. Inspeksiya nazorati haqida

***Inspeksiya nazorati*** - mahsulotni, ishlab chiqarish jarayonlarini, xizmatlarni, menejment tizimlarini, muvofiqlikni baholash organlarini ularning muvofiqlikni baholash davrida belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan davriy qayta baholash tartib-taomili.

Akkreditatsiya qilishda belgilangan talablarga muvofiqlikni tasdiqlash maqsadida muvofiqlikni baholash organining va metrologik xizmatning faoliyatini inspeksiya nazoratidan oʻtkazish «Akkreditatsiya markazi» DK tomonidan akkreditatsiya toʻgʻrisidagi guvohnomaning butun amal qilish muddati mobaynida amalga oshiriladi [11].

***Inspeksiya organi*** - yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiyani va inspeksiya nazoratini oʻtkazish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik shaxs.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me’yoriyhujjatlarning qoʻllanishi, sifat menejmenti joriy etilgan tizimining samaradorligi, amalga oshirilayotgan faoliyatning akkreditatsiya qilishning tasdiqlangan sohasiga muvofiqligi, sertifikatlashtirish, inspektsiya nazorati va sinovlar boʻyicha bajarilgan ishlar mahsulotlar, xizmatlar, xodimlarni hamda menejment tizimlarini va inspeksiya organlarini sertifikatlashtirish organlari faoliyatining inspektsiya nazoratini oʻtkazish obyektlari hisoblanadi [11].

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning qoʻllanishi, sifat menejmenti joriy etilgan tizimining samaradorligi, akkreditatsiya qilishning belgilangan sohasida amalga oshirilayotgan faoliyatning muvofiqligi, sinov va oʻlchovlar vaqtida rasmiylashtiriladigan protokollar, oʻlchov vositalarini sinov hamda oʻlchov va sinovlar vositalarini metrologik attestatsiyadan oʻtkazish sertifikatlari sinov va oʻlchov laboratoriyalari (markazlari) va metrologik xizmat faoliyatining inspeksiya nazoratini oʻtkazish obyektlari hisoblanadi.

Muvofiqlikni baholash organlarini va metrologik xizmatlarni akkreditatsiya qilish hamda inspektsiya nazoratini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga berilgan ilovalarda inspektsiya nazoratini o‘tkazish sxemasi quyidagicha ko‘rinishda berilgan (5.1-rasm).




**5.1-rasm. Inspeksiya nazoratini o‘tkazish sxemasi.**

Muvofiqlikni baholash organi va metrologik xizmat faoliyatining inspektsiya nazorati akkreditatsiya qilish to‘g‘risidagi bitimlar asosida, joyiga borgan holda, har yili ko‘pi bilan bir marta, «Akkreditatsiya markazi» DK rahbari tomonidan har yili tasdiqlanadigan inspeksiya nazoratining reja-jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

Muvofiqlikni baholash organi va metrologik xizmat faoliyatining rejadan tashqari inspeksiya nazoratini o‘tkazish «Akkreditatsiya markazi» DKga akkreditatsiya qilish shartlari buzilishining hujjatlar bilan tasdiqlangan holatlari yoki asoslanmagan va noqonuniy harakatlar, shu jumladan tijorat siri hisoblanadigan ma‘lumotlarning oshkor qilinganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar tushgan taqdirda amalga oshiriladi [11].

Inspeksiya nazoratini o‘tkazish muddati muvofiqlikni baholash organi bilan kelishilgan tarzda amalga oshirilishi va o‘tkazilish muddati 20 ish kunidan oshmasligi kerak.

Inspeksiya nazoratini o‘tkazish uchun maxsus komissiya tuziladi va uni sifat bo‘yicha ekspert-auditor boshqaradi. Muvofiqlikni baholash organini va metrologik xizmatni akkreditatsiya qilish sohasiga bog‘liq holda komissiya tarkibiga inspeksiya nazoratini o‘tkazishda ko‘rib chiqiladigan masalalar bo‘yicha malakali mutaxassislar qo‘shimcha ravishda kiritilishi mumkin.

Bular:

- sifat bo‘yicha ekspert-auditorlar va (yoki) sinovlar turlari bo‘yicha texnik ekspertlar;
- tayyorlovchilarning vakillari;
- nazorat qilish organlarining vakillari;
- iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlariningvakillari;
- ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining vakillari.

Komissiya a’zolari maxfiylikni ta’minlash bo‘yicha talablarga rioya etishlari kerak.

## 5.2. Inspeksiya nazoratini o‘tkazishda tekshiriladigan jarayonlar

Tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq o‘tkaziladigan mahsulotlar, xizmatlar, xodimlar, menejment tizimlarini va inspeksiya organini

sertifikatlashtirish bo‘yicha organlar faoliyatining inspeksiya nazoratini o‘tkazishda quyidagilar tekshiriladi:

*a)* ularning mustaqilligi va akkreditatsiya shartlarining bajarilishi;

*b)* akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari) bilan o‘zaro hamkorlik qilish (zarur bo‘lgan taqdirda);

*v)* muvofiqlikni baholashning o‘tkazilgan ishlari bo‘yicha tasdiqlovchi hujjatlarning mavjudligi va muvofiqligi (buyurtmanomalar, muvofiqlik sertifikatlarining nusxalari, sinovlar dasturlari, sinovlar protokollari, ishlab chiqarishlarni tekshirish dalolatnomalari va boshqalar);

*g)* muvofiqlikni baholash bo‘yicha qarorlar qabul qilishning asoslanganligi;

*d)* muvofiqlikni baholash bo‘yicha ishlarning natijalari hisobini yuritish va ro‘yxatdan o‘tkazish;

*e)* jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini hisobga olish va ko‘rib chi?ish;

*j)* texnik jihatdan tartibga solishga doir tegishli normativ hujjatlar bilan ta’minlanganlik, ularning amal qilish muddatlari, ularga o‘z vaqtida o‘zgartirishlar kiritilganligi;

*z)* olingan muvofiqlik sertifikatlarini va muvofiqlik belgisini qo‘llashda buzilishlarga yo‘l qo‘ygan shaxslarga nisbatan tegishli choralar qo‘llash holatlari;

*i)* xodimlarning layoyatliligi va malakasining bajariladigan funktsiyalarga muvofiqligi, sertifikatlashtirish organining xodimlar malakasini oshirish va ularni attestatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha faoliyati, lavozim yo‘riqnomalarining mavjudligi va muhimligi;

*k)* sertifikatlashtirishga ariza beruvchilarning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan axborotlarning maxfiyligini ta’minlash;

*l)* ular bo‘yicha qat’iy hisobot beriladigan blankalarning hisobi.

Tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq o‘tkaziladigan sinov va o‘lchov laboratoriyalari (markazlari) hamda metrologik xizmat faoliyatini inspeksiya nazoratidan o‘tkazish vaqtida quyidagilar tekshiriladi:

*a)* sinov va o‘lchov laboratoriyalari (markazlari)ning, shuningdek metrologik xizmatning mustaqilligi;

*b)* sinovlar, tekshirishlar, o‘lchash va metrologik attestatsiya protokollarining va (yoki) sertifikatlarining mavjudligi, to‘liqligi va ularni taqdim etish hamda rasmiylashtirishning to‘g‘riligi, shuningdek ularni hisobga olish va saqlash tizimi;

*v)*o‘lchovlar va sinovlar vositalarining maqbul darajadagi sinovlarini (o‘lchovlarini), tekshirishlarni, o‘lchovlarni hamda metrologik attestatsiyadan o‘tkazishni ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar;

*g)* jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini hisobga olish va ko‘rib chiqish;

*d)* texnik jihatdan tartibga solishga doir tegishli me’yoriyhujjatlar bilan ta’minlanganlik, ularning amal qilish muddatlari, ularga o‘z vaqtida o‘zgartirishlar kiritilganligi;

*e)* xodimlarning layoqatliligi va malakasining bajariladigan funktsiyalarga muvofiqligi, xodimlarning malakasini oshirish va ularni attestatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha sertifikatlashtirish organining faoliyati lavozim, yo‘riqnomalarining mavjudligi va dolzarbligi;

*j)* sinovlar (o‘lchovlar), tekshirishlar, metrologik attestatsiyani o‘tkazish xonalari va shartlarining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me’yoriyhujjatlar talablariga muvofiqligi;

*z)* sinov va o‘lchov vositalari va boshqa texnik vositalar, shuningdek davlat standarti namunalari, boshqa toifalardagi standart namunalari, attestatsiyadan o‘tkazilgan aralashmalar bilan ta’minlanganlik, ularning o‘z vaqtida tekshirib ko‘rilganligi;

*i)* sinovlar va o‘lchovlarni, tekshirishlarni, shuningdek sifat menejmenti tizimi tartib-taomillarini reglamentlovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me’yoriyhujjatlar talablariga rioya etish;

*k)* boshqa sinov va o‘lchov laboratoriyalari (markazlari) va metrologik xizmatlar, mahsulotlar, xizmatlar, xodimlarni, menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organlari va inspeksiya organlari bilan o‘zaro hamkorlik qilishda axborotlarning maxfiyligini ta’minlash;

*l)* ular yuzasidan qat’iy hisobot beriladigan blankalarni hisobga olish;

*m)* laboratoriyalararo taqqoslashlarning natijalari.

Zarurat bo‘lganda, laboratoriyalararo taqqoslashlar o‘tkazilmagan taqdirda sinov va o‘lchov laboratoriyalari (markazlari)ning vakolatliligini tasdiqlash uchun nazorat komissiya tomonidan sinovlar (o‘lchovlar), tekshirishlar, o‘lchashni, metrologik attestatsiyadan o‘tkazish talab qilinishiga yo‘l qo‘yiladi. Nazorat sinovlari (o‘lchovlari) amalga oshiriladigan mahsulotlarning turi, mahsulotlarning tekshiriladigan tavsiflari, namunalarni (sinovlarni) tayyorlash va tanlab olish, tavsifnomalar ma’lumotlarining anonimligini ta’minlash nazorat sinovlari (o‘lchovlar) dasturida belgilanadi.

Inspeksiya nazorati davomida nomuvofiqliklar aniqlanganda nomuvofiqlik to‘g‘risida protokol rasmiylashtiriladi.

Muvofiqlikni baholash organining va metrologik xizmatning faoliyatini inspeksiya nazoratidan o‘tkazish natijalariga ko‘ra komissiya tomonidan muvofiqlikni baholash organining va metrologik xizmatning akkreditatsiya qilish shartlariga muvofiqligi haqidagi umumiy bahodan iborat bo‘lgan hujjat ikki nusxada rasmiylashtiriladi. Uning birinchi nusxasi muvofiqlikni baholash organi va metrologik xizmatning rahbariga topshiriladi, ikkinchi nusxasi esa «Akkreditatsiya markazi» DKga taqdim etish uchun komissiya rahbarida qoladi. Inspeksiya nazorati dalolatnomasi komissiyaning a’zolari hamda muvofiqlikni baholash organi va metrologik xizmatning rahbari tomonidan imzolanadi. U inspeksiya nazorati natijalariga qo‘shilmasa, o‘zining alohida fikrini bayon qilishi mumkin [11].

**V bobni takrorlash uchun savollar:**

1. Inspeksion nazorat nima? U qanday tarzda amalga oshiriladi?
2. Inspeksiya organlari va ularning vazifasi haqida aytib bering.
3. Inspeksiya nazoratini o‘tkazish obyektlariga nimalar kiradi?
4. Inspektsiya nazoratini o‘tkazish sxemasini tushuntirib bering.
5.Inspektsiya nazoratini o‘tkazish muddati qanday tartibdabelgilangan?
6. Inspeksiya nazoratini o‘tkazish uchun maxsus komissiya tarkibi va uning vazifalarini aytub bering.

7.Inspeksiya organini sertifikatlashtirish bo‘yicha organlar faoliyatining inspeksiya nazoratini o‘tkazishda nimalar tekshiriladi?

8. Sinov va o‘lchov laboratoriyalari (markazlari) hamda metrologik xizmat faoliyatini inspeksiya nazoratidan o‘tkazish vaqtida nimalar tekshiriladi?

9. Inspeksiya nazorati davomida nomuvofiqliklar aniqlanganda qanday ishlar amalga oshiriladi?

10. Muvofiqlikni baholash organining va metrologik xizmatning faoliyatini inspeksiya nazoratidan o‘tkazish natijalariga ko‘ra qanday hujjatlar tayyorlanadi?

11. Nomuvofiqlik to‘g‘risida protokol qanday holatlarda rasmiylashtiriladi?

# VI-BOB. MUVOFIQLIKNI TASDIQLASHNI AMALGA OSHIRISH VA UNING NATIJALARINI TAN OLISH

## 6.1. Muvofiqlikni tasdiqlashni amalga oshirish

Mamlakatimizda muvofiqlikni baholash sohasida amalga oshiriladigan faoliyatlar 2013 yil 4 oktabrda qabul qilingan "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi qonunga asosan amalga oshiriladi. Qonunning 12-moddasida muvofiqlikni tasdiqlashni amalga oshirish haqida so'z yuritilgan bo'lib, unga ko'ra "*Mahsulot, xizmatlar, ishlab chiqarish jarayonlari, menejment tizimlari, xodimlarning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash sertifikatlashtirish va muvofiqlikni deklaratsiyalash natijalariga ko'ra amalga oshiriladi. Sertifikatlashtirish va muvofiqlikni deklaratsiyalash majburiy yoxud ixtiyoriy tusda bo'lishi mumkin. Muvofiqlikni baholash organlarining muvofiqligini tasdiqlash ularni akkreditatsiya qilish natijalariga ko'ra amalga oshiriladi.*"

***Muvofiqlikni tasdiqlash*** — normativ-huquqiy hujjatlarning, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablari bajarilganligi isbotlangani haqida Milliy akkreditatsiya organi yoki muvofiqlikni baholash organlari tomonidan qabul qilingan qarorga asoslangan hujjatlashtirilgan (akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma, muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya tarzidagi) tasdiq [5].

Muvofiqlikni tasdiqlashning yo'llari haqida to'xtalib o'tamiz.

***Akkreditatsiya*** — yuridik shaxslarning muayyan faoliyat sohasida muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini Milliy akkreditatsiya organi tomonidan rasman tasdiqlash faolyatidir.

Akkreditatsiya ishlari akkreditatsiya qilinishga talabgor bo'lgan yuridik shaxslarning vakolatli ekanligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladi va akkreditatsiya qilinishga talabgor bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlarning tahlili va ekspertizasini, olingan dalillarni tekshiruvlar o'tkazish yo'li bilan baholashni o'z ichiga oladi.

***Muvofiqlikni deklaratsiyalash*** — mahsulotning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi tomonidan tasdiqlash.

Muvofiqlikni deklaratsiyalashda muvofiqlikni tasdiqlash qoidalari, tartibi va usullari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi tegishli normativ hujjatlarda belgilanadi. Agar muvofiqlikni deklaratsiyalashda muvofiqlikni tasdiqlash qoidalari, tartibi va usullarida mahsulot sinovini o‘tkazish zarur ekanligi belgilangan bo‘lsa, bunday sinov akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyasi (markazi) tomonidan ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi bilan tuzilgan shartnoma asosida o‘tkaziladi [5].

***Inspeksiya nazorati*** — mahsulotni, ishlab chiqarish jarayonlarini, xizmatlarni, menejment tizimlarini, muvofiqlikni baholash organlarini ularning muvofiqlikni baholash davrida belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan davriy qayta baholash tartib-taomilidir.

Inspeksiya nazorati Milliy akkreditatsiya organi, muvofiqlik sertifikatini bergan sertifikatlashtirish organlari yoki inspeksiya organlari tomonidan amalga oshiriladi. Inspeksiya nazorati natijalariga ko‘ra muvofiqlik sertifikatini yoki akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomani tasdiqlash, uning amal qilishini to‘xtatib turish, tugatish yoxud sertifikatni yoki guvohnomani bekor qilish to‘g‘risida belgilangan tartibda qaror qabul qilinishi mumkin [5].

Sertifikatlashtirish, yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiya, mahsulot sinovi, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya xulosalari yoki ekologik ekspertiza qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi [5].

“Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi qonunning 13-moddasiga ko‘ra muvofiqlikni baholash qoidalari va tartib-taomili muvofiqlikni baholash sohasidagi tashkiliy hamda texnik talablarni, ishlarni bajarish va rasmiylashtirish tartibini, usullarini o‘z ichiga oladi. Muvofiqlikni baholashga doir barcha ishlar akkreditatsiya faoliyatini olib boruvchi tashkilotning xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Muvofiqlikni baholashga doir ishlarga sifat bo‘yicha ekspert-auditorlar va (yoki) tegishli tarmoqlarning muvofiqlikni baholash sohasida ishlarni tashkil etishga, ushbu sohadagi jarayonga yoki faoliyatga taalluqli maxsus bilim va tajribaga ega bo‘lgan texnik ekspertlar jalb qilinishi mumkin [5].

## 6.2. Akkreditatsiya uchun taqdim etiladigan hujjatlar

Masulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlar, shuningdek metrologik ishlar va xizmatlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda va me’yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiqligini baholash va tasdiqlash borasida o‘zining malakali ekanligini e’tirof etish to‘g‘risidagi ariza bilan «Akkreditatsiya markazi» DKga murojaat qilgan talabgor akkreditatsiya qilinadi.

Mahsulotlar, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlarni, sertifikatlashtirish organi, sertifikatlash bo‘yicha inspeksiya organi va yukni ortishdan oldin va(yoki) yukni tushirish vaqtida inspeksiyani o‘tkazish bo‘yicha inspeksiya organining rahbari sifat bo‘yicha ekspert-auditor tomonidan attestatsiyadan o‘tkazilgan bo‘lishi kerak.

Sinov va o‘lchov laboratoriyalarini (markazlarini) va metrologik xizmatni akkreditlashtirsh uchun quyidagilarning mavjud bo‘lishi qo‘shimcha shartlar hisoblanadi:

a) sinov va (yoki) o‘lchov usullarini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me’yoriyhujjatlar;

b) texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me’yoriyhujjatlarning tegishli talablariga muvofiq bo‘lgan ishlab chiqarish binolari va atrof-muhit sharoitlari;

c) akkreditatsiya qilishning ko‘rsatilgan sohasiga muvofiq sinov va (yoki) o‘lchovlarni o‘tkazishni ta’minlovchi sinov vositalari va (yoki) o‘lchov vositalari.

Agar sinov va o‘lchov laboratoriyalari (markazlari) uda uchinchi tomon maqomi mavjud bol‘sa, ular mustaqil organ sifatida akkreditatsiya qilinishi mumkin.

Ariza beruvchilarni akkreditatsiya qilish *«Muvofiqlikni baholash organlarini va metrologik xizmatlarni akkreditatsiya qilish hamda inspeksiya nazoratini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"*ga keltirilgan 1-ilovadagi akkreditatsiya qilish sxemasi bo'yicha amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

a) akkreditatsiya qilishga buyurtmanoma berish;

b) taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlarning butligini va to'liqligini tahlil qilish hamda akkreditatsiya qilish ishlarini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish yoki taqdim etilgan hujjatlarni puxtalashtirish uchun qaytarish, ekspertiza dalolatnomasini rasmiylashtirilgan holda taqdim etilgan hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish;

c) akkreditatsiya obyektini baholash, baholash dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda akkreditatsiya obyektini baholash uchun komissiya tuzish;

d) akkreditatsiya obyektini baholash natijalarini va tuzatish ishlari (baholashda nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda) samaradorligini tahlil qilish Milliy akkreditatsiya organi tomonidan ariza beruvchini akkreditatsiya qilish yoki Akkreditatsiya qilish kengashi tavsiyalarini hisobga olgan holda akkreditatsiya qilishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish;

e) akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani rasmiylashtirish, ro'yxatdan o'tkazish va berish.

Akkreditatsiya qilishning har bir navbatdagi bosqichi oldingi bosqichning natijalari ijobiy bo'lgan taqdirda bajariladi.

Mahsulotlar, menejment tizimlari, xodimlarni va sertifikatlashtirish bo'yicha inspeksiya organini sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditatsiya qilish organiga beriladigan buyurtmanomaga quyidagilar ilova qilinadi:

- akkreditatsiya qilinishi so'ralayotgan akkreditatsiya sohasini aniqlovchi muvofiqlikni baholash obyektlari ro'yxati;

- sifat menejmenti tizimi tartib-taomillari va muvofiqlikni tasdiqlash bo'yicha ishlarni bajarish qoidalaridan iborat bo'lgan sifat bo'yicha qo'llanma;

- xodimlar va sifat bo‘yicha ekspert-auditorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Sinov va (yoki) o‘lchov laboratoriyalarini (markazlarini) va (yoki) metrologik xizmatni akkreditatsiya qilish uchun buyurtmanomaga quyidagi hujjatlar va ma’lumotlar ilova qilinadi:

- akkreditatsiya sohasini belgilovchi akkreditatsiya qilish so‘ralayotgan sinovlar usullari (metodikalari) va (yoki) o‘lchovlar turlari ro‘yxati;
- sinov va (yoki) o‘lchov laboratoriyasi (markazi)ning va (yoki) metrologik xizmatning pasporti;
- sifat menejmenti tizimi tartib-taomillaridan iborat bo‘lgan sifat bo‘yicha qo‘llanmalar.

Yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiyani o‘tkazuvchi inspeksiya organini akkreditatsiya qilish uchun buyurtmanomaga quyidagi hujjatlar va ma’lumotlar ilova qilinadi:

- akkreditatsiya sohasini aniqlovchi muvofiqlikni baholash obyektlarini akkreditatsiya qilishning so‘ralayotgan obyektlari ro‘yxati;
- muvofiqlikni tasdiqlash ishlarini va sifat menejmenti tizimi tartib-taomillaridan iborat bo‘lgan sifat bo‘yicha qo‘llanmalar;
- xodimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- yukni ortishdan oldin yoki yukni tushirish vaqtida ariza beruvchi ular bilan birga ishlashni mo‘ljallayotgan muvofiqlikni baholash organlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Ariza beruvchi o‘z hohishiga ko‘ra akkreditatsiya qilish obyektiga taalluqli qo‘shimcha hujjatlar va ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin.

## 6.3. Hujjatlarning ekpertizdan o‘tkazilishi

Akrreditatsiya qilish ishlarini o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda «Akkreditatsiya markazi» DK ekspertiza bo‘yicha xizmatlar uchun to‘lov amalga oshirilgan kundan boshlab 20 ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddatda taqdim etilgan hujjatlarning ekspertizadan o‘tkazilishini ta’minlaydi. Ekspertiza natijalari xulosa bilan rasmiylashtiriladi.

Ekspertiza «Akkreditatsiya markazi» DK mutaxassislari tomonidan yoki uning topshirig‘i bo‘yicha boshqa vakolatli tashkilotlarning sifat bo‘yicha ekspert-auditori tomonidan amalga oshiriladi. Ekspertiza boshqa vakolatli tashkilotlarning sifat bo‘yicha ekspert-auditori tomonidan o‘tkazilgan taqdirda to‘lov ariza beruvchi tomonidan ushbu tashkilotga o‘tkaziladi

Agar ekspertiza natijalari salbiy bo‘lsa, u holda «Akkreditatsiya markazi» DK 3 ish kuni mobaynida ariza beruvchiga uning akkreditatsiya qilish shartlariga nomuvofiqligi to‘g‘risida bildirishnoma yuboradi. Bildirishnomada asoslangan akkreditatsiya qilish shartlariga nomuvofiqligi isbotlovchi sabablarini ko‘rsatiladi.Ariza beruvchi ko‘rsatilgan nomuvofiqliklarni 20 ish kuni mobaynida bartaraf etish va hujjatlarni takroriy ko‘rib chiqish uchun taqdim etish imkoniyatiga egadirlar.

«Akkreditatsiya markazi» DK bildirishnomasida ko‘rsatilgan nomuvofiqliklar ariza beruvchi tomonidan bartaraf etilgan taqdirda hujjatlarni takroriy ko‘rib chiqish nomuvofiqliklarning bartaraf etilganini tasdiqlovchi hujjatlar ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan kundan boshlab 10 ish kunidan oshmaydigan muddatda amalga oshiriladi. Buyurtmanoma takroriy ko‘rib chiqilganligi uchun to‘lov undirilmaydi.

Takroriy ekspertiza «Akkreditatsiya markazi» DK yoki dastlabki ekspertizani o‘tkazgan boshqa vakolatli tashkilotlarning sifat bo‘yicha ekspert-auditori tomonidan o‘tkaziladi.

Takroriy ekspertiza natijasi salbiy bo‘lgan taqdirda «Akkreditatsiya markazi» DK ariza beruvchini uning akkreditatsiya qilish shartlariga nomuvofiqligi sababli akkreditatsiya qilishning rad etilgani to‘g‘risida 3 ish kuni mobaynida xabardor qiladi.

Ekspertizaning ijobiy natijalari bo‘yicha «Akkreditatsiya markazi» DK akkreditatsiya qilish obyektining muvofiqligini baholash uchun maxsus komissiya tuzadi (10 ish kuni mobaynida).

Komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- obyektning haqiqiy holatini o‘rganish:

- obyektning buyurtmanomada taqdim etilgan hujjatlarga, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me’yoriy hujjatlar talablariga va akkreditatsiya qilishning belgilangan shartlariga muvofiqligini aniqlash;
- obyektning ko‘rsatilgan funksiyalarni bajarishga qodirligini baholash.

Komissiya «Akkreditatsiya markazi» DK rahbarining buyrug‘i bilan tayinlanadi. Buyruqda komissiyaning tarkibi, akkreditatsiya qilish obyektining muvofiqligini baholashning maqsadi, sanasi, muddati va joyi ko‘rsatiladi. Komissiya raisi sifat bo‘yicha ekspertlar-auditorlar orasidan tayinlanadi.

Komissiyani tuzishda komissiya tarkibiga kiritiladigan shaxslarning xolisona baholashni o‘tkazish uchun zarur bo‘ladigan layoqati, bilimlari va ko‘nikmalari hisobga olinadi.

Zarur bo‘lgan taqdirda komissiyaga texnik ekspertlar jalb etilishi mumkin. Texnik ekspertlar sifat bo‘yicha ekspert-auditor rahbarligida ishlashi kerak.

Komissiya ishlarining davom etishi 20 ish kunidan oshmasligi kerak. Akkreditatsiya qilish obyektining muvofiqligini baholash natijalari *«Muvofiqlikni baholash organlarini va metrologik xizmatlarni akkreditatsiya qilish hamda inspeksiya nazoratini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”*ning 3-ilovasiga muvofiq baholash dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi (4-ilovaga qarang).

## 6.4. Muvofiqlikni baholash natijalarini tan olish

O‘zbekiston Respublikasining “Muvofiqlikni baholashto‘g‘risda”gi qonunning 14-moddasi “Muvofiqlikni baholash natijalarini tan olish” deb nomlangan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida o‘tkazilgan muvofiqlikni baholash natijalarini O‘zbekiston Respublikasida tan olish O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari hisobga olingan holda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.

Muvofiqlikni tasdiqlash natijalarini tan olishning mazmuni umumiy natijalarga aloqadorlik, nafaqat sinovga (sinov bo‘yicha kelishuv) yoki faqat nazoratga (nazorat bo‘yicha kelishuv) sifatida tan olish mumkin.

Tan olish bo‘yicha kelishuv xalqaro, hududiy va milliy darajalarda bo‘lishi mumkin. Bir tomonlama kelishuv bir tomon ishlarining natijalarini ko‘p tomonli qabul qilishdan iborat bo‘ladi. Ikki tomonlama kelishuv mazmuni, o‘zaro tan olish bo‘yicha kelishuv bo‘lib, u har bir tomon ishlari natijalarini boshqa tomonlar qabul qilinishini qamrab oladi. Ko‘p tomonlama kelishuv bu ishlar natijalarini ikki tomondan ko‘proq o‘zaro tan olish to‘g‘risidagi kelishishdir. Bunga standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va Akkreditatsiya bo‘yicha Yevroosiyo doirasida davlatlararo kengashi 1992 yilda mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarining hukumatlari Kelishuv qabul qilishdi.

Ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarining parametrlarini sifat va xavfsizlik nuqtai nazardan nazorat qilish orqali tayyor mahsulotning sifati va xavfsizligi ta’minlanadi. Buni asoslash va iste’mochilarga taqdim etishda ushbu mahsulotlar uchun texnik reglamentlar va tegishli talablarni o‘rnatish muhim o‘rin tutadi.

**O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida amalga oshirilgan muvofiqlikni baholash natijalarini O‘zbekiston Respublikasida e’tirof etish tartibi to‘g‘risida Nizom.** “O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida amalga oshirilgan muvofiqlikni baholash natijalarini O‘zbekiston Respublikasida e’tirof etish tartibi to‘g‘risida Nizom” O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida amalga oshirilgan hamda xorijiy mamlakatlarning muvofiqlikni baholash organlari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlarini, muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni, sinovlar protokollarini va metrologik nazorat natijalarini (turini tasdiqlash, tekshirish, metrologik attestatsiyadan o‘tkazish va o‘lchov maqsadidagi sinovlar natijalarini), o‘lchov vositalarini, sinov vositalarini, moddalar va materiallarning tarkibi va xossalarining standart namunalarini (keyingi o‘rinlarda standart namunalar deb ataladi), shuningdek o‘lchovlarni bajarish metodikalarini e’tirof etish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasiga import qilinadigan mahsulotlar, o‘lchov vositalari, sinov vositalari va standartlar namunalariga, shuningdek davlat metrologik nazoratini tatbiq etish sohasida qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘lchovlarni bajarish metodikasiga tatbiq etiladi.

Muvofiqlik sertifikatlarini, muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni, sinov protokollarini va metrologik nazorat natijalarini e’tirof etish import qiluvchilar uchun qulay sharoitlar yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish va savdodagi texnik to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida amalga oshiriladi.

Muvofiqlik sertifikatlarini, muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni va sinov protokollarini e’tirof etishni «O‘zstandart» agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlari (keyingi o‘rinlarda sertifikatlashtirish organlari deb ataladi) belgilangan tartibda amalga oshiradi.

*O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida berilgan muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalar va sinov protokollari quyidagi holatlarda e’tirof etiladi:*

- muvofiqlik sertifikatlarini, muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni va sinov protokollarini o‘zaro e’tirof etish to‘g‘risida xalqaro bitim mavjud bo‘lganda;
- ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan hamda ushbu Nizomga 1-ilovada (10.1-jadvalga qarang) ko‘rsatilgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan texnologik asbob-uskunalarni va ularning qismlarini olib kirishda;
- olib kirilayotgan mahsulotlarning sertifikatlashtirish sinovlarini o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyasi mavjud bo‘lmaganda.

*10.1-jadval*

*Muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalari va sinovlar protokollari O‘zbekiston Respublikasida e’tirof etiladigan davlatlar ro‘yxati*

| T/p | Davlatlarning nomi | | |
|---|---|---|---|
| 1. | Avstriya | 26. | Niderlandiya |
| 2. | Ozarboyjon | 27. | Yangi Zelandiya |
| 3. | Avstraliya | 28. | Norvegiya |
| 4. | Argentina | 29. | BirlashganArabAmirligi |
| 5. | Belgiya | 30. | Polsha |
| 6. | Belorus | 31. | Potugaliya |
| 7. | Braziliya | 32. | Rossiya Federatsiyasi |
| 8. | Buyuk Britaniya | 33. | Ruminiya |
| 9. | Vengriya | 34. | Singapur |
| 10. | Vetnam | 35. | Slovakiya |
| 11. | Germaniya | 36. | Sloveniya |
| 12. | Gongkong | 37. | AQSh |
| 13. | Gretsiya | 38. | Tayvan |
| 14. | Daniya | 39. | Turkiya |
| 15. | Isroil | 40. | Ukraina |
| 16. | Hindiston | 41. | Finlandiya |
| 17. | Indoneziya | 42. | Fransiya |
| 18. | Irlandiya | 43. | Xorvatiya |
| 19. | Ispaniya | 44. | Chexiya |
| 20. | Italiya | 45. | Chili |
| 21. | Kanada | 46. | Shvetsariya |
| 22. | Xitoy Xalq Respublikasi | 47. | Shvetsiya |
| 23. | Lyuksemburg | 48. | JanubiyAfrikaRespublikasi |
| 24. | Malayziya | 49. | Janubiy Koreya |
| 25. | Meksika | 50. | Yaponiya |

O‘lchov vositalarini, sinov vositalarini va standart namunalarni (shu jumladan texnologik asbob-uskunalar komplektiga kiradiganlarni), muvofiqlik sertifikatlarini va muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni

e’tirof etish faqat o‘lchov vositalarining davlat reestriga kiritilgan o‘lchov vositalari, sinov vositalari va standart namunalar uchun amalga oshiriladi.

Muvofiqlik sertifikatlarini va muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni e’tirof etish ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

*2-ilova*

*O‘zbekistonRespublikasidantashqaridaberilganmuvofiqliksertifikatlarini, muvofiqlikto‘g‘risidagideklaratsiyalarinie’tirofetishsxemasi*

| Bosqich | Sub’yektlar | Tadbirlar | Bajarish |
|---|---|---|---|
| 1-bosqich | Muvofiqlik sertifikati yoki muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiya e’tirof etilishiga talabgorlik qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs – Ariza beruvchi | 1. Muvofiqlik sertifikati yoki muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiya e’tirof etish uchun zarur bo‘lgan tegishli hujjatlarni tayyorlaydi.<br>2. Zarur hujjatlar ilova qilingan muvofiqlik sertifikatini yoki muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyani e’tirof etishga buyurtmanomani bevosita, pochta aloqasi vositalari yoki electron shaklda sertifikatlash organiga taqdim etadi. | Ariza beruvchi-ning hohishiga ko‘ra |
| 2-bosqich | Sertifikatsi-yalash organi | Buyurtmanomani ko‘rib chiqadi, taqdim etilgan hujjatlarni tahlil qiladi, ularning to’liqligi va ishonchliligini tekshiradi, shuningdek mahsulotni identifikatsiyalaydi. | 2 ish kunidan ortiq emas (tez buziladigan mahsulotlar uchun 1 ish kuni) |
| 3-bosqich | Sertifikat-siyalash organi | Ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar tahlili natijalari va mahsulotni identifikat-siyalash natijalari asosida;<br>muvofiqlik sertifikati yoki muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyani e’tirof etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi va muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtiradi;<br>qo‘shimcha sinovlar o‘tkazish zarurligi to’g‘risida qaror qabul qiladi;<br>rad etish sabablarini asosli bayon qilgan holda rad etish to‘g’risida qaror qabul qiladi. | 1 ish kuni mobaynida |

Muvofiqlik sertifikatini yoki muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyani e’tirof etish uchun buyurtmanomaga quyidagilar ilova qilinadi:

- e’tirof etilayotgan hujjatning asl nusxasi yoki uning tasdiqlangan nusxasi (sertifikatning nusxasi notarius tomonidan tasdiqlanishi yoxud sertifikatning asl nusxasini saqlovchining, ishlab chiqaruvchining rasmiy vakilining yoki sertifikatni bergan organning muhri bilan tasdiqlanishi mumkin);
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi mahsulotga me’yoriy hujjatning nusxasi (agar me’yoriy hujjat xalqaro va (yoki) davlatlararo standartlar toifasiga kirmasa yoki me’yoriy hujjatlarning davlat fondida mavjud bo‘lmasa);
- vakolatli organ tomonidan berilgan o‘lchov vositalarining turini tasdiqlash sertifikatining nusxasi, o‘lchov vositalariturning tavsifi bilan birgalikda (sertifikatlashtirilgan mahsulot o‘lchov vositasi hisoblanganda yoki sertifikatlashtirilgan mahsulot tarkibida o‘lchov vositalari mavjud bo‘lganda);
- O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qiladigan me’yoriy hujjatda sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya talablari yoki sertifikatda yoxud deklaratsiyada ko‘rsatilgan mahsulotga nisbatan talablar mavjud bo‘lganda sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya xulosalarining yoki ekologiya ekspertizasi xulosasining nusxasi (e’tirof etilayotgan hujjatda ekspertizalarning ushbu turlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi axborot mavjud bo‘lmaganda);
- Mahsulotga ilova qilinadigan hujjatning nusxasi, unda mahsulotning O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga yetib kelishi to‘g‘risidagi belgi qo‘yiladi (transport yuk xati, invoys, schyot-faktura).

Muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyani e’tirof etish uchun buyurtmanomaga ishlab chiqaruvchi tashkilotda barqaror sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun shart-sharoitlarning mavjudligini tasdiqlaydigan quyidagi hujjatlar qo‘shimcha ravishda ilova qilinadi:

- Sinovlarni o‘tkazishning davriyligiga rioya etishning tasdiqnomasi bilan birgalikda zavodda yoki akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalarida mahsulotni sinashning oxirgi protokollari nusxasi;

- xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlarni sinash protokollari;
- mahsulot ishlab chiqaruvchining sifat menejmenti tizimiga sertifikat.

Sertifikatlashtirish organi 2 ish kun mobaynida, tez buziladigan mahsulotlar uchun - 1 ish kuni mobaynida buyurtmanomani ko‘rib chiqadi, taqdim etilgan hujjatlarning to‘liqligini va ularni to‘ldirishning to‘g‘riligini tahlil qiladi, shuningdek mahsulotning tovarga qo‘shib yuborilgan hujjatlarining spetsifikatsiyasi va markirovkasining muvofiqligini tasdiqlash uchun yetarli bo‘lgan belgilari, parametrlari, ko‘rsatkichlari bo‘yicha mahsulotni identifikatsiyalashni amalga oshiradi.

E’tirof etilayotgan hujjatda sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya xulosalari yoki ekologik ekspertizani o‘tkazish to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lgan taqdirda qo‘shimcha ravishda sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya sinovlarini va ekologik ekspertizalarni o‘tkazish talab qilinmaydi.

Hujjatlarni tahlil qilish va mahsulotni identifikatsiyalash natijalari bo‘yicha sertifikatlashtirish organi 1 ish kuni mobaynida muvofiqlik sertifikatini, muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyani e‘tirof etish, qo‘shimcha sinovlar o‘tkazishning zarurligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi yoki e’tirof etishni rad etishning rasman asoslangan hujjatini beradi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida berilgan muvofiqlik sertifikatini yoki muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyani e’tirof etish uni O‘zbekiston Respublikasining muvofiqlik sertifikati yuzasidan qayta rasmiylashtirish va sertifikatlashtirilgan mahsulotlarning davlat reestriga kiritish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

*O'zbekiston Respublikasidan tashqarida amalga oshirilgan muvofiqlikni baholash natijalarini O'zbekiston Respublikasida e'tirof etish tartibi to'g'risidagi nizomga*
***4-ILOVA***

Sertifikatlashtirish organi rahbariga _____________________

**Muvofiqlikto'g'risidagideklaratsiyanie'tirofetishga**
**ARIZA**

_____________________________________________ tomonidan
(ishlab chiqaruvchi tashkilotning nomi, manzili)
tayyorlangan,
______________________________________________talablariga
(unga muvofiqlikka sertifikatlashtirish o'tkazilgan hujjatning belgilanishi, nomi)
muvofiqlikka
___________________________________ da sinovdan o'tkazilgan
(sinov laboratoriyasining nomi, manzili)

_____________________________________________________ga
(mahsulotning nomi, turi, modeli, markasi)

berilgan sertifikatni e'tirof etishingizni iltimos qilamiz.
Muvofiqlik to'g'risidagi
deklaratsiya______________________________________________
________
(sertifikatlash tizimining nomi yoki bitim raqami)
____________qoidalari bo'yicha ___________dan______________
gacha muddatga
_______________________________________________________
_______________________________________________________
(muvofiqlikto'g'risidagideklaratsiyaniro'yxatdano'tkazgantashkilot, firmaningakkreditatsiyaqilinganorganinomi, manzili)
___________________________ tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan.
Qo'shimcha ma'lumotlar
_______________________________________________________
(sifat tizimiga muvofiqlik sertifikati va shu kabilar)

Arizaga: _____________________________________________

(hujjatlar va materiallar ro‘yxati)

larni ilova qilamiz

Arizaberuvchiningnomi, manzilivaSTIR
________________________________________________

Arizaberuvchiningtelefoni/faksi_________________________
________________________________________________

Ijro etuvchi xodimning F.I.O., lavozimi va telefoni

__________ __________________ ____________________

(rahbar vakolatbergan shaxs) (imzo) (F.I.SH.)

M.O‘. 20___ yil «____» _______________

## 6.5. Muvofiqlikni baholash sohasini davlat tomonidan tartibga solish

Muvofiqlikni baholash sohasini davlat tomonidan tartibga solish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston standartlash-tirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi hamda boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi [5]. Muvofiqlikni baholash sohasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqa organlar o‘ziga xos vakolat-larga, majburiyatlarga ega va ushbu sohada tegishli vazifalarni amalga oshiradilar.

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining muvofiqlikni baholash sohasidagi vakolatlari:*

- muvofiqlikni baholash sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlaydi;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining muvofiqlikni baholash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

- O‘zbekiston Respublikasida muvofiqligi tasdiqlanishi shart bo‘lgan muvofiqlikni baholash obyektlari ro‘yxatini tasdiqlaydi;
- Milliy akkreditatsiya organi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlaydi;
- O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida o‘tkazilgan muvofiqlikni baholash natijalarining O‘zbekiston Respublikasida tan olinishi tartibini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin [5].

*O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining, O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasining, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining, boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining muvofiqlikni baholash sohasidagi vakolatlari:*

O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari o‘z vakolatlari doirasida:

- muvofiqlikni baholash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;
- muvofiqlikni baholash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni, shuningdek normativ hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;
- O‘zbekiston Respublikasida muvofiqligi tasdiqlanishi shart bo‘lgan muvofiqlikni baholash obyektlari ro‘yxatiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishga doir takliflar ishlab chiqadi;
- O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida o‘tkazilgan muvofiqlikni baholash natijalarini O‘zbekiston Respublikasida tan olish zarurligi to‘g‘risida belgilangan tartibda takliflar kiritadi;
- muvofiqlikni baholash sohasi uchun mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda ishtirok etadi.

O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston

Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin [5].

*Muvofiqlikni baholash organlari quyidagi huquqlarga egadirlar:*

- akkreditatsiyaning belgilangan sohasida sertifikatlashtirishni amalga oshirish;
- muvofiqlik sertifikatlari berish;
- o‘zi bergan muvofiqlik sertifikatlarining yoki muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyani ro‘yxatdan o‘tkazishning amal qilishini belgilangan tartibda to‘xtatib turish yoxud muvofiqlik sertifikatlarini yoki muvofiqlik haqidagi deklaratsiyani ro‘yxatdan o‘tkazishni bekor qilish;
- akkreditatsiyaning belgilangan sohasida mahsulot sinovini o‘tkazish, o‘lchov va sinov vositalarini tekshirish yoki kalibrlash;
- akkreditatsiyaning belgilangan sohasida mahsulot sinovlariga oid bayonnomalarni, o‘lchov va sinov vositalarini tekshirish yoki kalibrlash to‘g‘risidagi bayonnomalarni berish;
- milliy akkreditatsiya tizimi belgisini qo‘llash huquqiga ega.

Muvofiqlikni baholash organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin [5].

*Muvofiqlikni baholash sohasida faoliyat yuritadigan organlarining majburiyatlariga quyidagilar kiradi:*

- normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan talablarni bajarishi;
- manfaatdor shaxsga sertifikatlashtirish, muvofiqlikni deklaratsiyalash, inspeksiya nazorati, yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiya, mahsulot sinovlari, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya xulosalari yoki ekologik ekspertiza qoidalari va tartib-taomili to‘g‘risida axborot taqdim etishi;
- muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazishni amalga oshirishi;
- o‘zi bergan muvofiqlik sertifikatlarining, mahsulot sinovlariga oid bayonnomalarning, o‘lchov va sinov vositalarini tekshirish yoki kalibrlash

to‘g‘risidagi bayonnomalarning, shuningdek ro‘yxatdan o‘tkazilgan muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalarning hisobini yuritishi;

- o‘zi bergan muvofiqlik sertifikatlari va ro‘yxatdan o‘tkazilgan muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalar, ularga o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar kiritish, ularning amal qilishini to‘xtatib turish, shuningdek ularni bekor qilish to‘g‘risida Milliy sertifikatlashtirish organini xabardor qilishi;
- mahsulot sinovlari, o‘lchov va sinov vositalarini tekshirish yoki kalibrlashning belgilangan qoidalari hamda tartib-taomillariga rioya etishi;
- mahsulot sinovlari, o‘lchov va sinov vositalarini tekshirish yoki kalibrlash natijalarining to‘g‘riligini ta’minlashi;
- akkreditatsiya bilan bog‘liq xarajatlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to‘lashi shart.

Muvofiqlikni baholash organlari zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin [5].

**VI bobni takrorlash uchun savollar:**

1. Sinov va o‘lchov laboratoriyalarini (markazlarini) va metrologik xizmatni akkreditlashtirsh uchun nimalar qo‘shimcha shartlar hisoblanadi?
2. Ariza beruvchilarni akkreditatsiya qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?
3. Sinov va (yoki) o‘lchov laboratoriyalarini (markazlarini) va (yoki) metrologik xizmatni akkreditatsiya qilish uchun buyurtmanomaga qandayhujjatlar ilova qilinadi?
4. Yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiyani o‘tkazuvchi inspeksiya organini akkreditatsiya qilish uchun buyurtmanomaga qandayhujjatlar va ma’lumotlar ilova qilinadi?
5. Akrreditatsiya qilishga doir hujjatlarning ekspertizasi kim tomonidan va qanday tartibda amalga oshiriladi?
6. Hujjatlarning takroriy ekspertizasi qachon va qanday tartibda o‘tkaziladi?
7. Muvofiqlikni tasdiqlash natijalarini tan olish qanday tarzda bo‘lishi mumkin?

8. Tan olish bo‘yicha kelishuv qahday ko‘rinishlarda bo‘ladi?

9. “O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida amalga oshirilgan muvofiqlikni baholash natijalarini O‘zbekiston Respublikasida e’tirof etish tartibi to‘g‘risida Nizom” haqida ma’lumot bering.

10. O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida berilgan muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalar va sinov protokollari qnaday holatlarda e’tirof etiladi?

11. Muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni e’tirof etish qanday tarzda amalga oshiriladi?

12. Muvofiqlik sertifikatini yoki muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyani e’tirof etish uchun buyurtmanomaga nimalar ilova qilinadi?

13. Muvofiqlikni baholash sohasida qaysi organlar faoliyat yuritishi mumkin?

14. Muvofiqlikni baholash sohasida O‘zbekiston Respublikasi Vaziralar Mahkamasi qanday vazifalarni bajaradi?

15. O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining muvofiqlikni baholash sohasidagi vazifalarini va vakolatlarini aytib bering.

# VII-BOB.
# AKKREDITATSIYA SHARTLARI. AKKREDITATSIYA TO‘G‘RISIDAGI GUVOHNOMA

## 7.1. Milliy akkreditatsiya organi

O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O‘zstandart" agentligi) - O‘zbekiston Respublikasining akkreditatsiya bo‘yicha Milliyorgani hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o‘tkazish sohasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019 yil 24 apreldagi 349-sonli qaroriga asosan O‘zstandart agentligi tuzilmasida muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyada o‘tkazuvchi maxsus vakolatli organ hisoblangan “O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi huzuridagi Akkerditatsiya markazi” DUK tashkil etidi.

*Akkreditatsiya markazining ustuvor vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari:*

- muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o‘tkazishda akkreditatsiya jarayonining betarafligi va xolisligini ta’minlagan holda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik;
- akkreditatsiya bo‘yicha Osiyo-Tinch okeani hamkorligiga (ARAS), Laboratoriyalar akkreditatsiyasi bo‘yicha xalqaro tashkilotga (ILAC) va Akkreditatsiya bo‘yicha xalqaro forumga (IAF) to‘laqonli a’zo sifatida kirish;
- akkreditatsiya milliy tizimini xalqaro normalar va mezonlarga muvofiq doimiy ravishda rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash, ISO/IEC 17011 xalqaro standarti talablariga rioya qilish;
- akkreditatsiya tartib-taomillariga taalluqli zarur axborotni, shu jumladan, o‘zining rasmiy veb-sayti orqali erkin olish imkoniyatini yaratish;
- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida akkreditatsiya bo‘yicha ishlar natijalarining xorijiy mamlakatlar tomonidan e’tirof etilishini ta’minlash yuzasidan zarur choralar ko‘rish;

- akkreditatsiyadan o‘tkazilgan tashkilotlar va ularning akkreditatsiya sohasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasining shakllantirilishi va dolzarb holatda saqlanishini, shuningdek, tegishli axborotning maxfiyligiga rioya qilgan holda jamoatchilikning ulardan foydalanishini ta’minlash.

*Akkreditatsiya markazigaberilganhuquqlar:*

- akkreditatsiya sohasida idoralararo xususiyatga ega, shu jumladan, xorijda akkreditatsiya ishlari natijalari e’tirof etilishini ta’minlashga qaratilgan xalqaro shartnomalarni belgilangan tartibda tuzish;
- ISO/IEC 17000 xalqaro standartlariga, shuningdek, Akkreditatsiya bo‘yicha Osiyo-Tinch okeani hamkorligi (ARAS), Laboratoriyalar akkreditatsiyasi bo‘yicha xalqaro tashkilot (ILAC) va Akkreditatsiya bo‘yicha xalqaro forum (IAF) talablari va tavsiyalariga muvofiq akkreditatsiya tartibotlari bo‘yicha qoidalar, yo‘riqnomalar va nizomlar ishlab chiqish va tasdiqlash;
- treninglar, seminarlar o‘tkazish va baholovchilar, texnik ekspertlar, shuningdek, muvofiqlikni baholash sohasida ishtirok etuvchi mutaxassislar malakasini baholash;
- o‘z xizmat vazifalarini vijdonan va samarali bajaryotgan xodimlarga o‘z mablag‘lari hisobidan lavozim maoshining ikki baravari miqdorigacha bo‘lgan miqdorda har oylik ustamalar to‘lash;
- eng yaxshi amaliyotlarga muvofiq vazifalarni sifatli bajarish maqsadida mustaqil maslahatchilar va ekspertlarni, shu jumladan xorijiy maslahatchilar va ekspertlarni shartnoma asosida jalb qilish;
- Akkreditatsiya markazining tuzilmasini, xodimlarining shtatdagi soni va ish haqi miqdorlarini mustaqil tasdiqlash.

Akkreditatsiya milliy tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini belgilab berishi va Akkreditatsiya markazi ushbu yo‘nalishlarga erishishi yuzasidan monitoring olib borushi uchun Akkreditatsiya markazi, O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar, nodavlat tashkilotlar vakillari, tadbirkorlik subyektlari va jismoniy shaxslar ishtirokida akkreditatsiya bo‘yicha kengashi tashkil etildi

O‘zbekiston Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish va inspeksiya nazorati o‘tkazish bo‘yicha vazifalar, sinov va kalibrlash laboratoriyalari, shuningdek, ilgari berilgan akkreditatsiya guvohnomalari to‘g‘risidagi markazlashtirilgan ma’lumotlar bazasi va materiallari “Akkreditatsiyamarkazi”ga o‘tkazildi.

**O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining muvofiqlikni baholash sohasidagi vazifalari va huquqlari.** O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O‘zstandart" agentligi) standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi vazifalarni hal qilish uchun maxsus vakolat berilgan va tan olingan O‘zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv organi hisoblanadi. “O‘zstandart” agentligi o‘z faoliyatini amaldagi qonunchilikka ko‘ra bevosita va quyi tizim tashkilotlari orqali amalga oshiradi.

Quyidagilar "O‘zstandart" agentligining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”, "Standartlashtirish to‘g‘risida", "Metrologiya to‘g‘risida", "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari amalda ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash;
- standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, xalqaro standartlarni, shu jumladan sifatni boshqarish tizimi bo‘yicha xalqaro standartlarni qo‘llash asosida mahsulotlar sifatini va ularning raqobatbardoshliligini oshirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- standartlashtirish, o‘lchovlar yagonaligi, sertifikatlashtirish tizimlari faoliyat ko‘rsatishini va rivojlantirilishini, ushbu sohalardagi ilmiy-texnika axborotini akkreditatsiya qilish va tarqatishni, shuningdek ularning xalqaro, davlatlararo tizimlar va xorijiy mamlakatlarning milliy tizimlari bilan uyg‘unlashtirilishini ta’minlash;
- mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi va sifati, o‘lchovlar ishonchsiz natijalarining salbiy oqibatlaridan muhofaza qilish talablariga

rioya etilishi yuzasidan iste’molchilar huquqlari himoya qilinishini ta’minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini tashkil etish.

***"O‘zstandart" agentligi o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:***

*a) “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”, "Standartlashtirish to‘g‘risida", "Metrologiya to‘g‘risida", "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari hamda standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish sohasidagi boshqa qonun hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlarning amalda ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash borasida:*

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan kiritilgan texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturi loyihalari bo‘yicha umumlashgan takliflar kiritadi;
- o‘z vakolati doirasida, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining umumiy va maxsus reglamentlarni ishlab chiqish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi va tashkil etadi;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga umumiy texnik reglamentlarni tasdiqlash, ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ushbu reglamentlarni bekor qilish to‘g‘risida takliflar kiritadi;
- o‘z vakolati doirasida umumiy va maxsus texnik reglamentlarga rioya qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasida normativ hujjatlar davlat fondini shakllantiradi;
- mahsulotlarga va ularga o‘zgartirishlarga standartlarni, shuningdek standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish bo‘yicha normalar va qoidalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazadi va b.

*b) standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, xalqaro standartlarni, shu jumladan sifatni boshqarish tizimi bo‘yicha xalqaro standartlarni qo‘llash asosida mahsulotlar sifatini va*

*raqobatbardoshliligini oshirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish borasida:*

- standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, akkreditatsiya qilish va mahsulotlar sifatini boshqarish tizimini joriy joriy etish masalalari bo‘yicha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga o‘z vakolatlari doirasida rahbarlik qiladi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- yangi qonun hujjatlarini ishlab chiqish va amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiradi;
- standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirishni rivojlantirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni, konsepsiyalarni, istiqbolli dasturlarni ishlab chiqadi;
- O‘zbekiston Respublikasining milliy etalon bazasini shakllantiradi va rivojlantiradi, milliy etalonlarni xalqaro etalonlar bilan solishtiradi va b.

*c) standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish tizimlari faoliyat ko‘rsatishini va rivojlantirilishini, ushbu sohalardagi ilmiy-texnika axborotini akkreditatsiya qilish va tarqatishni, shuningdek ularning xalqaro, davlatlararo va xorijiy mamlakatlarning milliy tizimlari bilan uyg‘unlashtirilishini ta’minlash borasida:*

- respublikada ishlab chiqariladigan va import bo‘yicha olib kelinayotgan mahsulotlarni sertifikatlashtirish, chet mamlakatlarning sertifikatlashtirish bo‘yicha ishlari natijalarini e’tirof etish ishlarini tashkil etadi;
- o‘z vakolatlari doirasida standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va akrreditatsiya qilish sohasida normativ hujjatlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va ro‘yxatdan o‘tkazadi;
- shtrixli kodlashtirishni joriy etish siyosatini amalga oshiradi va O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan tovarlarning Davlat reestrini yuritadi;
- manfaatdor shaxslarni mahsulotlarni, sinov va o‘lchov usullarini standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish bo‘yicha normativ hujjatlar bilan ta’minlaydi, shuningdek mazkur sohalardagi yutuqlarning ilmiy-texnik targ‘ibotini amalga oshiradi;

- o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida xalqaro, davlatlararo va milliy normativ hujjatlar bo‘yicha ma’lumotlarning yagona axborot bazasini yaratadi va b.

*d) kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini tashkil etish borasida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi ilmiy va muhandis-texnik kadrlarni o‘qitishni amalga oshiradi;*

*e) mahsulotlar, ishlar, xizmatlar xavfsizligi va sifati, o‘lchovlar ishonchsiz natijalarining salbiy oqibatlaridan muhofaza qilish talablariga rioya etilishi yuzasidan iste’molchilar huquqlari himoya qilinishini ta’minlash borasida:*

- o‘z vakolatlari doirasida mahsulot sifati va xavfsizligi bo‘yicha majburiy talablarni belgilaydi hamda ushbu talablarga rioya etilishini nazorat qiladi;
- standartlarga rioya qilish, o‘lchovlar va sertifikatlash qoidalarining yagonaligini ta’minlash masalalari bo‘yicha nazorat organlari bilan o‘zaro hamkorlik qiladi;
- normativ hujjatlar talablariga rioya etilishini, o‘lchovlarning yagonaligi va ishonchliligi, majburiy sertifikatlashtirish qoidalari ta’minlanishini tashkil etadi va bu borada davlat nazoratini amalga oshiradi;
- davlat metrologiya nazoratini amalga oshiradi.

"O‘zstandart" agentligi o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bevosita, shuningdek o‘z hududiy boshqarmalari, o‘ziga qarashli organlar va muassasalar orqali amalga oshiradi.

O‘zstandart agentligining tashkiliy strukturasi quyidagi 7.1-rasmda ifodalangan.




**7.1-rasm. O'zstandart agentligining tashkiliy strukturasi.**

***"O'zstandart" agentligi o'ziga yuklangan vazifalar va funktsiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:***

-standartlashtirish, metrologiya, sinash va sertifikatlashtirish masalalarini hal etish uchun davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, tashkilotlar mutaxassislarini belgilangan tartibda jalb etish;

- qonun hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish hamda belgilangan tartibda kiritish, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish hamda mahsulotlar sifatini boshqarish masalalari bo'yicha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ko'rib chiqish hamda ular yuzasidan xulosalar berish;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasida ekspert komissiyani tashkil etish;

- o'z vakolati doirasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan umumiy va maxsus texnik reglamentlarni ekspertiza qilish;

- o'z vakolati doirasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlash, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ushbu reglamentlarni bekor qilish;

- respublika davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, korxonalar va tashkilotlardan "O‘zstandart" agentligiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar va materiallarni belgilangan tartibda olish;
- Idoralararo kengashda davlat boshqaruv organlari, xo‘jalik birlashmalari, korxonalar va tashkilotlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xorijiy sheriklar bilan birgalikdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining standartlashtirish, metrologiya, mahsulotlarni sinash va sertifikatlashtirish masalalari bo‘yicha axborotlarini tinglash;
- manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda standartlashtirish bo‘yicha tarmoq va tarmoqlararo texnika qo‘mitalari tashkil etishda qatnashish;
- davlat nazorati natijalarini tahlil qilish asosida mahsulotlar sifati va raqobatbardoshliligini oshirish hamda sifat tizimlarini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar kiritish;
- standartlashtirish, metrologiya, respublika iqtisodiyoti uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan mahsulotlarni sinash va sertifikatlashtirish muammolarini ko‘rib chiqish bo‘yicha vaqtinchalik ilmiy-texnika komissiyalari tuzish;
- nazorat qilinayotgan mahsulotlar ko‘rsatkichlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish maqsadida sotish va saqlash korxonalarida nazorat xaridini o‘tkazish yo‘li bilan oziq-ovqat mahsulotlari sifatining davlat nazoratini amalga oshirish;
- Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirishni rivojlantirish maxsus jamg‘armasi mablag‘laridan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan Maxsus jamg‘armani shakllantirish va undan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirishni rivojlantirish uchun foydalanish;
- standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish qoidalari buzilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlik choralarini qo‘llash va b.

## 7.2. Akkreditatsiya qilinish uchun ariza va uning mazmuni

Ariza beruvchilarni akkreditatsiya qilish “Muvofiqlikni baholash organlarini va metrologik xizmatlarni akkreditatsiya qilish hamda inspeksiya nazoratidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom” ga ilova qilingan 1-sxema bo‘yicha amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

a) akkreditatsiya qilishga buyurtmanoma berish;

b) taqdim etilgan hujjatlar va ma’lumotlarning butligini va to‘liqligini tahlil qilish hamda akkreditatsiya qilish ishlarini o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilish yoki taqdim etilgan hujjatlarni puxtalashtirish uchun qaytarish, ekspertiza dalolatnomasini rasmiylashtirilgan holda taqdim etilgan hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazish;

v) akkreditatsiya obyektini baholash, baholash dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda akkreditatsiya obyektini baholash uchun komissiya tuzish;

g) akkreditatsiya obyektini baholash natijalarini va tuzatish ishlari (baholashda nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda) samaradorligini tahlil qilish Milliy akkreditatsiya organi tomonidan ariza beruvchini akkreditatsiya qilish yoki akkreditatsiya qilish kengashi tavsiyalarini hisobga olgan holda akkreditatsiya qilishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

d) akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomani rasmiylashtirish, ro‘yxatdan o‘tkazish va berish.

Muvofiqlikni baholash organlarini va metrologik xizmatlarni akkreditatsiya qilish hamda inspeksiya nazoratini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga 1-ilova muvofiq akkreditatsiya qilish sxemasi quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi.

Akkreditatsiya qilishning har bir navbatdagi bosqichi oldingi bosqichning natijalari ijobiy bo‘lgan taqdirda bajariladi, ya’ni bosqich natijasi salbiy bo‘lsa, u holda keying bosqich amalga oshirilmaydi va jarayon to‘xtatiladi.

| Bosqichlar | Sub'ektlar | Tadbirlar | Bajarish muddati |
|---|---|---|---|
| 1-bosqich | Akkreditatsiya olishga talabgorlik qiluvchi yuridik shaxs – Ariza beruvchi | Akkreditatsiya olishga olish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni tayyorlaydi. Zarur hujjatlar ilova qilingan buyurtmanomani bevosita olinganligi to'g'risida bildirishnoma olingan holda pochta aloqasi vositalari yoki electron shaklda "Akkreditatsiya markazi" ga taqdim etadi. | Ariza beruvchining hohishiga ko'ra |
| 2-bosqich | "Akkreditatsiya markazi" DK | 1.Akkreditatsiya qilishga taqdim etilgan buyurtmanomani va hujjatlarni ko'rib chiqadi hamda:<br>- akkreditatsiya bo'yicha ishlarni bajarish;<br>- hujjatlar but bo'lmaganida ularni puxta ishlash uchun qaytarish to'g'risida qaror qabul qiladi. | 3 ish kuni mobaynida |
| | | 2.Ekspertiz natijalari bo'yicha xulosani rasmiylashtirgan holda hujjatlar komplektini ekspertizdan o'tkazadi. | To'lov to'langan kundan boshlab 20 ish kuni mobaynida. |
| | | 3*.Ekspertizaning natijasi salbiy ariza beruvchining akkreditatsiya shartlariga nomuvofiqligi sabablarini ko'rsatgan holda unga yozma bildirishnoma yuboradi va aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun 20 kundan ortiq bo'lmagan muddat beradi. | 3 ish kuni mobaynida |
| | | 4*. Ekspertiza natijalari bo'yicha belgilangan nomuvofiqliklar bartaraf etilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni takroran ko'rib chiqadi. | Hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 10 ish kuni mobaynida. |
| 3-bosqich | "Akkreditatsiya markazi" DK | 1. Ekspertizaning ijobiy natijalari bo'yicha akkreditatsiya ob'yektini joining o'zida baholash uchun komissiya tuzadi. | 10 ish kuni mobaynida |
| | | 2. Joyning o'zida baholaydi va natijalar bo'yicha baholash dalolatnomasini rasmiylashtiradi. | 20 ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda |







Akkreditatsiya qilish (akkreditatsiya qilish sohasini kengaytirish) ishlari uchun to‘lov ariza beruvchi tomonidan bosqichma-bosqich, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ariza beruvchi, akkreditatsiya qilish natijalaridan qat’iy nazar, akkreditatsiya bo‘yicha ishlarni o‘tkazish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni bosqichma-bosqich tuziladigan shartnomaga muvofiq to‘lashi shart.

Ariza beruvchi Muvofiqlikni baholash organlarini va metrologik xizmatlarni akkreditatsiya qilish hamda inspeksiya nazoratini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga 2-ilovaga muvofiq shakl bo‘yicha akkreditatsiya qilishga buyurtmanomani Milliy akkreditatsiya organiga yuboradi va unga ushbu Nizomning 19-21-bandlarida ko‘rsatilgan hujjatlar va ma’lumotlarni ilova qiladi.

*Muvofiqlikni baholash organlarini va metrologik xizmatlarni akkreditatsiya qilish hamda inspeksiya nazoratini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomga*
*2-ILOVA*

«O'zbekakkreditatsiya» DKrahbariga

___________________________________

**Akkresitatsiyaga (akkreditatsiya sohasini kengaytirishga)**
**BUYURTMANOMA**

1. ______________________________________________________________uni
(ariza beruvchining nomi)

__________________________________________ sifatida akkreditatsiyadan
(akkreditatsiya obyekti)

o'tkazishingizni so'rayman.

2. Manzil, telefon, faks, electron pochta, hisob-kitob raqami, KTUT, STIR _____________________________________________________________

_________________________________________________________________

3. Rahbarning F.I.Sh., telefoni ______________________________________

_________________________________________________________________

4. Mas'ul shaxsning F.I.Sh., telefoni

_________________________________

Akkreditatsiya uchun taqdim etilgan hujjatlar:

1. _______________________________________________________________
2. _______________________________________________________________
3. _______________________________________________________________
4. _______________________________________________________________

To'lov kafolatlanadi.

Ariza beruvchi _____________ ____________________ ____________________
(tashkilotning nomi) (imzo) (F.I.Sh.)

Ariza beruvchi akkreditatsiya qilishga buyurtmanomani, unga zarur hujjatlarni ilova qilgan holda, bevosita, pochta aloqasi vositasi orqali yoki electron shaklda berishi mumkin.

Buyurtmanoma elektron shaklda berilgan taqdirda «Akkreditatsiya markazi» DK hujjatlarning rasmi olingan versiyasini ekspertizaga qabul qiladi, so'ngra ularni akkreditatsiya obyektining muvofiqligi baholanadigan joyga borgan vaqtda asl nusxasi bilan taqqoslaydi. «Akkreditatsiya markazi» DK elektron shakldagi buyurtmanoma olingani to'g'risida ariza beruvchi xabardor qilinishini ta'minlaydi.

Akkreditatsiya qilish organiga beriladigan buyurtmanomaga ilova qilinadigan hujjatlar quyidagi 7.2-, 7.3-, 7.4-rasmlarda ko'rsatilgan.




**7.2-rasm. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha inspeksiya organini sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditatsiya organiga taqdim etiladigan hujjatlar.**




**7.3-rasm. Sinov laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish uchun taqdim etiladigan hujjatlar.**




**7.4-rasm. Yukni tushirish va ortishdan oldin inspeksiyani o'tkazuvchi inspeksiya organini akkreditatsiya qilish uchun taqdim etiladigan hujjatlar.**

## 7.3. Akkreditatsiya qilish shartlari

"Muvofiqlikni baholash organlarini va metrologik xizmatlarni akkreditatsiya qilish hamda inspeksiya nazoratini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"da akkreditatsiya qilish shartlari ko'rsatib berilgan. Akkreditatsiya qilish shartlari umumiy (7.5-rasm) va qo'shimcha shartlarga bo'linadi.




**7.5-rasm. Akkreditatsiya qilishning umumiy shartlari.**

***Quyidagilar akkreditatsiyaning umumiy talablari va shartlari hisoblanadi:***

- akkreditatsiya uchun ariza beruvchilarning vakolati va baholash-ga qo'yilgan talablarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi hujjatlarga majburiy rioya qilish;
- akkreditatsiya obyektlarining normal va samarali faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida (shu jumladan, ijara huquqlari asosida) taalluqli bo'lgan bino va inshootlar, texnik-texnologik hamda apparat-dasturiy vositalar mavjudligi;
- joriy etilgan va amaldagi sifat menejmenti tizimi mavjudligi hamda akkreditatsiya obyekti faoliyatida uning talablariga rioya etish;
- malakasi akkreditatsiya jarayonida Markaz tomonidan baholanadigan va akkreditatsiyaning ariza berilgan sohasida malakali xodimlarning mavjudligi, ularning o'zaro almashinuvchanligini ta'minlash;

- akkreditatsiyaning ariza berilgan sohasiga muvofiq texnik jihatdan tartibga solish sohasida normativ hujjatlarning mavjudligi;

- akkreditatsiya obyektlari tomonidan ushbu Nizomning 9-bobida koʻrsatilgan majburiyatlarga oʻz vaqtida rioya qilish.

Akkreditatsiya qilishda akkreditatsiya sohasidagi xalqaro qoidalar, Akkreditatsiya boʻyicha xalqaro forum talablari (IAF) va Laboratoriyalar akkreditatsiyasi boʻyicha xalqaro tashkilot (ILAC) talablari hisobga olinadi.

***Quyidagilar ariza beruvchini akkreditatsiyadan oʻtkazish uchun qoʻshimcha shartlar hisoblanadi:***

*a) sertifikatlash organi va/yoki sertifikatlash boʻyicha inspeksiya organi sifatida:*

- akkreditatsiya obyektining ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar, ijrochilar va isteʼmolchilardan mustaqilligi;

- baholanayotgan obyektning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatida belgilangan majburiy koʻrsatkichlarining aksariyat qismi aniqlashini taʼminlaydigan, belgilangan tartibda akkreditatsiyadan oʻtkazilgan oʻz sinov laboratoriyasining (markazi) mavjudligi;

- baholanayotgan obyekt majburiy koʻrsatkichlarining yetishmayotgan qismi aniqlashini taʼminlovchi akkreditatsiyadan oʻtkazilgan boshqa sinov laboratoriyalari (markazlari) bilan hamkorlik toʻgʻrisidagi bitimlarning mavjudligi;

*b) yuklarni ortishdan oldin va/yoki tushirish vaqtidagi inspeksiyani oʻtkazish boʻyicha inspeksiya organ sifatida akkreditatsiyaning ariza berilgan sohasida, mahsulotning muvofiqligini baholash uchun tegishli texnika vositalari va asbob uskunalar yoki laboratoriyaning mavjudligi;*

*c) xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlarni sertifikatlash organining baholanayotgan tarafdan mustaqilligi;*

*d) sinov, kalibrlash va tibbiyot laboratoriyalari (markazlar), metrologik xizmatlar sifatida:*

- texnik jihatdan tartibga solish sohasida normativ hujjatlar talablariga muvofiq boʻlgan ishlab chiqarish binolari va atrof-muhit sharoitlarining mavjudligi;

- akkreditatsiyaning ariza berilgan sohasiga muvofiq sinovlar va/yoki o‘lchovlar o‘tkazilishini ta’minlaydigan sinov, o‘lchov vositalari, standart namunalar va sinash asbob-uskunalarining mavjudligi.

***Quyidagilar ariza beruvchini mahsulotni sertifikatlashtirish organi va/yoki sertifikatlashtirish bo‘yicha inspeksiya organi sifatida akkreditatsiya qilish uchun qo‘shimcha shartlar hisoblanadi:***

- akkreditatsiya qilinayotgan obyektning ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar, ijro etuvchilar va iste’molchilardan mustaqilligi;

- shtatida sifat bo‘yicha kamida ikki nafar ekspert-auditorning mavjudligi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatda belgilangan baholanayotgan obyektning asosiy ko‘rsatkichlari aksariyat qismini belgilovchi, o‘zining belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyasining (markazining) mavjudligi;

- baholanayotgan obyekt asosiy ko‘rsatkichlarining etishmayotgan qismini aniqlashni ta’minlovchi akkreditatsiya qilingan o‘zga sinov laboratoriya (markaz)lari bilan hamkorlik qilish to‘g‘risidagi bitimlarning mavjudligi.

***Quyidagilar ariza beruvchini xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlarni sertifikatlashtirish organi sifatida akkreditatsiya qilish uchun qo‘shimcha shartlar hisoblanadi:***

a) baholanayotgan tarafdan mustaqillik;

b) shtatida sifat bo‘yicha kamida ikki nafar ekspert-auditorning mavjudligi.

***Quyidagilar ariza beruvchini yuk ortishdan oldin va/yoki yukni tushirish vaqtidagi inspeksiyani o‘tkazish bo‘yicha inspeksiya organi sifatida akkreditatsiya qilish uchun qo‘shimcha shartlar hisoblanadi:***

a) mahsulotni sertifikatlashtirish organlari va akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari) bilan hamkorlik qilish to‘g‘risidagi bitimlar;

b) mahsulotning muvofiqligini baholash uchun tegishli texnika vositalari va asbob-uskunalar yoki laboratoriyalar;

c) Xalqaro inspeksiya agentliklari federatsiyasining yukni ortishdan oldin inspeksiya o‘tkazishga doir talablariga javob beradigan tashkilotlar bilan bitimlar;

d) Xalqaro inspeksiya agentliklari federatsiyasiga a’zolikni tasdiqlovchi hujjat (O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun) mavjudligi.

Mahsulotlar, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlarni, sertifikatlashtirish organi, sertifikatlash bo‘yicha inspeksiya organi va yukni ortishdan oldin va/yoki yukni tushirish vaqtida inspeksiyani o‘tkazish bo‘yicha inspeksiya organining rahbari sifat bo‘yicha ekspert-auditor tomonidan attestatsiyadan o‘tkazilgan bo‘lishi kerak.

***Sinov va o‘lchov laboratoriyalarini (markazlarini) va metrologik xizmatni akkreditatsiya qilish uchun quyidagilarning mavjud bo‘lishi qo‘shimcha shartlar hisoblanadi:***

a) sinov va/yoki o‘lchov usullarini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar;

b) texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning tegishli talablariga muvofiq bo‘lgan ishlab chiqarish binolari va atrof-muhit sharoitlari;

c) akkreditatsiya qilishning ko‘rsatilgan sohasiga muvofiq sinov va/yoki o‘lchovlarni o‘tkazishni ta’minlovchi sinov vositalari va/yoki o‘lchov vositalari.

Sinov va o‘lchov laboratoriyalari (markazlari) ularda uchinchi tomon maqomi mavjud bo‘lgandagina mustaqil idora sifatida akkreditatsiya qilinishi mumkin.

Mahsulotlar, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlar sertifikatlash organi, sertifikatlash bo‘yicha inspeksiya organi rahbari sifat bo‘yicha ekspert-auditor sifatida attestatsiyadan o‘tkazilgan bo‘lishi kerak. Bunda ekspert-auditor faqat bitta muvofiqlikni baholash organiga rahbarlik qilishi mumkin.

Akkreditatsiyadan o‘tkazilgan sinov, kalibrlash, tibbiyot laboratoriyalari (markazlari) va metrologik xizmatlar, amaldagi akkreditatsiya doirasiga muvofiq o‘zi qo‘llayotgan sinov va o‘lchov

vositalaridan, standart namunalardan va sinash asbob-uskunalaridan foydalanish va (yoki) ularni qo‘llash huquqlarining, akkreditatsiyadan o‘tishga talabgor bo‘lgan ariza beruvchilar foydasiga berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi, bunda holatlarga faqatgina O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va(yoki) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosidagina ruxsat etilishi mumkin.

## 7.4. Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma

Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma muvofiqlikni baholash organi akkreditatsiyaning belgilangan sohasidagi ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi hujjatdir.

Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning shakli Milliy akkreditatsiya organi tomonidan tasdiqlanadi (7.6-, 7.7-rasmlarga qarang).

Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma besh yil muddatga beriladi.

Qonun hujjatlariga ko‘ra akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomadan boshqa shaxsning foydalanishi qat’iy taqiqlanadi.

“Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi qonunning 25-moddasida akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini to‘xtatib turish holatlari yoritib berilgan.

Inspeksiya nazorati davomida aniqlangan nomuvofiqliklar bartaraf etilmagan taqdirda, akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishi to‘xtatib turilishi mumkin.

Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini to‘xtatib turish Milliy akkreditatsiya organi yoki sud tomonidan amalga oshiriladi. Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishi Milliy akkreditatsiya organi tomonidan ***o‘n ish*** kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatga, sud tomonidan esa, ***o‘n ish kunidan ko‘p bo‘lgan*** muddatga to‘xtatib turilishi mumkin.



УЗБЕКСКОЕ АГЕНТСТВО СТАНДАРТИЗАЦИИ, МЕТРОЛОГИИ И СЕРТИФИКАЦИИ
(АГЕНТСТВО "УЗСТАНДАРТ")

Национальная система Аккредитации
Республики Узбекистан

СВИДЕТЕЛЬСТВО
ОБ АККРЕДИТАЦИИ

Зарегистрировано в государственном Реестре
органов по оценке соответствия
«16» июня 2017г.
№ UZ.AMT.22.MAI.001
действительно до «2» февраля 2022г.

Государственное предприятие «Узбекаккредитация» удостоверяет, что группа по межлабораторным сличениям (провайдер проверки квалификации) при государственном предприятии «Узбекский национальный институт метрологии» (Юридический и фактический адрес: 100049, г. Ташкент, ул. Фаробий, дом 333 «А» и 333 «Б») соответствует требованиям стандарта O'z DSt ISO/IEC 17043:2015 и аккредитована на техническую компетентность и независимость в Национальной системе аккредитации Республики Узбекистан.

Область аккредитации прилагается к настоящему свидетельству.

Уполномоченное лицо Ш.Б. Алимов

М.П.

**7.6-rasm. Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma**




**7.7-rasm. Akkreditatsiya guvohnomasi namunalari.**

Milliy akkreditatsiya organining akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini to‘xtatib turish haqidagi qarori muvofiqlikni baholash organiga qaror qabul qilingan kundan e’tiboran ***uch kun***dan kechiktirmasdan yozma shaklda yetkaziladi. Sudning akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini to‘xtatib turish haqidagi hal qiluv qarori muvofiqlikni baholash organiga va Milliy akkreditatsiya organiga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yetkaziladi.

Muvofiqlikni baholash organi akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini to‘xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etgan taqdirda, akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini to‘xtatib turish haqida qaror qabul qilgan Milliy akkreditatsiya organi yoki sud mazkur holatlar bartaraf etilganligi haqidagi tasdiqni olgan kundan e’tiboran o‘n kun muddat ichida akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini qayta tiklash haqida qaror qabul qilishi shart.

Milliy akkreditatsiya organining akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini to‘xtatib turish haqidagi qarori ustidan sudga

shikoyat qilinishi mumkin. Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma-ning amal qilishini to‘xtatib turish sud tomonidan asossiz deb topilgan taqdirda, Milliy akkreditatsiya organi muvofiqlikni baholash organi oldida u ko‘rgan zarar miqdorida javobgar bo‘ladi.

Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishi to‘xtatib turilganligi va qayta tiklanganligi haqidagi ma’lumotlar ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinishi lozim.

Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish hollari qonunning 26-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan.

*Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:*

- muvofiqlikni baholash organi akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatishni so‘rab ariza bilan murojaat qilganda;

- yuridik shaxs bo‘lgan muvofiqlikni baholash organi tugatilganda — tugatilgan paytdan e’tiboran yoki uning faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganda - qayta tashkil etilgan paytdan e’tiboran, bundan uning o‘zgartirilishi mustasno;

- muvofiqlikni baholash organi akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini to‘xtatib turishga sabab bo‘lgan holatlarni Milliy akkreditatsiya organi yoki sud tomonidan belgilangan muddatda bartaraf etmaganda;

- muvofiqlikni baholash organi normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan talablarni muntazam ravishda buzganda yoki bir marta qo‘pol tarzda buzganda;

- Milliy akkreditatsiya organining akkreditatsiya to‘g‘risida guvohnoma berish haqidagi qarori noqonuniy ekanligi aniqlanganda;

- akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilish muddati o‘tganda.

Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish Milliy akkreditatsiya organi tomonidan amalga oshiriladi.

Milliy akkreditatsiya organining akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish haqidagi qarori muvofiqlikni baholash organiga qaror qabul qilingan kundan e’tiboran ***uch kun***dan kechiktirmasdan yozma shaklda yetkaziladi. Sudning akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish haqidagi hal qiluv qarori muvofiqlikni baholash organiga va Milliy akkreditatsiya organiga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yetkaziladi.

Muvofiqlikni baholash organi Milliy akkreditatsiya organining yoki sudning akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish haqidagi qarorini olgan kundan e’tiboran ***o‘n kun*** ichida akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma Milliy akkreditatsiya organiga qaytarilishi va yo‘q qilib yuborilishi lozim.

Milliy akkreditatsiya organining akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish haqidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish sud tomonidan asossiz deb topilgan taqdirda, Milliy akkreditatsiya organi muvofiqlikni baholash organi oldida u ko‘rgan zarar miqdorida javobgar bo‘ladi.

Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishi tugatilganligi haqidagi ma’lumotlar ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinishi lozim. Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishi uni tugatish haqida qaror qabul qilingan sanadan e’tiboran tugatiladi.

*Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:*

- muvofiqlikni baholash organi akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomani bekor qilish haqidagi ariza bilan murojaat qilganda;
- akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma soxta hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlanganda.

Agar akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma soxta hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlangansa, u holda akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomani bekor qilish sudning hal qiluv qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi. Agar muvofiqlikni baholash organi akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomani bekor qilish haqidagi ariza bilan murojaat qilsa,

u holda akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomani bekor qilish Milliy akkreditatsiya organining qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi.

Milliy akkreditatsiya organining akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomani bekor qilish haqidagi qarori muvofiqlikni baholash organiga qaror qabul qilingan kundan e’tiboran ***uch kun***dan kechiktirmasdan yozma shaklda yetkaziladi. Sudning akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomani bekor qilish haqidagi hal qiluv qarori muvofiqlikni baholash organiga va Milliy akkreditatsiya organiga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yetkaziladi.

Muvofiqlikni baholash organi Milliy akkreditatsiya organining yoki sudning akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomani bekor qilish haqidagi qarorini olgan kundan e’tiboran ***o‘n kun*** ichida akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma Milliy akkreditatsiya organiga qaytarilishi, Muvofiqlikni baholash organlarining davlat reyestridan chiqarilishi va yo‘q qilib yuborilishi lozim.

Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma bekor qilinganligi haqidagi ma’lumotlar ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinishi lozim.

Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomani bekor qilish haqida sudning hal qiluv qarori qabul qilinganda akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma u berilgan sanadan e’tiboran bekor qilingan hisoblanadi.

**VII bobni takrorlash uchun savollar:**

1. Milliy akkreditatsiya organi va uning vazifalari haqida ma’lumot bering.
2. O‘zstandart agentligining muvofiqlikni baholash sohasidagi vazifalari va huquqlarini aytib bering.
3. Ariza beruvchilarni akkreditatsiya qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?
4. Akkreditatsiya qilish sxemasini tushuntirib bering.
5. Akkreditatsiya qilishga buyurtmanoma qanday tartibda beriladi?
6. Akkreditatsiya qilish organiga beriladigan buyurtmanomaga ilova qilinadigan hujjatlarni ayting.
7. Akkreditatsiya qilish shartlari haqida ma’lumot bering.

8. Ariza beruvchini akkreditatsiyadan otkazishning qoshimcha shartlariga nimalar kiradi?

9. Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnoma kimlarga beriladi? Uning berilishidan maqsad nima?

10. Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishi qanday hollarda to‘xtatib qo‘yilishi mumkin.

11. Qanday hollarda akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomabekor qilinishi mumkin?

12. Akkreditatsiya to‘g‘risidagi guvohnomani bekor qilish haqidagi qaror e’lon qilingach qanday ishlar amalga oshiriladi?

# VIII BOB.
# MUVOFIQLIKNI BAHOLASH MODELLARI VA ULARNI SERTIFIKATLASHTIRISHDA QO‘LLANILISHI

## 8.1. Majburiy muvofiqlikni tasdiqlash

Majburiy muvofiqlikni tasdiqlash sertifikatlashtirish va sinash hamda texnik shartlarga global yondoshish va standartlarni texnikaviy uyg‘unligiga yangicha yondoshuv doirasida ishlatiladi. Quyidagi 8.1-rasmdatexnik reglamentlarga muvofiq majburiy muvofiqlikni tasdiqlash shaklini tanlashga umumiy yondoshuv jarayonini amalga oshirilish ketma-ketligi tasvirlangan.




**8.1-rasm. Texnik reglamentlarga muvofiq majburiy muvofiqlikni tasdiqlash shaklini tanlashga umumiy yondoshuv.**

Muvofiqlikni baholashga ***Yangicha yondoshuv***ning asosiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

- Mahsulotga majburiy talablari (xavfsizlik talablari) direktivlarda (qonuniy aktlarda) oʻrnatiladi. Ularda muvofiqlikni baholash uchun qoʻllaniladigan jarayonlar koʻrsatilishi lozim;
- Mahsulotga muayyan talablar ixtiyoriy statusiga ega boʻlib, u standartlarda oʻrnatiladi. Standartlar direktivalar talablariga uygʻunlashgan qoida sifatida boʻladi;
- Mahsulot uygʻunlashgan standartlarga muvofiq yaratilgan boʻlsa, uni direktivalar talablariga muvofiq deb hisoblash mumkin;
- Mahsulot muvofiqligini tasdiqlash jarayoni uygʻunlashgan standartlarga asoslanadi;
- Agar tayyorlovchi uygʻunlashgan standartlardan foydalanishni hohlamasa, unda uchinchi tomon yordami bilan, u, mahsulotni direktivalar talablariga muvofiqligini isbotlashga majbur.

***Global yondoshuv*** quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Mahsulot muvofiqligini baholashning natijalari teng qiymatliligi inobatga olinib bir qancha jarayonlaridan foydalaniladi;
- Jarayonlar yo loyihalashga, yoki ishlab chiqarishga, yoki, u boshqaga taaluqli modullardan tarkib topadi;
- Baholash jarayonlarini tayyorlovchi taqdim qiladi, direktivada oʻrnatilgan qatoridan tanlanadi;
- Baholash natijasi koʻrilayotgan mahsulot yoki ishlab chiqarish (sifat menejmenti tizimi) nazorati teng qiymatli sifatida qaraladi;
- Muvofiqlikni baholash jarayoni direktiva talablariga bogʻliq boʻlib, uchinchi tomon boʻluvchi akkreditlangan (yoki vakolatli) idora va tayyorlovchi (birinchi tomon) amalga oshiradi.

Mavofiqlikni baholash natijasi boʻlib muvofiqlik deklaratsiyasi va CE belgisi bilan mahsulotni tamgʻalash hisoblanadi (8.2-rasm).



**8.2 - rasm. CE belgisining chizmasi va tashqi koʻrinishi.**

Ikkala yondoshuv ham keng miqyosda mahsulotlarni erkin aylanishi va ularning xavfsizligini kerakli darajada ta’minlashda CE shartlarini yaratishga yo‘naltirilgan. Bunda Yangicha yondoshuv asosan mahsulotlarga talablarni aniqlovchi yagona umumyevropa me’yoriy bazasini yaratish va bu talablarga mahsulot muvofiqligini baholash qismida Yangicha yondoshuv qoidalarini global rivojlanishi nazarda tutiladi.

## 8.2. Muvofiqlikni baholashning Yevropa modullari

Yangicha va global yondoshuvlar mahsulot talablariga va uni muvofiqligini baholash protseduralariga yagonaligini ta’minlash Yevropa direktivalari orqali amalga oshiriladi.

Texnikaviy uyg‘unlik bo‘yicha direktivalarni qo‘llash uchun mo‘ljallangan CE tamg‘alashni qo‘llash va qo‘yish qoidalari va muvofiqlikni baholashning turli xil fazalari modullari bo‘yicha ES Kengashining 1993 yil 22 iyuldagi 93/465/EES Qarori modulli yondoshuvni qo‘llash o‘rnatuvchi, muvofiqlikni tasdiqlash bo‘yicha ES asos soluvchi hujjatlari bo‘lib hisoblanadi.

Qarorda muvofiqlikni tasdiqlash protsedurasi (modullari) tarkibi, texnikaviy uyg‘unlik bo‘yicha direktivalar ishlab chiqishda ularni mezonlarini tanlash hamda loyihalashtirish, tayyorlash, bozorga chiqarish va ekspluatatsiya qilish yoki mahsulotga qo‘llashga taaluqli qonunchilikka muvofiq CE tamg‘asini qo‘yish qoidalari bo‘yicha tavsiyalar tarkib topgan.

Quyidagi 8.1-jadvalda muvofiqlikni baholashning Yevropa modullari, ularning kim tomonidan bajarilishi va har bir modulning o‘ziga xos tavsiflari berilgan.

*8.1-jadval*

***Muvofiqlikni baholashning Yevropa modullari***

<table>
<tr><th>Modul</th><th>Bajaruvchilar</th><th>Tavsifi</th></tr>
<tr><td>A</td><td>Ishlab chiqaruvchi</td><td>- Texnik faylda xususiy isbotlari o‘tkaziladi. Muvofiqlik to‘g‘risida Deklaratsiya qabul qilinadi.</td></tr>
<tr><td>B</td><td>Vakolatli idora</td><td>Texnikaviy hujjatlar ko‘rib chiqiladi. Mahsulot namunasi sinaladi. Sertifikat beriladi.</td></tr>
<tr><td rowspan="2">C</td><td colspan="2">B moduli bajarib bo‘lganidan so‘ng tegishli</td></tr>
<tr><td>Ishlab chiqaruvchi</td><td>Muvofiqlik to‘g‘risida Deklaratsiya qabul qilinadi.</td></tr>
<tr><td rowspan="4">D</td><td colspan="2">B moduli bajarib bo‘lganidan so‘ng tegishli</td></tr>
<tr><td>Vakolatli idora</td><td>Ishlab chiqarish bosqichlarida sifat tizimi baholanadi</td></tr>
<tr><td>Ishlab chiqaruvchi</td><td>Muvofiqlik to‘g‘risida Deklaratsiya qabul qilinadi</td></tr>
<tr><td>Vakolatli idora</td><td>Sifat tizimi bo‘yicha tekshiruv amalga oshiriladi</td></tr>
<tr><td rowspan="4">E</td><td colspan="2">B moduli bajarib bo‘lganidan so‘ng tegishli</td></tr>
<tr><td>Vakolatli idora</td><td>Tekshirish va sinash bosqichlarida sifat tizimi baholanadi</td></tr>
<tr><td>Ishlab chiqaruvchi</td><td>Muvofiqlik to‘g‘risida Deklaratsiya qabul qilinadi</td></tr>
<tr><td>Vakolatli idora</td><td>Sifat tizimi bo‘yicha tekshiruv amalga oshiriladi</td></tr>
<tr><td rowspan="3">F</td><td colspan="2">B moduli bajarib bo‘lganidan so‘ng tegishli</td></tr>
<tr><td>Vakolatli idora</td><td>Ishlab chiqarilayotgan mahsulot partiyasini tekshirish amalga oshiriladi. Tekshirilgan partiyaga muvofiqlik sertifikati beriladi.</td></tr>
<tr><td>Ishlab chiqaruvchi</td><td>Muvofiqlik to‘g‘risida Deklaratsiya qabul qilinadi</td></tr>
<tr><td rowspan="2">G</td><td>Vakolatli idora</td><td>Har bir mahsulot sinovdan o‘tkaziladi. Sinalgan mahsulotlarga munosabat haqida sertifikat beriladi.</td></tr>
<tr><td>Ishlab chiqaruvchi</td><td>Muvofiqlik to‘g‘risida Deklaratsiya qabul qilinadi</td></tr>
<tr><td rowspan="3">H</td><td>Vakolatli idora</td><td>Loyihalashtirish va ishlab chiqarish bosqichlarida sifat tizimi baholanadi.</td></tr>
<tr><td>Ishlab chiqaruvchi</td><td>Muvofiqlik to‘g‘risida Deklaratsiya qabul qilinadi</td></tr>
<tr><td>Vakolatli idora</td><td>Sifat tizimi bo‘yicha tekshiruv amalga oshiriladi</td></tr>
</table>

Mahsulot me’yoriy talablarga muvofiqligini tasdiqlashga modulli yondoshuv quyidagi xususiyatlarni tavsiflaydi:

- muvofiqlikni tasdiqlash turli xil turdagi mahsulotlar uchun qo‘llanuvchi «modullar» jarayonlariga bo‘linuvchi jarayon sifatida;

- modullar yoki loyihalashtirish bosqichida, yoki uni ishlab chiqarish bosqichida, yoki ikkala bosqichlarda qo‘llaniladi;

- sakkizta asosiy modullar va sakkizta turli xil muvofiqliknitasdiqlash jarayonlari to‘plami hamda ularning modifikatsiyasi bo‘lishi mumkin;

- muvofiqlikni tasdiqlash mahsulot o‘rnatilgan talablarga muvofiqligi (yoki nomuvofiqligi) to‘g‘risidagi qaror qabul qilish va CE muvofiqlik belgisi bilan tamg‘alashni kiritish imkoniyati bilan tugallanadi;

- muvofiqlikni tasdiqlash jarayoni birinchi tomon (tayyorlovchi) yokiuchinchi tomon (akkreditlangan yoki vakolatli idora) qatnashuviga asoslanadi.

Mahsulot muvofiqligini baholash uning hayotiy davrining turli xil bosqichlarda modullari o‘zaro aloqadorlik sxemasi 8.3-rasmda keltirilgan.

Asosiy va bir qancha modifitsiyalangan muvofiqlikni tasdiqlash modullari va ularning tavsiflari quyidagi 8.2-jadvalda keltirilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, muvofiqlikni tasdiqlash jarayonlari asosini A, B, C, D, E, F, H modullari tashkil qiladi, ya’ni modifikatsiyasi zarur bo‘lganda turli xilini birga qo‘shish va hosil qilish bilan foydalanish mumkin.

Demak, A, C, H modullari muayyan direktivni ishlab chiqishda qo‘shimcha qoidalar bilan yordamchi talablar bo‘lishi mumkin.

C moduli B moduli bilan birga qo‘llash uchun mo‘ljallangan.

D, E, F modullari B moduli bilan qoida sifatida qo‘llanilib, odatda o‘ziga xos holatlarda ular alohida qo‘llanilishi mumkin.




**8.3-rasm. Muvofiqlikni baholash modullarining o'zaro aloqadorlik sxemasi.**

*8.2-jadval*

*Muvofiqlikni baholash Yevropa modullarining tavsiflari*

| *Modulning belgilanishi* | *Modul tamoyillari* | |
|---|---|---|
| | *Tayyorlovchi faoliyati* | *Vakolatli idora faoliyati* |
| A Modul – Mahsulotning ichki nazorati | Texnikaviy hujjatlarga muvofiqligini xususan isbotlanishini o'tkazish. Muvofiqlik to'g'risida deklaratsiya qabul qilinadi. | |
| B Modul – Namuna turini sinash | | Texnikaviy hujjatlarga qaraladi. Mahsulot namunasi sinaladi. Tur sertifikati beriladi. |
| C Modul – Namuna turiga muvofiqlik (B Modul bajarilgandan so'ng) | Muvofiqlik to'g'risida deklaratsiya qabul qilinadi. | |
| D (E) Modul – Ishlab chiqarishga (mahsulot) sifat kafolati | 2) Muvofiqlik to'g'risida deklaratsiya qabul qilinadi. | 1) Sifat tizimi baholanadi. |

| | | |
|---|---|---|
| (B Modul bajarilgandan so‘ng) | | 3) Sifat tizimi ustidan nazorat amalga oshiriladi. |
| F Modul – Mahsulotni tekshirish<br>(B Modul bajarilgandan so‘ng) | 3) Muvofiqlik to‘g‘risida deklaratsiya qabul qilinadi. | 1) Ishlab chiqarilayotgan mahsulot to‘pi nazorati amalga oshiriladi.<br>2) Tekshirilgan to‘pga muvofiqlik sertifikati beriladi. |
| G Modul – Mahsulot birligini tekshirish | 3) Muvofiqlik to‘g‘risida deklaratsiya qabul qilinadi. | 1) Har bir buyum sinovi o‘tkaziladi.<br>2)Tekshirilgan mahsulotga muvofiqlik sertifikati beriladi. |
| H Modul – Sifatga to‘liq kafolat | 2) Muvofiqlik to‘g‘risida deklaratsiya qabul qilinadi. | 1) Loyihalash va ishlab chiqarish bosqichlarida sifat tizimi baholanadi.<br>3) Sifat tizimi ustidan nazorat amalga oshiriladi. |

8.2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, deyarli barcha modullarsertifikatlashtiruvchi idora yoki vakolatli idora isbotlash bazasini ta’minlashda ishtirok etishi nazarda tutilgan. Ko‘proq bu modullar dastlab (A va C modullar)uchinchi tomon ishtirok etishi mo‘ljallanmagan bo‘lsada va keyinchalik bularda ishtirok etishi bilan takomillashtirildi. Bundan tashqari bir necha modullar doirasida masalan, B, F modullarda mahsulot sertifikatini vakolatli idoralar berishi, ya’ni muvofiqlik to‘g‘risida deklaratsiya qabul qilishda tayyorlovchi foydalanadigan isbotlovchi bazasi kiritildi.

Modulli yondoshuv asosida muvofiqlikni baholashning namunaviy tuzilmasi quyidagi 8.4-rasmda o‘z ifodasini topgan.




**8.4-rasm. Modulli yondoshuv asosida muvofiqlikni baholashning namunaviy tuzilmasi.**

## 8.3. Muvofiqlikni baholash ishlarining moliyaviy ta'minoti va uning amalga oshirilishi haqida umumiy ma'lumotlar

2013 yil 4 oktabrda qabul qilingan "Muvofiqlikni baholash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonunida muvofiqlikni baholash sohasida amalga oshiriladigan ishlarning moliyaviy ta'minoti qanday amalga oshirilishi belgilab berilgan. Qonunning 28-moddasi "Muvofiqlikni baholashga doir ishlarni moliyalashtirish" deb nomlangan va unda quyidagilar bayon etilgan:

*“Muvofiqlikni baholashga doir ishlarni moliyalashtirish manfaatdor shaxslarning mablag‘lari, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.*

*Muvofiqlikni baholash sohasida ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun tariflarni hisob-kitob qilish tartibi qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadi”.*

1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi qonunning 5-moddasida shunday deyilgan:

*"O‘zstandart" agentligining sertifikatlashtirish sohasidagi faoliyatini moliyaviy ta’minlash manbai - davlat budjeti mablag‘i, shuningdek "O‘zstandart" agentligi ko‘rsatayotgan xizmat uchun olinadigan haqdan iborat.*

Shuningdek sinov laboratoriyalarini (markazlarini) va sertifikatlashtirish organlarini akkreditatsiya qilish bilan bog‘liq sarf-xarajatlarning arizachi tomonidan qoplanishi ham belgilab berilgan.

Ushbu qonunning 15-moddasi “Majburiy sertifikatlashtirishishlarining davlat tomonidan moliyaviy ta’minoti” deb nomlangan bo‘lib, unda quyidagi ishlarning davlat tomonidan moliyaviy ta’minlanishi aytib o‘tilgan:

- sertifikatlashtirishni rivojlantirishning istiqbollarini, uni o‘tkazish qoidalari va tavsiyalarini ishlab chiqish;
- sertifikatlashtirish sohasida rasmiy axborotlar bilan ta’minlash;
- xalqaro (mintaqaviy) sertifikatlashtirish tashkilotlari ishida qatnashish hamda chet el milliy sertifikatlashtirish organlari bilan birgalikda ishlar o‘tkazish;
- sertifikatlashtirish yuzasidan xalqaro (mintaqaviy) qoidalar va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni ishlab chiqishda qatnashish;
- sertifikatlashtirish yuzasidan umumdavlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot ishlari va boshqa ishlar olib borish;
- sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etilishi ustidan hamda sertifikatlangan mahsulot ustidan davlat tekshiruvi va nazorati olib borish ishlari

O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida”

qonunning 11-moddasida standartlashtirish va nazorat qilishga doir ishlarning moliyaviy ta’minoti haqida so‘z yuritiladi. Ushbu moddada standartlashtirish sohasidagi quyidagi ishlar davlat tomonidan moliyaviy ta’minlash shart deb ko‘rsatilgan:

- xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlarni, standartlashtirish qoidalari, normalari va tavsiyalarini ishlab chiqish yoki ishlab chiqishda ishtirok etish;
- aniq standartlashtirish obyektlari bo‘yicha qonun hujjatlarini ishlab chiqish, shuningdek standartlarning tarkibiy tashkiliy-texnik va umumtexnik majmuilarini ishlab chiqish va ularning amal qilishini ta’minlash;
- texnik-iqtisodiy axborot klassifikatorlarini ishlab chiqish, ular to‘g‘risida rasmiy axborot tayyorlash va nashr etish, shuningdek ularni barcha manfaatdor foydalanuvchilarga yuborish;
- standartlashtirish bo‘yicha umumdavlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot va o‘zga ishlarni olib borish;
- standartlarning majburiy talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini olib borish;
- standartlar fondini, texnik-iqtisodiy axborotlar klassifikatorlarini, xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlarni, standartlashtirish qoidalari, normalari va tavsiyalarini, xorijiy mamlakatlarning milliy standartlarini, shuningdek standartlarga muvofiqlik belgisi bilan tamg‘alangan mahsulot va xizmatlar Davlat reyestrini shakllantirish hamda yuritish;
- standartlashtirish sohasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi aniqlaydigan O‘zga ishlar.

2009 yil 23 aprelda qabul qilingan “**Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida**”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida mamalakatimizda texnik jihatdan tartibga solish sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning moliyaviy ta’minoti kim tomonidan amalga oshirilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Unga ko‘ra:

1) Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ishlarni moliyalashtirish respublika budjeti va yuridik shaxslarning mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

2) Respublika budjeti mablag‘lari hisobidan quyidagilar moliya-

lashtiriladi:

- umumiy texnik reglamentlarni ishlab chiqish;
- umumiy va maxsus texnik reglamentlarni ekspertizadan O‘tkazish;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondini yuritish;
- texnik reglamentlarga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasining texnik jihatdan tartibga solish bo‘yicha xalqaro tashkilotlardagi a’zoligi bilan bog‘liq xarajatlar.

### 8.4. To‘lovlarni amalga oshirish jarayoni haqida umumiy tushunchalar

Muvofiqlikni baholash ishlarini amalga oshirilishidagi xarajatlar arizachi (talabgor) tomonidan qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan tartibda amalga oshiradi. Bunda arizachi talabgor va muvofiqlikni baholash ishlarini amalga oshiruvchi tashkilot o‘rtasida shartnoma tuziladi (5-ilovaga qarang). Shartnoma arizachi (talabgor) **“Buyurtmachi”**va muvofiqlikni baholash ishlarini amalga oshiruvchi tashkilot **“Bajaruvchi”** deb ko‘rsatiladi.

Shartnomada “Buyurtmachi” topshirig‘iga ko‘ra “Bajaruvchi” shartnomada belgilangan shartlar asosida qanday ishlarni bajarishni o‘z zimmasiga olganligi ko‘rsatiladi. Bu shartnomada quyidagi tarzda ifodalanishi mumkin (8.3-jadval), bunda muvofiqlikni baholash obyekti o‘lchash vositasi hisoblanadi.

Shartnoma tuzilgan kundan boshlab “Buyurtmachi” tomonidan to‘lovlarning qancha muddat ichida (misol uchun 30 bank kuni) amalga oshirilishi va “Bajaruvchi”ning qancha muddat ichida (misol uchun 15 ish kuni) ishlarni amalga oshirib berishi aniq ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Agar muvofiqlikni baholash ishlari joylarga borib amalga oshirilishi hollari mavjud bo‘lsa, u holda shartnomada ishlar bajarish joyiga borish hamda namunaviy o‘lchash vositalarini tashish va qiyoslovchini ish joyiga olib kelish uchun transport vositasi taqdim etish “Buyurtmachi”ning mas’uliyatiga kiritilishi ham ko‘rsatilishi mumkin.

*8.3-jadval*

| *№* | *Qiyoslanayotgan o'lchash vositasi nomi va turi* | *O'V ning soni (dona)* | *Qiyoslash narxi* | | *QQS 20%* | *QQS bilan olingan narx* |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | *Bir donasi uchun* | *Jami* | | |
| 1 | | | | | | |
| 2 | | | | | | |
| 3 | | | | | | |
| 4 | | | | | | |
| 5 | | | | | | |

Shartnomada belgilangan ishlardan tashqari ishlar bajarilgan bo'lsa, u holda bu ishlar uchun hisob-kitob ishlari alohida amalga oshiriladi.

"Buyurtmachi" muvofiqlikni baholash obyekti bilan birgalikda talab etilgan tegishli hujjatlarni ham taqdim etishi lozim. Masalan,muvofiqlikni baholash obyekti o'lchash vositasi bo'lgan taqdirda quyidagi hujjatlarni taqdim etishi talab etiladi:

- o'lchov vositalarini qiyoslash uchun me'yoriy hujjatlar;
- jadvalga muvofiq o'lchash vositalari va qiyoslashda zaruriy bo'lgan ehtiyot qismlar, butlovchi moslamalar;
- zarur hollarda esa namunaviy o'lchash vositalarini.

Shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangach "Bajaruvchi" bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnoma (ilova -) tuzadi. "Buyurtmachi" tomonidan bajarilgan ishlar qiymati to'liq to'lab berilgandan so'ng dalolatnomani topshiradi.

Shartnomada tomonlarning javobgarligi, nizolarni hal etish, boshqa shartlar, fars-mojor va shartnomaning amal qilish muddati va tomonlarning huquqiy manzillari kabi punktlar ham bo'ladi.

Shartnoma shartlari buzilgan taqdirda tomonlarning qanday javobgarlikka ega bo'lishi shartnomaning "Tomonlarning javobgarligi" bandida ko'rsatib o'tilgan bo'ladi. Tomonlarning javobgarligi sifatida jarima to'lash yoki boshqa choralar belgilanishi mumkin.

***Akkreditatsiya sohasidagi markaz xizmatlariga haq to'lash tartibi.*** Akkreditatsiya markazi tomonidan akkreditatsiya sohasidagi quyidagi xizmatlar uchun haq undiriladi:

- hujjatlar ekspertizasi uchun;
- akkreditatsiya obyektini baholash uchun;
- tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq o'tkazilgan akkreditatsiya obyektining inspeksiya nazorati uchun;
- akkreditatsiya sohasini dolzarblashtirish uchun.

Akkreditatsiya obyektlari tomonidan akkreditatsiya sohasidagi Markaz xizmatlariga haq to'lash ularning natijalaridan qat'iy nazar amalga oshiriladi.

Markaz tomonidan akkreditatsiya sohasidagi quyidagi xizmat turlari bo'yicha haq undirilmaydi:

- ariza ko'rib chiqish;
- oldin berilgan (amaldagi) akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani qayta rasmiylashtirish;
- akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish (tiklash) yoki tugatish;
- akkreditatsiya sohasini qisqartirish;
- akkreditatsiya obyekti faoliyatining rejadan tashqari inspeksiya nazoratini amalga oshirish.

"Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom"da nazarda tutilgan xizmatlar uchun to'lovlar Markazning sarflangan vaqtidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Sarflangan vaqtni hisoblab chiqish metodikasi Markaz tomonidan belgilanadi va uning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Muvofiqlikni baholash organlari va metorologiya xizmatlari tomonidan akkreditatsiya belgisi qo'llanishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan miqdori haq undiriladi.

**VIII bobni takrorlash uchun savollar**

1. Majburiy muvofiqlikni tasdiqlash haqida tushuncha bering.
2. Muvofiqlikni baholashga yangicha yondoshuvning asosiy

tamoyillarini aytib bering.

3. Global yondoshuvqanday tamoyillarga asoslanadi?

4. Muvofiqlikni baholashning Yevropa modullari haqida ma’lumot bering.

5. Muvofiqlikni baholash modullarining o‘zaroaloqadorlik sxemasini tushuntirib bering.

6. Muvofiqlikni baholash ishlarining moliyaviy ta’minoti kim tomonidan amalga oshiriladi?

7. Muvofiqlikni baholash ishlari uchun haq to‘lash ishlari qanday tartibda amalga oshiriladi?

8. Shartnomadan tashqari bajarilgan ishlarga haq to‘lash qanday tarzda amalga oshiriladi?

9. Shartnoma shartlari buzilgan hollarda tomonlarning javobgarligi qanday bo‘ladi?

10. Akkreditatsiya sohasidagi markaz xizmatlariga haq to‘lash tartibi qanday belgilanadi?

# IX-BOB.
# XORIJIY MAMLAKATLARDA MUVOFIQLIKNI BAHOLASHVA SERTIFIKATLASHTIRISH TIZIMLARI

## 9.1. MDH mamlakatlarida muvofiqlikni baholash va sertifikatlashtirish tizimlari

**Rossiya Federatsiyasida muvofiqlikni baholash ishlarining amalga oshirilishi haqida umumiy ma’lumotlar.** Rossiya Fedratsiyasida 2002 yil 27 dekabrda qabul qilingan "Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida"gi Qonun belgilangan talablarga muvofiqlikni tasdiqlash shartlari va mexanizmiga yondashishni tubdan o‘zgartirdi. U muvofiqlikni baholashni mahsulotlar, ishlab chiqarish jarayoni, foydalanish, saqlash, tashish, realizatsiya va utilizatsiya qilish, ishlarni bajarish yoki xizmat ko‘rsatishning texnik reglament talablariga, standartlarning shartlariga yoki shartnoma shartlariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat sifatida belgilab beradi. Bu shuningdek, Belarus Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasining 2010 yil 18 noyabrdagi “Texnik reglamentning umumiy tamoyillari va qoidalari to‘g‘risidagi Kelishuv”ida ham mustahkamlab qo‘yilgan.

Muvofiqlikni tasdiqlash quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- mahsulotlar, ishlab chiqarish jarayonlari, ishlab chiqarish jarayonlari, saqlash va tashish, realizatsiya va utilizatsiya qilish, ishlar va xizmatlarning yoki boshqa obyektlarning texnik reglamentlar, standartlar yoki shartnoma shartlari talablariga muvofiqligini tasdiqlash;
- mahsulotlar, ishlar, xizmatlar tanlashda xaridorlarga malakali yordam berish;
- Rossiya bozorlari va xalqaro bozorlarda mahsulotlar, ishlar, xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish;
- tovarlarning Rossiya Federatsiyasi hududida erkin aylanishini, shuningdek, xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va xalqaro savdoni ta’minlash uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratish.

Boshqa baholash usullaridan farqli o‘laroq, muvofiqlikni baholash mahsulotning bozorga chiqish oldi bosqichlarida va muvofiqlikni

dekalaratsiyalashda birinchi tomon hisoblanadigan tayyorlovchi (yetkazib beruvchi), shuningdek tayyorlovchi (yetkazib beruvchi) va iste'molchi (buyurtmachi)ga nisbatan mustaqil bo'lgan uchinchi tomon tarafidan amalga oshirilishi mumkin.

Bojxona Ittifoqiga a'zo davlat sifatida Rossiya Federatsiyasida muvofiqlikni tasdiqlash ixtiyoriy yoki majburiy ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Muvofiqlik deklaratsiyasi va muvofiqlik sertifikati majburiymu-vofiqlikni tasdiqlash sxemalariga bog'liq bo'lmagan tarzdateng yuridik kuchga ega va Rossiya Federatsiyasi hududida amal qiladi.

Rossiya Fedratsiyasida qabul qilingan "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonunning 19-moddasida muvofiqlikni baholash tamoyillari belgilab berilgan. Ushbu tamoyillarga quyidagilar kiradi:

- muvofiqlikni tasdiqlash tartiblari haqidagi informatsiyaning manfaatdor tomonlar uchun ochiqligi;
- texnik reglamentlar talablari belgilanmagan obyektlar uchun majburiy muvofiqlikni tasdiqlashning amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmasligi;
- texnik reglamentlarga tegishli mahsulotning muayyan turlariga nisbatan majburiy muvofiqlikni tasdiqlash shakllari va sxemalari ro'yxatini tuzish;
- majburiy muvofiqlikni tasdiqlashni amalga oshirish uchun talab qilinadigan vaqtni va arizachining xarajatlarini qisqartirish;
- muvofiqlikning ixtiyoriy tasdiqlanishda, shu jumladan ixtiyoriy sertifikatlashning muayyan tizimida majburlashga yo'lqo'ymaslik;
- arizachilarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish, muvofiqlikni baholashda olingan ma'lumotlarga nisbatan tijorat sirlarini saqlash;
- majburiy muvofiqlikni ixtiyoriy sertifikatlash bilan almashtirishga yo'l qo'yilmasligi.

Rossiya Federatsiyasi hududida muvofiqlikni tasdiqlash ixtiyoriy yoki majburiy bo'lishi mumkin:

1) Ixtiyoriy tasdiqlash - bu ixtiyoriy sertifikatlash shaklida amalga oshiriladi.

2) Majburiy muvofiqlikni tasdiqlash quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyasini qabul qilish orqali;
- majburiy sertifikatlashtirish orqali.

Muvofiqlikni baholash quyidagi sxemalardan biri tarzida amalga oshiriladi:

- xususiy ko‘rsatmalar asosida muvofiqlik deklaratsiyasini qabul qilinishi orqali;
- xususiy ko‘rsatmalar va sertifikatlashtirish organi va (yoki) akkreditlangan sinov laboratoriyasi ishtirokida olingan ko‘rsatmalar asosida muvofiqlik deklaratsiyasining qabul qilinishi orqali.

Deklaratsiyani rasmiylashtirish uchun talabgor (arizachi) muvofiqlikni baholash organiga tegishli tartibda ariza (ilova-7 ga qarang) topshirishi va unga tegishli hujjatlarni ilova qilishi talab etiladi.

Muvofiqlikni baholash organi arizachi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni o‘rganib chiqadi va hujatlar arizada ko‘rsatilgan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlay olgan taqdirda muvofiqlik deklaratsiyasini (ilova-8 ga qarang) rasmiylashtiradi ba arizachiga taqdim etadi. Muvofiqlik deklaratsiyasining amal qilish muddati arizachining hohishiga qarab belgilanadi.

Quyidagi 9.1-rasmda Rossiya Federatsiyasining Akkreditatsiya tizimining tarkibiy strukturasi tasvirlangan.

**Qozog‘iston Respublikasida muvofiqlikni baholash ishlari.** Qozog‘iston Respublikasida muvofiqlikni baholash ishlari quyidagilarga asosan amalga oshiriladi:

- "Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida"gi Qozog'iston Respublikasi Qonuni ;
- «Muvofiqlikni baholash tartib-taomillari» texnik reglamenti (2008 yil 4 fevralda qabul qilingan);
-"Qozog‘iston Respublikasiga mahsulotlar muvofiqligini majburiy tasdiqlash to‘g‘risida" gi Qozog'iston Respublikasi Hukumatining 2005 yil 20 apreldagi 367-sonli Qarori;

- Bojxona ittifoqi doirasida “Yagona hujjatlarni berish bilan bojxona ittifoqi doirasida majburiy baholashni (tasdiqlashni) taqozo etadigan mahsulotlarning yagona ro‘yxati "Bojxona ittifoqining 2011 yil 7 apreldagi 620-sonli qarori.




**9.1-rasm. Rossiya Akkreditatsiya tizimi.**

**Qozog‘iston Respublikasida muvofiqlikni baholash ishlari.** Qozog‘iston Respublikasida muvofiqlikni baholash ishlari quyidagilarga asosan amalga oshiriladi:

- "Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida"gi Qozog'iston Respublikasi Qonuni ;

- «Muvofiqlikni baholash tartib-taomillari» texnik reglamenti (2008 yil 4 fevralda qabul qilingan);

-"Qozog‘iston Respublikasiga mahsulotlar muvofiqligini majburiy tasdiqlash to‘g‘risida"gi Qozog‘iston Respublikasi Hukumatining 2005 yil 20 apreldagi 367-sonli Qarori;

- Bojxona ittifoqi doirasida “Yagona hujjatlarni berish bilan bojxona ittifoqi doirasida majburiy baholashni (tasdiqlashni) taqozo etadigan

mahsulotlarning yagona ro‘yxati "Bojxona ittifoqining 2011 yil 7 apreldagi 620-sonli qarori.

Qozog‘iston Respublikasi Hukumati tomonidan 2005 yil 20 apreldagi 367-sonli "Qozog'iston Respublikasida mahsulotlarning majburiy muvofiqligi to‘g‘risida"gi qarori va Bojxona ittifoqi Komissiyasining qarori (2011 yil 7 apreldagi 620-son qarori) bilan tasdiqlangan Bojxona ittifoqi doirasida majburiy muvofiqlikni baholashga mo‘ljallangan mahsulotlarning yagona ro‘yxatida ko‘rsatilgan mahsulotlar majburiy muvofiqlikni baholash obyektlari hisoblanadi.

Muvofiqlikni baholash jarayoni faqat shu kabi sinovlarni amalga oshirish uchun akkreditlangan muvofiqlikni baholash organlari va sinov laboratoriyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Muvofiqlikni baholash ishi bilan bog‘liq xarajatlar uning natijalaridan qat'i nazar talabnoma beruvchi tomonidan, shartnoma asosida to‘lanadi.

Mahsulotni sertifikatlash ixtiyoriy yoki majburiy asosda amalga oshiriladi.

**Mahsulot muvofiqligini attestatsiya qilish tartibi.** Muvofiqlikni tasdiqlash bo‘yicha organ "KazSertik-A" TOO mahsulotlar muvofiqligini tasdiqlash ishlarini (sertifikatlashtirish va deklaratsiyalash shaklida) tasdiqlangan akkreditatsiya sohasiga qat’iy muvofiqlik asosida amalga oshiradi.

Mahsulotlar muvofiqligini tasdiqlash ishlarning boshlanishining asosi, bu talabgor (ariza beruvchi) ning "KazSertik-A" TOO ga topshirgan "Ariza" hisoblanadi. Ariza 2 xil ma’noda berilishi mumkin:

- "Sertifikatlash uchun ariza";
- "Muvofiqlik deklaratsiyasini rasmiylashtirish uchun ariza".

*Muvofiqlikni tasdiqlashni amalga oshirish sxemasiga qarab talabgor (ariza beruvchi) quyidagi hujjatlarni ravishda taqdim etadi:*

- mahsulotni sertifikatlash uchun belgilangan shakl ariza;
- talabnoma beruvchining huquqiy maqomini tasdiqlovchi hujjatlar yoki belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxalari;
- texnik reglamentlardan standartlar ro‘yxati (ishlab chiqaruvchi tomonidan qo‘llanilayotgan bo‘lsa);

- ishlab chiqarishning sifat menejmenti tizimiga muvofiqlik sertifikati (mavjud bo‘lsa);

- texnik nizom va (yoki) MH ning xavfsizlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha talablarga mahsulot namunalarining muvofiqligini tasdiqlovchi hisobotlar;

- operativ hujjatlar, texnik va loyiha hujjatlari, xom ashyo materiallari, materiallar va komponentlar (mavjud bo‘lsa) haqida ma'lumot;

- hujjatlarni topshirish (mahsulotning bir qismiga, bitta mahsulotga);

- mahsulotga ishlab chiqarilgan texnik xususiyatlar yoki hujjat (mavjud bo‘lsa);

- mahsulotning xavfsizligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar (agar mavjud bo‘lsa).

Zarurat bo‘lganda, kerakli hujjat va ma’lumotlar "Ro‘yxati" arizachi tomonidan "KazSertik-A" TOO bilan kelishilgan holda o‘zgartirilishi yoki qo‘shilishi mumkin (tanlangan muvofiqlikni baholash sxemasiga qarab).

***Muvofiqlikni deklaratsiyalash.*** Muvofiqlikni baholash quyidagi sxemalardan biri tarzida amalga oshiriladi:

- xususiy ko‘rsatmalar asosida muvofiqlik deklaratsiyasini qabul qilinishi orqali;

- xususiy ko‘rsatmalar va sertifikatlashtirish organi va (yoki) akkreditlangan sinov laboratoriyasi ishtirokida olingan ko‘rsatmalar asosida muvofiqlik deklaratsiyasning qabul qilinishi orqali.

Muvofiqlikni deklaratsiyalashda qo‘llaniladigan sxemalar mavjud bo‘lib, quyida ular haqidagi ayrim ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz.

***1d deklaratsiya sxemasi.*** Usgbu sxema quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- texnik hujjatlarni shakllantirish va tahlil qilish;
- ishlab chiqarishni nazorat qilishni amalga oshirish;
- mahsulot namunalarini sinovdan o‘tkazish;
- muvofiqlikni deklaratsiyasini qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish;
- yagona muomala belgisini kiritish.

***2D deklaratsiya sxemasi.*** Sxema 2d quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

- texnik hujjatlarni shakllantirish va tahlil qilish;

- mahsulotlar partiyasini sinovdan o‘tkazish (bir xil buyumlar);
- muvofiqlikni deklaratsiyasini qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish;
- yagona muomala belgisini kiritish.

***3d deklaratsiya sxemasi.*** Sxema 3d quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

- texnik hujjatlarni shakllantirish va tahlil qilish;
- ishlab chiqarishni nazorat qilishni amalga oshirish;
- mahsulot namunalarini sinovdan o‘tkazish;
- muvofiqlikni deklaratsiyasini qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish;
- yagona muomala belgisini kiritish.

***4d deklaratsiya sxemasi.*** Bu sxema quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

- texnik hujjatlarni shakllantirish va tahlil qilish;
- mahsulotlar partiyasini sinovdan o‘tkazish (bir turdagi buyumlar);
- muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyani qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish;
- yagona muomala belgisini kiritish.

***5d deklaratsiya sxemasi.*** 5d sxemasi quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

- texnik hujjatlarni shakllantirish va tahlil qilish;
- ishlab chiqarishni nazorat qilish;
- tur tadqiqotini (sinovini) o‘tkazish;
- muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyani qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish;
- yagona muomala belgisini kiritish.

***6d deklaratsiya sxemasi.*** Ushbu sxema quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

- texnik hujjatlarni shakllantirish va tahlil qilish, hujjatlar tarkiibiga menejment tizimining texnik reglamentda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlaydigan va menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi tomonidan berilgan menejment tizimiga sertifikat (sertifikat nusxasi) kiritilishi shart;
- ishlab chiqarishni nazorat qilishni amalga oshirish;

- mahsulot namunalarini sinovdan o‘tkazish;
- muvofiqlikni deklaratsiyasini qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish;
- yagona muomala belgisini kiritish;
- menejment tizimining barqarorligini nazorat qilish.

Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish bo‘yicha organ sertifikat-lashtirishdan o‘tgan menejment tizimlarining faoliyati ustidan inspeksion nazoratni amalga oshiradi. Inspeksion nazorat natijalari salbiy bo‘lgan taqdirda arzizachi quyidagi qarorlardan birini tanlaydi:

- muvofiqlik dekalaratsiyasining ta’sirini to‘xtatish;
- muvofiqlik dekalaratsiyasining ta’sirini bekor qilish.

**Belarus Respublikasida muvofiqlikni baholash ishlari.** Belarus Respublikasining Milliy muvofiqlikni baholash tizimi (MMBT) da foydalaniladigan sertifikatlashtirish sxemalari Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) tomonidan qabul qilingan sxemalarga asoslanadi.

Mahsulotni sertifikatlash sertifikatlashtirish jarayonida qabul qilingan va tegishli texnik reglamentlar orqali o‘rnatilgan muvofiqlikni baholash sxemasi bo‘yicha amalga oshiriladi. Mahsulotni sertifikatlash sxemalari Belarus Respublikasi texnik reglamentida mavjud bo‘lmagan hollarda mahsulotni sertifikatlash Belarus Respublikasining muvofiqlikni baholash tizimining Muvofiqlikni baholash qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish organi mahsulotni ishlab chiqarish, sinovdan o‘tkazish, yetkazib berish va ulardan foydalanish xususiyatlarini, shuningdek zarur darajadagi ko‘rsatkichlarni hisobga olgan holda mahsulotlarni sertifikatlashda foydalaniladigan sxemalarni tanlaydi.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish sxemalari talabnoma beruvchining roziligi bilan mahsulotni sertifikatlash organi tomonidan belgilanadi.

Quyida mahsulotlarning muvofiqligini baholashda qo‘llaniladigan sertifikatlashtirish sxemalari haqidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz (9.1-jadval).

### *Sertifikatlashtirish sxemalari*

| *Sxema belgisi* | *Sertifikatlashtirisah sxemasining qo'llanilishi* |
|---|---|
| 1c | Seriyalab ishlab chiqariluvchi mahsulotlar uchun qo'llaniladi |
| 2c | Seriyalab ishlab chiqariluvchi mahsulotlar uchun qo'llaniladi, bunda ishlab chiqaruvchining sifat menejmenti tizimi va (yoki) oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi menejment tizimi Belarus Respublikasi MMBT tomonidan sertifikatlangan bo'lsa |
| 3c | Mahsulotlar partiyasi uchun qo'llaniladi |
| 4c | Dona mahsulot uchun qo'llaniladi |
| 5c | seriyali mahsulotlar uchun qo'llaniladi, agar mahsulotlar sinovida muvofiqligini to'liq tasdiqlash imkoni bo'lmasa yoki ma'lum qiyinchiliklar bo'lsa |
| 6c | seriyali mahsulotlar uchun qo'llaniladi, agar mahsulotlar sinovida muvofiqligini to'liq tasdiqlash imkoni bo'lmasa yoki ma'lum qiyinchiliklar bo'lsa va ishlab chiqaruvchining sifat menejmenti tizimi Belarus Respublikasi MMBT sertifikatlangan bo'lsa |
| 7c | Ketma-ket ishlab chiqarishga mo'ljallangan murakkab mahsulotlar uchun qo'llaniladi, shuningdek, ko'plab mahsulot modifikatsiyalarini chiqarish rejalashtirilgan hollarda. |
| 8c | Ketma-ket ishlab chiqarishga mo'ljallangan murakkab mahsulotlar uchun qo'llaniladi, shuningdek, ko'plab mahsulot modifikatsiyalarini chiqarish rejalashtirilgan hollarda va ishlab chiqaruvchining sifat menejmenti tizimi Belarus Respublikasi MMBT sertifikatlangan bo'lsa. |
| 9c | Yagona mahsulot va cheklangan paketlar, shu jumladan tashkilotning o'z ehtiyojlari uchun sotib olingan mahsulotlar. |

Sertifikatlashtirish organi quyidagi muvofiqlikni baholash faoliyatini amalga oshiradi:

a) mahsulotni sertifikatlash;

b) mahsulotning muvofiqligini deklaratsiyalash;

v) sertifikatlangan mahsulotlarni inspeksion nazorat qilish.

Sertifikatlashtirish organi o‘z faoliyatida quyidagi me’yoriy hujjatlarni qo‘llaydi:

ТКП 5.1.02 «Национальная система подтверждения соответствия Республики Беларусь. Сертификация продукции. Основные положения»;

ТКП 5.1.03 «Национальная система подтверждения соответствия Республики Беларусь. Декларирование соответствия продукции. Основные положения»;

ТКП 5.2.26 «Национальная система подтверждения соответствия Республики Беларусь. Подтверждение соответствия продукции требованиям Технических регламентов Таможенного союза»

ТР ТС 005/2011 «О безопасности упаковки»;

ТР ТС 008/2011 «О безопасности игрушек»;

ТР ТС 007/2011 «О безопасности продукции, предназначенной для детей и подростков»;

ТР ТС 009/2011 «О безопасности парфюмерно-косметической продукции»;

ТР ТС 015/2011 "О безопасности зерна";

ТР ТС 017/2011 «О безопасности продукции легкой промышленности»;

ТР ТС 021/2011 «О безопасности пищевой продукции»;

ТР ТС 023/2011 «Технический регламент на соковую продукцию из фруктов и овощей»;

ТР ТС 024/2011 «Технический регламент на масложировую продукцию»;

ТР ТС 029/2012 "Требования безопасности пищевых добавок, ароматизаторов и технологических вспомогательных средств";

ТР ТС 033/2013 "О безопасности молока и молочной продукции";

ТР ТС 034/2013 "О безопасности мяса и мясной продукции";

Buyerda “ТР ТС” seriyasidagi texnik reglamentlar “Bojxona Ittifoqining” 2011 yil 7 apreldagi 621-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

## 9.2. Yevropa mamlakatlarida muvofiqlikni baholash va sertifikatlashtirish tizimlari

**Germaniyada sertifikatikatlashtirish.** Germaniyada turli mahsulotlar va buyumlarning tarkibiy qismlari uchun sertifikatlashtirish tizimlari mavjud. Germaniyada sertifikatlashtirishning huquqiy asoslari – insonlarning sog‘liqni saqlash va hayotni muhofaza qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligi, resurslarni tejash va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonunlardir. 1990 yildan beri mamlakatda past sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun javobgarlik to‘g‘risidagi qonun amal qila boshladi. Bu qonun umumiy bozor doirasida sertifikatlashning huquqiy asosini tashkil etadi va u Yevropa Ittifoqining a’zolari bo‘lgan mamlakatlar qonunchiligi bilan uyg‘unlashtirilgan.

Mamlakatda milliy sertifikatlashtirish tizimi bir nechta sertifikatlashtirish tizimlarini o‘z ichiga oladi. Germaniya iqtisodiyotining ehtiyojlari 80-90% tashkil etuvchilarining muvofiqligi ushbu tizimlar tomonidan tasdiqlanadi.

$A_1$ – ushbu muvofiqlikni sertifikatlashtirish tizimi DIN (Germaniya Standartlashtirish Instituti) standartlariga muvofiqligini tasdiqlash orqali DIN muvofiqlik belgisidan foydalanish va muvofiqlik sertifikatlarini berish huquqini beradi. Ushbu tizim DIN qo‘mitalari tomonidan sertifikatlanadigan standartlashtirilgan barcha turdagi mahsulotlar uchun qo‘llaniladi. Ba‘zi istisnoli hollardan tashqari, DIN tizimi bo‘yicha sertifikatlashtirish ixtiyoriydir tusda amalga oshiriladi.

Ushbu tizimda sertifikatlash Evropa Ittifoqida bir nechta sertifikatlashtirish shartnomalarida ishtirok etadigan va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladigan DIN CERTCO muvofiqlikni baholash jamiyati tomonidan amalga oshiriladi. DIN me'yorlariga muvofiqligi bo‘yicha sinovdan o‘tkazilgan mahsulotlar DIN GEPRÜFT belgisi bilan belgilanadi ("DIN talablari muvofiqligi bo‘yicha sinovdan o‘tkazilgan"). Belgining qo‘llanilishi inspeksion nazorat orqali nazorat qilib turiladi. Hozir paytda DIN belgisi sertifikatlangan, standart va xavfsiz mahsulotlargina tamg‘alanadi. DIN GEPRÜFT muvofiqlik belgisi 1972-yilda joriy etilgan.

Ushbu belgidan foydalanish uchun litsenziya talab qilinmaydi.

$A_2$ - VDE (Nemis Elektrotexniklari Ittifoqi) sertifikatlash tizimi bo‘lib, u Sertifikatlashtirish va sinov instituti (PZI) tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Ushbu tizim VDE ro‘yxatiga kiritilgan barcha turdagi elektrotexnika va elektronika mahsulotlar uchun qo‘llaniladi. VDE sertifikatlashtirish tizimi VDE texnik shartlariga yoki DIN standartlariga asoslangan holda faoliyat olib boradi.

Mahsulot turiga qarab tizimda sertifikatlash ixtiyoriy va majburiy bo‘lishi mumkin, bu muayyan turdagi tovarlar uchun talablarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga soladigan qonunlarga bog‘liq.

VDE sertifikatlashtirish tizimlari va sinov natijalarini o‘zaro tan olish bo‘yicha ko‘plab Yevropa va xalqaro bitimlar ishtirokchisidir. VDE tizimining muvofiqlik belgilari deyarli barcha Evropa mamlakatlarida ro‘yxatga olinadi va e‘tirof etiladi.

VDE belgilari bilan tang‘alashning to‘g‘riligini nazorat qilish VDE - Prüfstein sinov va sertifikatlash markazi tomonidan amalga oshiriladi. Sanoat mahsulotlari xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunga yoki Radioshov-qinlardan himoyalash to‘g‘risidagi Qonun talablariga muvofiqligini kafolatlaydi. VDE belgisidan litsenziyasiz foydalanish taqiqlanadi.

*A tizim* - Germaniyalik gaz va suv ta’minoti assotsiatsiyasi - DVGW ning sertifikatlash tizimi bo‘lib, bunda jihozlar DIN standartlariga muvofiqligi majburiy sertifikatlashtirishdan o‘tkazilishi talab etiladi. Agar gaz jihozlari sertifikatlanmagan bo‘lsa, mahalliy gaz kompaniyalari gaz ta'minotiga qo‘shilishdan bosh tortadilar.

Gaz va suv ta'minoti sohasida ishlatiladigan boshqa tovarlar turlari bo‘yicha sertifikatlash ixtiyoriydir, ammo iste'molchilar har doim sertifikatlangan mahsulotni afzal ko‘rishadi.

Sertifikatlash sxemasi DVGW tomonidan ishlab chiqilgan va asosan uy-joy va savdo uskunalar uchun mo‘ljallangan.

*B tizim* (ba’zida RAL tizimi deb ataladi) - Sifatni kafolatlash va tamg‘alash bo‘yicha Germaniya Instituti bevosita rahbarligi ostida faoliyat yuritadi va aning tarkibiga Germaniyaning 150 ta sifat bo‘yicha jamiyatlari kiradi. Har bir sifat jamiyati o‘z faoliyatlarini bir turdagi mahsulotga nisbatan tashkil qiladi. RAL tizimi qo‘llaniladigan asosiy tarmoqlar - bu

qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va qurilish materiallari hisoblanadi. Tizim ixtiyoriy sertifikatlash asosida amalga oshirilsa-da, uning qoidalari DIN standartlarga asoslangan.

*C tizimi* - mahsulotni GS belgisi bilan tamg‘alangan va Asboblarning xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun (GSG) talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi sertifikatlashtirish tizimidir. Germaniyada GS belgisiga muvofiqlik bo‘yicha asboblar sinovi bilan shug‘ullanadigan 100 dan ortiq sertifikatlashtirish organlari faoliyat yuritadi. Tizim ixtiyoriy sertifkatlash-tirishga asoslangan bo‘lib, sinovlar DIN standartlari talablariga muvofiqlik bo‘yicha amalga oshiriladi.

*D tizimi*,bu tizim boshqalardan farqli o‘laroq, majburiy xarakterga ega bo‘lib, qonuniy jihatdan Federal yer boshqaruviga bo‘ysunuvchi organlarning qurilish profilidagi mahsulotlari uchun qo‘llaniladi. Tizimning umumiy boshqaruvi Germaniya qurilish texnikalari institutiga (DIBT) bo‘ysunadi va tizimning asosiy normativ hujjatlari DIN standartlardir.

*E tizimi* – bu tizim qonunlashtiruvchi metrologiya doirasida amal qiladigan sertifikatlashtirish tizimidir. Germaniyada metrologiya sohasidag asosiy organ Federal fizika-texnika instituti hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu tizimga federal yer masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar va akkreditatsiya qilingan sinov markazlari ishtirok etadilar, sinov markazlari Tekshirish to‘g‘risidagi qonun talablariga muvofiq majburiy sertifikatlash-tiriladigan o‘lchash asboblarini muvofikligini tasdiqlash huquqiga egadirlar. Ushbu tizim asosan elektr, issiqlik, gaz va suv bilan bog‘liq o‘lchash asboblari va transformatorlar uchun amal qiladi. Tizim quyidagi muvofiqlik belgilariga moslikni qaraydi: joizlik belgisi, tekshirish belgisi, tasdiqlovchi belgi. E tizimida asboblar ham majburiy, ham ixtiyoriy sinovdan o‘tkazilishi mumkin.

*F tizimi* – bu tizim bug‘ qozonlarini, yuqori bosimli ballonlarni, yonuvchan suyuqliklarni tashish vositalarini, portlashga qarshi elektr jihozlarini, ko‘tarish qurilmalarini sertifikatlashtirish bilan shig‘ullanadi. Federal Hukumatning buyrug‘iga binoan, ushbu tovarlarga nisbatan qat‘iy inspeksion nazorat o‘rnatilgan.

Germaniyada sifatni sertifikatlashtirish bo‘yicha amaliy ishlar Sifat tizimini sertifikatlash bo‘yicha Jamiyat (DQS) tomonidan amalga oshiriladi, bu jamiyat ISO 9000 standartlari chiqarilishidan oldin yaratilgan.Bu notijorat tashkiloti sifat tizimlarini baholaydi, muvofiqlikni belgisidan foydalanish uchun sertifikat va litsenziyalarni beradi, DQS nomidan sifat tizimlarini sertifikatlashtirish tartib-qoidalari asosida tashkilotlarni akkreditatsiya qiladi, inspektorlarni o‘qitadi, o‘z vakolatlari doirasida Germaniyani xalqaro tashkilotlarda ishtirokini ta’minlashni amalga oshiradi.

***Fransiyada sertifikatlashtirish.*** Fransiyada sertifikatlashtirish ishlari 1939 yildan beri amalga oshirib kelinadi. Ushbu sohadagi birinchi qonun NF milliy standartlari muvofiqlik belgisi to‘g‘risida"gi qonun bo‘lib, u hozirgi kunda ham amal qilib kelmoqda. Sertifikatlashtirish uchun javobgarlik Standartlashtirish bo‘yicha Fransiya assotsiatsiyasi (AFNOR) ga yuklatilgan.

Fransiyada sertifikatlashtirish ishlari 1939 yildan beri amalga oshirib kelinadi. Ushbu sohadagi birinchi qonun NF milliy standartlari muvofiqlik belgisi to‘g‘risida"gi qonun bo‘lib, u hozirgi kunda ham amal qilib kelmoqda. Sertifikatlashtirish uchun javobgarlik Standartlashtirish bo‘yicha Fransiya assotsiatsiyasi (AFNOR) ga yuklatilgan. Tashkiliy sertifikatlash sanoat tamoyiliga asoslanadi va milliy standartlar talablariga hamda yangi talab va me'yorlarni ishlab chiqishda ham standartlashtirish tizimi bilan uzluksiz hamkorlik qiladi. sertifikatlashtirish faoliyati AFNORdan tashqari davlat va sanoat darajasidagi organlar tomonidan ham boshqariladi. Bular:

- Fransiya Tashqi savdo markazi (CNCE);
- Texnik reglamentlar va me’yorlar to‘g‘risidagi ma'lumotlar markazi (CINR);
- Elektr muhandislar ittifoqi (UTE).

AFNOR test markazlari va laboratoriyalarning vakolatini belgilaydi, ularni akkreditatsiyadan o‘tkazilishi uchun javob beradi, NF belgisidan foydalanish va uni bekor qilish uchun javob beradi va milliy sertifikatlashtirish organlarining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini muvofiqlashtiradi.

Fransiya Tashqi savdo markazi (CNCE) eksport qilinadigan va import qilinadigan tovarlarni sertifikatlash uchun javobgardir.

Texnik reglamentlar va me'yorlar to'g'risidagi ma'lumotlar markazi (CINR) milliy sertifikatlashtirish tizimlari va iqtisodiyot tarmoqlarini information ma'lumotlar bilan ta'minlashni amalga oshiradi, uning fondida 400 mingdan ortiq standartlar, sertifikatlashtirish tizimlari va qoidalari, dunyoning ko'pgina mamlakatlaridagi, shuningdek xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning akkreditatsiya qilish tartiblari oid hujjatlar mavjud.

Elektr muhandislar ittifoqi (UTE) nafaqat AFNOR tomonidan tasdiqlangan sertifikatlashtirish organi, balki elektronika, elektrotexnika va aloqa sohasida standartlashtirish bo'yicha milliy tashkilot sifatida ham elektron va elektrotexnika mahsulotlarini sertifikatlash bo'yicha tartibga soluvchi talablarni ishlab chiqadi.

Fransiyada muvofiqlikni baholash bir nechta shaklga ega: Yevropa direktivalariga muvofiqligini tasdiqlash; ishlab chiqaruvchining mahsulotning Yevropa standartlariga muvofiqligi haqidagi ariza-deklaratsiya; Fransiya milliy standartlariga muvofiqlikni ixtiyoriy sertifikatlashtirish; Sotuvdagi mahsulotlarning xavfsizligini nazorat qilish.

Yevropa Ittifoqi Direktivalariga muvofiqlik uchinchi tomon tarafidan tasdiqlanadi va CЄ muvofiqlik belgisi bilan tamg'alanadi. Muvofiqlikni baholashning ushbu usuli bilan Fransiyada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning 20% ga yaqini baholanadi.

Tayyorlovchining ariza-deklaratsiyasi mahsulotning aniq Yevropa standartlariga muvofiqligini tayyorlovchining javobgarligi ostida belgilab beradi. Tayyorlovchi CЄ muvofiqlik belgisidan foydalanish huquqiga ega. Mas'ul organlar ushbu mahsulotlarni tamg'alashda tartib-qoidalardan chetlashuvlar aniqlangan taqdirda inspeksion nazorat o'tkazish huquqiga egadirlar. Agar mahsulot chet mamlakatlarning me'yoriy hujjatlari asosida ishlab chiqilgan bo'lsa, uning muvofiqligi uchinchi tomon tarafidan tasdiqlanadi.

Fransiya milliy standartlariga muvofiqlikni tasdiqlashdagi ixtiyoriy sertifikatlashtirish faoliyatlari AFNOR tomonidan amalga oshiriladi, bunda sertifikatlashtirishning eng mukammal bo'lgan 5-sxemasi qo'llaniladi.

Sertifikatlangan mahsulotlar Fransiya milliy standartlariga muvofiqligini tasdiqlovchi NF belgisi bilan tamg‘alanadi. Fransiyada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning 75% gacha qismi ixtiyoriy sertifikatlashtirish orqali baholanadi.

Tayyorlovchi NF belgisidan foydalanish huquqini shartnoma yoki litsenziya asosida olishi mumkiin. Mahsulotlarni NF belgisi bilan tamg‘alash orqali tayyorlovchi nafaqat AFNOR ga nisbatan, balki iste’molchiga nisbatan ham javobgarlikni zimmasiga oladi. Fransiyada 100 mingdan ortiq mahsulot turi NF belgisi bilan tamg‘alanadi, bu belgi turli tarmoqlar uchun 110 xil ko‘rinishga ega. Belgilangan talablarga javob bersa, xorijiy ishlab chiqarilgan mahsulotlar ham ushbu belgilar bilan belgilanishi mumkin.

Arizachilarga yanada qulay imkoniyatlar yaratish maqsadida AFNORsertifikatlashtirishda NF belgisini olish huquqiga ega bo‘lgan vakil organlar tarmog‘ini tasdiqlagan. Vakil organlar AFNORning o‘rnida sertifikatlashtirish bilan bog‘liq vaizfalar (sinov, nazorat, boshqarish) ni amalga oshiradi. NF belgisi bo‘yicha sertifikatlashtirish ixtiyoriy tusga ega.

### 9.3. AQSHda muvofiqlikni baholash va sertifikatlashtirish tizimlari

***AQSHda sertifikatlashtirish.*** CЄ sertifikatlari (CЄ muvofiqlik belgisi) Amerika Qo‘shma Shtatlari hududida ta’sir kuchiga ega emas. AQShning o‘zining standartlari, muvofiqlikni baholash sxemalari, qoidalari bor. Jumladan:

- Mahsulotlarga qo‘yiladigan talablar Bojxona Ittifoqi va Yevropa Ittifoqi talablaridan tubdan farq qiladi;
- Ayrim tovarlar uchun kvotalar va (yoki) bojxona to‘lovlari bo‘lishi mumkin;
- Sertifikatlashtirish ko‘p murakkab jihatlarga bog‘liq (qo‘shimcha sinovlar, sinov laboratoriyalarini tanlashning cheklanganligi);
- Bozor juda katta va qiyinchiliklarga qaramasdan, unga kirish uchun kurashish arziydi. Bundan tashqari, ko‘plab mamlakatlar, masalan, Vetnam,

AQSh standartlari bo‘yicha tayyorlangan jihozlar va uskunalardan foydalanadi;

- Odatda, AQSh va Kanadada mahsulotga bo‘lgan talablar bir-biriga o‘xshashdir va ishlab chiqaruvchilar odatda ikkala mamlakatda ham sertifikatlashtirishni amalga oshiradilar.

Yevropa mamlakatlari, Rossiy va boshqa mamalakatlarda xavfsizlik belgilari qo‘shimcha matnlarsiz beriladi. AQSHda esa xavfsizlik belgilari bilan birga xavf va zarur hatti-harakatlar haqida tushunchalarni o‘z ichiga olgan matnlar, ayrim hollarda turli rasmlar bilan (masalan «dramatic action» deb ataluvchi noto‘g‘ri hatti-harakatlar oqibatini tasvirlovchi kesilgan barmoq rasmi bilan)berilishi kerak.

AQSHda ko‘pgina mahsulotlar uchun majburiy talablar belgilanmagan. Ammo ko‘plab ishlab chiqaruvchilar o‘zlarining mahsulot-larini sertifikatlashtiradilar. Buning sabablaridan biri, sertifikatlangan va sifatli mahsulotlarni davlat subsidiyalashtiradi, ya’ni moliyaviy tomondan ko‘mak beradi. Sabablardan yana biri bu iste’molchilarning mahsulotga nisbatan xavfsizligi, energiyaeffektivligi va ekologik sofligi bo‘yicha tasdiqni talab etishligidir.

AQSHda sertifikatlashtirishga oid faoliyatlarning qonuniy asoslarini turli mahsulotlarning xavfsizligiga oid qonun hujjatlari tashkil etadi. Asosiy qonunlardan biri bu "Iste’mol tovarlari xavfsizligi to‘g‘risida" gi Qonun (1972 yil, 1976 y.li) hisoblanadi. Bundan tashqari ayrim turdagi mahsulotlarning xavfsizligi va sifati to‘g‘risida ko‘p sonli qonunlar ham qabul qilingan: “Go‘sht mahsulotlari sifatini nazorat qilish to‘g‘risida”gi qonun (1957), ‘To‘qimachilik mahsulotlarini identifikatsiya qilish to‘g‘risida”gi qonun (1958 y.), «Mahsulotlar va medikamentlar sifatining davlat nazorati to‘g‘risida»gi qonun (1960 y.), «Reklama vositalari va axborot yorlig‘i ishonchliligi to‘g‘risida»gi qonun (1966), «Yo‘l transporti xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida»gi qonun (1966 y.), "Tez buziladigan va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari to‘g‘risida"gi qonun (1974 yil) va boshqalar. Ushbu hujjatlarga muvofiq milliy standartlarga bo‘ysunib, ichki va tashqi bozorlarda davlat tashkilotlari tomonidan mahsulotlarni sotib olishda mahsulotni majburiy sertifikatlashtirish amalga oshiriladi. Mahsulotlar

federal me'yoriy hujjatlarga muvofiqligibo'yicha sinovdan o'tkaziladi. Majburiy sertifikatlash dasturlarini amalga oshirish davlat organlari nazorati ostida bo'lib, ular har qanday sohada davlat siyosati uchun mas'ul bo'lgan tarmoq vazirliklari va idoralari yoki organlari tomonidan boshqariladi. Ixtiyoriy sertifikatlashtirish ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning talablari bo'yicha korporatsiyalar, muassasalar va boshqa tashkilotlarning ixtiyoriy standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

AQSH federal hukumati mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish bo'yicha uchta asosiy dasturni tasdiqladi:

1. Birinchi toifadagi dasturlar yakka va jamoaviy iste'molda inson sog'lig'iga zarar yetkazuvchi va xavfsizlilik darajasi yuqori bo'lgan bo'lgan mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish uchun mo'ljallangan. Bularning barchasi majburiy xarakterga ega hisoblanadi.

2. Ikkinchi toifadagi daturlar mahsulot namunalari va ishlab chiqarilishini tekshirish yo'li bilan ishlab chiqaruvchilarni har bir mahsulot birligini nazorat qilish zaruriyatidan xolos etish maqsadida ishlab chiqligan.

3. Uchinchi toifali dasturlarda mahsulotlarni sotish uchun zarur shart-sharoitlar sifatida ishlab chiqarish sifati va shartlarini obyektiv baholash nazarda tutilgan.

Ikkinchi va uchinchi toifadagi dasturlar majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish uchun qo'llaniladi.

Ishlab chiqaruvchilar tashabbusi bilan birinchi toifadagi dasturlar doirasida aviatsiya texnikasini sertifikatlashtirishboshlandi, bu esa aholining parvozlar xavfsizligiga bo'lgan ishonchini oshirdi va samolyotlarni boshqa davlatlarga sotish imkoniyatini yaratdi.Shuningdek kemalar, dokklar (kem tuzatuvchi korxonalar), avtomobillar, konteynerlar, shu jumladan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va magistral quvurlarini sertifikatlashtirishham ushbu dasturlar asosida amalga oshiriladi. Oziq-ovqat va farmatsevtika xavfsizligi idorasining sertifikatlash dasturlari nafaqat odamlar tomonidan emas, balki hayvonlar tomonidan iste'mol qilinadigan mahsulotlarni testdan o'tkazishni o'z ichiga oladi.Giyohvandlik vositalari va tibbiy asboblar nafaqat zararsizlik, balki samaradorlik uchun sinovdan o'tkaziladi.

AQSHda standartlashtirish va sertifikatlashtirish sohasida faoliyat yurituvchi ayrim tashkilotlarning nomlarini keltirib o‘tamiz:

***ANSI (American National Standards Institute) - Amerika milliy standartlari instituti***. 1918 yil 19 oktyabrda tashkil etilgan nodavlat organi. Institut ishlab chiqarishning deyarli har bir sektorida bevosita ta’sir ko‘rsatadigan minglab standartlar va me’yorlarni yaratish, e‘lon qilish va ulardan foydalanishni nazorat qiladi.Institut Qo‘shma Shtatlar ixtiyoriy standartlashtirish tizimining xususiy sektorida administrator va koordinator sifatida faoliyat yuritadi.

***NIST (National Institute of Standards and Technology) - Standartlar va texnologiyalar milliy institut).*** NIST 1901 yilda tashkil topgan va hozirda AQSh Savdo vazirligi tarkibiga kiradi. NIST dunyodagi eng qadimgi fizik-texnik laboratoriyalardan biridir. NISTning vazifalariga ixtiyoriy sertifikatlashtirish organlarini muvofiqlashtirish, standartlarni ishlab chiqish va muvofiqlikni baholashda ishtirok etish kiradi.

***ASTM (American Society for Testing and Materials) – Materiallar sinovi bo‘yicha Amerika jamiyati.*** ASTM 1898 yilda tashkil etilgan bo‘lib, standartlar ishlab chiquvchi eng yirik dunyodagi xalqaro tashkilotidir. ASTM standartlari keng ko‘lamli mahsulotlarni qamrab oladi: aerokosmik va aviatsiya texnikasi mahsulotlari, qurilish materiallari, metallar va qotishmalar, shisha buyumlar va boshqalar.

***EPA (United States Environmental Protection Agency)*** - ***AQSh atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi.*** EPA asosan inson salomatligini va atrof-muhitni himoya qilish masalalari bilan shug‘ullanadi. EPA kongress tomonidan qabul qilingan atrof-muhit qonunlariga asosan tartibga solishni amalga oshiradi va nazorat qiladi. Agentlik Richard Nikson tomonidan taklifiga asosan tashkil etilgan va 1970 yil 2 dekabrdan o‘z faoliyatini boshlagan.

***NFPA(National Fire Protection Association) - Yong‘indan himoya qilish Milliy assotsiatsiyasi.*** NFPA 1896 yilda yong‘in, elektr va boshqa xavf-xatarlar oqibatida o‘lim, jarohatlar olish, mulk va iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirish masalalari bilan shug‘ullanuvchi notijorat tashkiloti hisoblanadi. NFPA 300 dan ortiq kodekslar va standartlar

bo‘yicha axborot va bilimlarni taqdim etadi, tadqiqot va o‘qitish jarayonlarini amalga oshiradi.

**IX bobni takrorlash uchun savollar:**

1. Rossiya Federatsiyasida muvofiqlikni baholash va sertifikatlashtirsh qanday tartibda amalga oshiriladi?
2. Rossiya Akkreditatsiya tizimi haqida ma’lumot bering.
3. Qozog‘iston Respublikasida muvofiqlikni baholash ishlari nimalarga asosan amalga oshiriladi?
4. Belarus Respublikasida muvofiqlikni baholash ishlari nimalarga asosan amalga oshiriladi?
5. Germaniyada sertifikatlashtirish tizimi hawqida aytib bering.
6. Germaniyada sifatni sertifikatlashtirish bo‘yicha amaliy ishlar kim tomonidan amalga oshiriladi?
7. Fransiyada sertifikatlashtirish ishlari qanday ko‘rinishlarda va qanday tartibda amalga oshiriladi?
8. AQSHdagi muvofiqlikni baholash va sertifikatlashtirish tizimlari haqida ma’lumot bering.
9. AQSHda ko‘pgina mahsulotlar uchun majburiy talablar belgilanmagan, ammo ko‘plab ishlab chiqaruvchilar o‘zlarining mahsulotlarini sertifikatlashtiradilar. Buning sabablari nimada deb o‘ylaysiz?
10. AQSHda standartlashtirish va sertifikatlashtirish sohasida faoliyat yurituvchi qanday tashkilotlarni bilasiz?

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublkasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli Farmoni. - T.:2017-yil 7 fevral.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 apreldagi "O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2935-sonli qarori.

4. “Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (2018 yil 30 mart).

5. “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2013 yil 4 oktabr.

6. “Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o‘tkazish sohasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zR VM 349-sonli qarori. 29.04.2019 yil.

7. B.Alixonov, S.Samoylov, R.Ibragimov. O‘zbekcha-ruscha-inlizcha ekologik izohli lug‘at. Toshkent, “ChinorENK”, 2004.

8. А.П.Олефирова. Сертификация услуг. Учебное пособие. –Улан-Удэ. Изд-во ВСГТУ, 2005. -140 с.

9. O‘z DSt ISO/IEC 17025: 2007 Государственный стандарт Узбекистана. Общие требования к компетентности испытательныхи калибровочных лабораторий(ISO/IEC 17025:2005, IDT).

10. Mahsulotning xavfsizlik talablariga muvofiqligini deklaratsiyalash tartibi to‘g‘risida Nizom. Toshkent, 2005 yil 4 mart.

11. Muvofiqlikni baholash organlarini va metrologik xizmatlarni akkreditatsiya qilish hamda inspeksiya nazoratidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom. Toshkent, 2015 yil 14 oktabr.

12. “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1993 yil 28 dekabr.

13. Oʻzbekiston texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimini shakllantirish va standartlashtirish davlat tizimini isloh qilish konseptsiyasi. Toshkent, 2018.

14. “Texnik jihatdan tartibga solish toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni. 23 aprel 2009 yil.

15. Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan oʻtkazish tartibi toʻgʻrisida Nizom. Toshkent, 2015 yil 14 oktabr.

16. Ismatullaev P.R. va boshq. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. Toshkent, «Oʻzbekiston», 2001.

17. ГОСТ ISO/IEC 17011 - 2018. Оценка соответствия. Требования к органам по аккредитации, аккредитующим органы по оценке соответствия. Москва, Стандартинформ, 2018.

18. А.П.Олефирова. Потверждение соответсвия. Учебное пособие. Улан-Удэ, изд-во ВСГТУ, 2007. -209 с.

19. www.standart.uz

20. www.smsiti.uz

21. https://www.gost.ru/portal/gost/home/activity/compliance

22. https://mc.misis.ru/practicum/standart/ISO.htm

23. https://severnyetravy.ru/uz/v-kakih-dokumentah-ustanavlivayutsya-formy-ocenki-sootvetstviya/

# ILOVALAR

*Ilova-1*

